Agar kompyuter tarmog’ida maxsus ajratilgan kompyuterlar (ya’ni fayl serveri) mavjud bo‘lsa, bunday tarmoqlar ***klient (mijoz)-server*** turidagi kompyuter tarmoqlari deb ataladilar. Agarda bunday turdagi maxsus server mavjud bo‘lmasa, tarmoqdagi barcha ish stantsiyalari bir xil imkoniyatlarga ega bo‘ladilar va demak, bunday tarmoqlarni bir xil imkoniyatli kompyuterlarga ega bo‘lgan tarmoqlar deb ataladi. Bunday kompyuter tarmoqlarining yaxshi tomonlaridan biri – ularga maxsus dasturviy ta’minot zarur emas. **Windows** operatsion sistemasida bir xil imkoniyatli kompyuterlarga ega bo‘lgan tarmoqlarni boshqarish uchun barcha imkoniyatlar mavjud. Ish stolida **Setevoe okrujenie** deb nomlangan belgi bo‘lib, u turtilsa, tegishli darcha ochiladi va uning yordamida ish guruxining xar bir a’zosi mustaqil ravishda boshqa kompyuterlarga kira oladi, xamda xamkasabalarining birgalikda ishlash uchun ochilgan (yoki xosil qilingan) papka va fayllaridan xamda amaliy dasturlaridan bemalol foydalana oladi. Undan tashqari **Windows** operatsion sistemasi birgalikda ishlatiladigan ma’lumotlarga kirish rejimlarini boshqarishga xam imkon beradi. Bunday boshqaruv usulini amalga oshirish ***sistemaviy sigsat*** yoki ***sistemaviy qoidalar*** deb ataladi. Lokal tarmoq ishiga mas’ul va tegishli sistemaviy ***sigsat*** ni o‘rnatuvchi Shaxsni *sistema adminstratori* deb ataladi. Demak, agarda tashkilotda lokal tarmoq mavjud bo‘lsa, unda albatta sistema administratori xam bo‘lishi lozim. Uning asosiy majburiyatlari jumlasiga lokal tarmoqda ishlayotgan xodimlarni tegishli ma’lumotlar bilan ta’minlash va kerak bo‘lsa amaliy yordam berish kiradi.

1.5. Lokal tarmoqlar topologiyasi.

Lokal tarmoqning tuzilishiga va undagi kompyuterlarning o‘zaro bog’likligi qandayligiga uning topologiyasi deb ataladi. Ularning quyidagi asosiy turlari mavjud:
1.***Shina*** turiga mansub topologiY. Bu turdagi tuzilish juda oddiy bo‘lib, unda tarmoqdagi barcha kompyuterlar bitta kabelga ulangan bo‘ladi. Ushbu kabel orqali tarmoq faoliyati uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlar majmuasi, adreslar va boshqaruv ma’lumoti xarakat qiladi.



Rasm 5.4.

1. Barcha kompyuterlari aylanma usulda bir biri bilan ulangan turdagi tuzilma ***aylanma*** tarmoq deb ataladi.



Rasm 5.5.

2. Fayl serveri asosida tashkil kilingan tarmoqlar uchun ***yulduzli*** ko‘rinishdagi topologiya xam qo‘llanilishi mumkin. Bunda tarmoq kompyuterlari yulduzsimon usulda bir-biri bilan bog’langan bo‘ladi.



Rasm 5.6.

3. **Ierarxik** ko‘rinishdagi tarmoq tuzilishi biri-biriga bog’lik bo‘lgan tuzilmalar majmuasi shaklida bo‘lib, ularning **xar bir ishchi guruxida bittadan fayl serveri** bo‘ladi va butun tuzilma (yoki **tashkilot) uchun**



Rasm 5.7.

bitta markaziy server mavjud bo‘ladi;

4. **Aralash** ko‘rinishdagi tarmoqlarda yukorida ko‘rsatilgan barcha turdagi topologiya turlari ishlatilishi mumkin. global tarmoqlar ko‘pincha xuddi Shunday topologiyaga, ya’ni, tuzilishga ega bo‘ladilar.



Rasm 5.8.

1.6. Lokal tarmoqlarning ishlashi.

Yukorida ko‘rib chiqilgan barcha kompyuter tarmoqlarining asosiy moxiyatini ular uchun ***ma’lumotlarni va resurslarni*** birgalikda ishlatish imkoniyatini yaratishdir deb ifodalashimiz mumkin. Bunda avvalo ma’lumotlarni birgalikda ishlata olish imkoniyati tushuniladi. Biror bir loyixa ustida ish olib borayotgan insonlarga ko‘pincha o‘z xamkasabalari tomonidan yaratilgan ma’lumotlar va dasturlardan keng mikyosda foydalanishga to‘g’ri keladi. Kompyuterlararo tarmoq alokasi xosil kilinganligi tufayli bunday Shaxslar ma’lumotlardan galma-galdan navbat orqali emas, balki baravariga foydalanish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Bundan tashqari lokal tarmoqda ishlovchilar kompyuterning xilma xil jixozlarini xam birgalikda ishlatish imkoniga ega bo‘ladilar. Masalan, ko‘pincha bo‘lim uchun bitta printer sotib olib, bo‘lim xizmatchilarining barchasining kompyuterlarini lokal tarmoqqa ulagan xolda undan umumiy foydalanishni tashkil qilish ancha arzonroq tushishi mumkin. Jixozlar, dasturlar va ma’lumotlarni resurslar degan jamlama so‘z bilan ifodalash mumkin. Demak, lokal tarmoq tuzishdan maqsad – ***resurslarni*** birgalikda ishlatish imkonini yaratishdir. Bundan tashkari, lokal tarmoqning ***administrativ funktsiyalari*** xam mavjud, ya’ni biror-bir loyixa boyicha bajarilagtgan ishlarni nazorat kilish va boshkarish masalalari xam tarmoq tashkil qilingan taqdirda ancha samarador amalga oshiriladi. Chunki aloxida mustaqil kompyuterlarda bajarilagtgan ishlarni nazorat kilishdan ko‘ra, tarmoqdagi kompyuterlarda bajarilagtgan ishlarni nazorat qilish osonroq bo‘ladi.

1.7. Tarmoq protokoli va paketli protokol.

Kompyuterlarning lokal tarmoqdagi faoliyatini xamda bir-biri bilan aloqasini tegishli dasturlar boshqarib va nazorat qilib turadilar. Kompyuterlarning bir-birlarini tushunishlari va o‘zaro ma’lumot almashina olishlari uchun ular bir xil tilda so‘zlasha olishlari kerak. Tarmoqdagi kompyuterlarning bunday ma’lumot almashinish tili ***tarmoq protokoli*** deb ataladi. Keyingi paytlarda paketli protokollar keng mikyosda ko‘llanila boshladi. Bunday protokollarni ishlatganda kompyuterlararo almashinayotgan ma’lumotlar kichik-kichik qismlarga yoki bloklarga bo‘linadilar. Xar bir aloxida bo‘lak (blok) o‘ziga xos **«konvert»** larga solinadi va natijada ma’lumotlar paketi xosil bo‘ladi. Bunday paketlar ma’lumotlarning o‘zini xamda xizmatchi ma’lumotlarni o‘z ichiga qamrab oladi. Ya’ni, u kimga yo‘naltirilgan, kimdan jo‘natilgan, paketlar ketma-ketligi qanday va xakozo. Paketli protokol ma’lumotlar paketining tarmoqdagi xarakatini, adresat tomonidan uning olinishini va kichik paketlardan to‘la ma’lumot matnining yig’ilishini ta’minlab beradi. Xar bir ish stantsiyasi davriy ravishda tarmoqqa bog’lanib turadi va undan o‘tayotgan paketlarning xolatini tekshirib turadi. U o‘ziga yo‘naltirilgan paketlarni olib qoladi va boshkalarini uning adresi boyicha jo‘natadi.

Paketli alokaga mos bo‘lgan oddiy bir misol ko‘rib chikamiz. Masalan, biz to‘rt varakdan iborat bo‘lgan xat yozdik va ularni 1,2,3,4 deb belgiladik, xamda xatlarni to‘rt aloxida pochta kutisiga tashladik deb faraz qilaylik. Xatning xar bir bo‘lagi adresatga o‘z yo‘li bilan aloxida boradi. Faraz qilamizki, adresatga ushbu xatning bo‘laklari 2,3,4,1 ketma-ketligida keldi. Xatimiz bo‘laklarining ushbu ketma-ketligini bildiruvchi xizmat ma’lumoti majudligi tufayli adresat ularning xammasini olgandan so‘ng xatni to‘la ravishda tiklay oladi va uni o‘kishni amalga oshiradi. Bunday usulda ma’lumot almashinishda konvertlarning axamiyatiga e’tibor bering – u nafaqat xatning kobig’i, balki uni to‘g’ri o‘qiy olishni ko‘rsatib beradigan qoidalar to‘plami xamdir. Ushbu qoidalar aloqa vazirligi tomonidan o‘rnatilgan pratokol elementlaridir desak, mubolog’a qilmagan bo‘lar edik. Konvertda undagi ma’lumotni qaerga olib borish lozimligi (oluvchining adresi xamda pochta indeksi) va egasi topilmagan takdirda xatni qaerga qaytarib yuborish kerakligi (xat jo‘natuvchining kaytarma adresi) xamda to‘lov amalga oshirilganligi xaqidagi ma’lumot (marka) ko‘rsatilgan bo‘ladi. Agarda konvert

noto‘g’ri yoki tushunarsiz to‘ldirilgan bo‘lsa yoki unda marka mavjud bo‘lmasa, protokolga rioya qilinmagan deb xisoblanib, xat tegishli manzilga etib bormaydi.

Windows operatsion sistemasi bir kancha tarmoq pratokollarini ko‘llashga imkon beradi. Lokal tarmoq taShkil kilinganda qanday texnik jixozlar ishlatilganiga karab, ma’lumot almaShiniShning u yoki bu turdagi pratokolini ishlatish mumkin. Pratokolning turi **BoShqaruv paneli** («**Panel upravleniya**») panelidagi «**Set i udalenniy dostup k seti**» belgisi orqali tanlanishi mumkin. Buning uchun «**Pusk**» tugmachasini bosib, «**Nastroyka**» imkoniyati tanlanadi va undan so‘ng «**Set i udalenniy dostup k seti**» belgisi turtiladi.

TCP/IP protokolni Windows XP operatsion tizimida sozlash

1. **Пуск** tugmasi orqali **Панел управления** kiramiz.



Rasm 5.10.

2. Uni ichida esa **Сетевые подключения** bo‘limini tanlab olamiz.

Rasm 5.11.

3. Keyingi qadamda **Подключение по локальной сети** bo‘limini belgilab olib, sichqoncha o‘ng tugmasini bosib, **Свойствага** kiramiz.



Rasm 5.12.

4. Протокол Интернета (TCP/IP) belgilab, Свойства tugmasini basamiz, so‘ng OK.



Rasm 5.13.

5. **Получит IP – адрес автоматически** (avtomatik tarzda IP – adres ko‘rish) joyiga nuqta ko‘ying.



Rasm 5.14.

6– L A B O R A T O R I YA I SH I
C++ ALGORITMIK TILNING CHIZIQLI OPERATORLAR. DASTURLARI BILAN ISHLASH.

Ishning maqsadi. C++ dasturlash tilida ishlash xakida kiskacha nazariy ma’lumotlar va matematik funktsiyalarni echish kunikmalarini xosil kilish.

Topshiriqlar:

1. C++ dasturlash tilida ishlash xakida qisqacha nazariy tushunchaga ega bulish va matematik funktsiyalarni echish kunikmalarini xosil qilish;
2. Berilgan topshirikni quyida keltirilgan reja asosida bajarish;
3. Ish bo‘yicha hisobot tayyorlang.

Nazariy qism:

Funktsiyalar, formulalar.

Dasturlash yaratilayotgan proektni yozishning maxsus usuli. Bir qarashda dasturni qayta ishlash uchun kompyuter xotirasiga kiritish etarliyu, ammo uning stili va ayniqsa o‘ziga xos yozilishining ahamiyati yo‘qdek bo‘lib ko‘rinadi. Aslida esa dastur tushunarli va o‘qish uchun oson bo‘lishi kerak. Zarurat tug’ilganda uni tushuna olish yoki unga kerakli o‘zgartirishlar kiritish mumkin bo‘lishi kerak. Ham tabiiy, ham matematik tillarda tasvirlangan ifodalar vositalaridan oqilona foydalanish sifatli dasturlar yaratishning etarli shartlaridan hisoblanadi.

Dastur tuzish ijodiy ish hisoblanadi, chunki hatto aniq ifodalangan maqsadga etish uchun usullarni izlash ham umumiy holda yangi bilim va ko‘nikmalarni ishlab chiqish va qo‘llashni talab qiladi. Ba’zi xususiy hollarda sistemaliroq va formalroq dasturlash protseduralarini topish mumkin. Agar dasturlash uchun qoyilgan masala algoritm ko‘rinishida tasvirlangan bo‘lsa, u holda dasturlash algoritmning yozilish tilidan bajaruvchi tomonidan tushunarli bo‘lgan tilga ko‘chirishdan iborat bo‘ladi. Ba’zi bir matematik modellarda o‘tkazish masalasi tugal echiladi. Algoritmlarning yozuvlarini o‘tkazuvchi sistematik protseduralarni izlash yoki dasturni masalaning shartlaridan va qo‘shimcha ma’lumotlar asosida yaratish ***sintez dasturi*** va uning ***dasturni translyatsiya qilish*** xususiy holining mavzusi (predmeti) hisoblanadi.

Dasturlash metodikasi dasturning zarur spetsifikatsiyalari usullariga asosiy e’tiborni qaratadi, chunonchi spetsifikatsiyaga joylashtirilgan ma’lumotlardan unumli foydalanish dasturning ishonchliligini oshiradi. Dasturning to‘g’riligini tekshirishni osonlashtiruvchi uning strukturasini yaratish dasturlashning asosiy aspekti hisoblanadi.

Dastur parametrlari asosida dasturning asosiy hisoblash ishlarining usullari tayyor formulalar asosida hisoblashlardan iborat bo‘ladi. U kattalik berilgan sonlar ustida biror-bir amallarni bajaruvchi formula yordamida tasvirlangan bo‘lsin. Amallar quyidagilardan biri bo‘lishi mumkin:

- ✓ Arifmetik amallar (qo‘shish, ayirish, ko‘paytirish, bo‘lish, butun bo‘lish, qoldiqni hisoblash);
- ✓ Matematik funktsiyalar (ildiz topish, natural logarifm, trigonometrik funksiyalar, ko‘rsatgichli funksiyalar va boshqalar).

Misol 1. Chiziqli jarayon. Berilgan funktsiyani xisoblang

$$z = \frac{6\ln\sqrt{e^{x+1} + 2e^{x} \cdot \cos x}}{\ln\left(x - e^{x+1} \cdot \sin x\right)} + \left|\frac{\cos x}{e^{\sin x}}\right|.$$

Aniqlash soxasini xisobga olgan xolda , blok sxemani tuzing, ifodani tugri C++ da avval ezvalib, dasturini ezib natijani oling

Blok sxema quydagi ko‘rinishga ega



Rasm 6.1.

Dastur qoydagi ko‘rinishga ega

```cpp
#include <iostream>
#include <cmath>
 using namespace std;
    int main()
{
       float x,z;
           cin >> x;
       cout << z << 6 * log(sqrt(exp(x + 1) + 2*exp(x)*cos(x))) /
    log(x - exp(x + 3) * sin(x)) + fabs(cos(x) / exp(sin(x)))<< endl;

         system("PAUSE");
        return 0;
}

```

Rasm 6.2.



Rasm 6.3.



Rasm 6.4.



Rasm 6.5.

Misol 2. Burchak tezligini aniqlang:
1) soat soniya ko‘rsatkichi,
2) daqiqa soniya ko‘rsatkichi,
3) soat ko‘rsatkichi,
4) Er yuz o‘qi atrofida, schitaya, erning bir aylanmasi 24 soatdan iborat,
5) Lavalning bug’ turbinasi, aylanmasi 15000 daqiqada.
Masalani echilishi:
Burchakli tezlik:
1) coat soniya ko‘rsatkichi
W*60=2П unda w=2П/60=0,1047c^{-1}
2) daqiqa soniya ko‘rsatkichi
W*3600 =2П unda w=2П/3600=0,001745c^{-1}
3) soat ko‘rsatkichi
W*12*60*60=2П unda w= 2П/43200 =П/21600 =0,0001453
4) Er yuz o‘qi atrofida, schitaya, erning bir aylanmasi 24 soatdan iborat,
W*24*60*60=2П unda w= 2П/86400=0,0000727c^{-1}
5) Lavalning bug’ turbinasi, aylanmasi 15000 daqiqada.
15000*2П bu 60 sekunda w=30000 П/60=50 П=1571c^{-1}
Dastur qoydagi ko‘rinishga ega

```
 0 #include <iostream>
 1 #include <cmath>
 2 #define PI 3.14159265
 3  using namespace std;
 4 int main()
 5 {
 6   float w;
 7
 8   cout << w << 2*PI/60 << endl;
 9   cout << w << 2*PI/3600 << endl;
10   cout << w << 2*PI/43200 << endl;
11   cout << w << 50*PI << endl;
12    system("PAUSE");
13   return 0;
14 }
15
```

Rasm 6.6.



Rasm 6.7.

Misol 3. Nazariy mexanika masalasi.
Berilgan: **x=asinkt**
y=acos kt
z=vt
a,k, v –const
F(x,y,z) =? S=f(t) =?
Echilishi

$$\sin^2 kt = \frac{x^2}{a^2}$$

+

$$\cos^2 kt = \frac{y^2}{a^2}$$

$$1 = \frac{x^2}{a^2} + \frac{y^2}{a^2}$$ yoki $a^2 = x^2 + z^2$

Ko‘rinib turibdi, gorizontal tekislikda elektronlar doira boylab xarakatlanadilar, qaysiki vertikal boylab konuniy to‘gri ko‘chadi va shunday formulaga to‘gri keladi **z= vk**. Hulosa qilib aylana tasma simon traektoriyani xosil qiladi.
Harakat qonunini aniqlaymiz:

$v_x = ak\cos kt$, $v_y = -ak\cos kt$, $v_z = \nu$

$v = \sqrt{v_x^2 + v_y^2 + v_z^2} = \sqrt{a^2k^2 + \nu^2}$ unda $s = \sqrt{a^2k^2 + \nu^2} \bullet t$

Boshlang'ich daqiqada t=0, x=0, y=a, z=0 Qadami $h = \frac{2\pi}{k}\nu$

Dastur qoydagi ko'rinishga ega

```
#include <iostream>
#include <cmath>
#define PI 3.14159265
 using namespace std;
    int main()
{
      float a,k,v,t,h,f,s;
      cin >> a >> k >> v >> t;
      cout << h << 2*PI/k*v << endl;
      cout << f << sqrt(pow(a,2)*pow(k,2)+pow(v,2)) << endl;
      cout << s << sqrt(pow(a,2)*pow(k,2)+pow(v,2))*t << endl;
system("PAUSE");
       return 0;
}
```



Rasm 6.8.



Rasm 6.9.

Turli xil chiziqli dasturlar

```
#include <cmath>
#define PI 3.14159265
 using namespace std;
int main()
{
  double param = 90.0;

  cout << sin(param*PI/180) << endl;

   system("PAUSE");
  return 0;
}
```

Rasm 6.10.



Rasm 6.11.

Zamonaviy Dasturlash tillarida murakkab ifodalarni hisoblash mos turlarni o‘zgartirish bilan registr xotirada translyator yordamida bajariladi. Lekin Dasturlashga o‘rgatish maqsadida o‘rgatish va Dasturlashning birinchi bosqichlarida formulalar boyicha hisoblash ketma-ketligiga

e’tibor berish tavsiya etiladi. Undan tashqari, turlarning o‘zgarishini kuzatish (ma’lumotlar turlari keyinroq ko‘rib o‘tiladi), kiritilgan ma’lumotlarning xatoligini va mos ravishda olingan natijaning to‘g’ri ishonchli raqamlari sonini (yoki xatoligini) baholash foydalidir.

7- LABORATORIYA ISHI
C++ ALGORITMIK TILNING TARMOQLANISH OPERATORLAR. DASTURLARI BILAN ISHLASH.

Maqsad: C++ dasturlash tilida tarmoqlanuvchi tarkibli algoritmlarda, shartning bajarilishi yoki bajarilmasligiga qarab qaysi punktlar ketma-ket bajarilishi aniqlanadi.

Topshiriqlar:
1.Tarmoqlanuvchi masalaning qoyilishi.
2. Tarmoqlanuvchi algoritmi(blok-sxema ko‘rinishida)ni tuzish.
3. C++ tilida tarmoqlanuvchi dastur tuzish.
4. Berilgan topshiriq varianti boyicha kompyuterga kiriting.
5. Ish bo‘yicha hisobot tayyorlang.

Nazariy qism:

Tarmoqlanuvchi jarayonda bir necha operatorlar ketma- ketligidan shart bajarilishiga qarab bitta operator tanlab olinadi. Bu ko‘rinishdagi dasturlarni tizim uchun shartsiz, shartli va tanlash operatorlaridan foydalaniladi.
Shartsiz o‘tish operatori. Bu operatorning qadimiy ko‘rinishi qoyidagicha bo‘ladi:
bo‘lganidek, murakkab konstruktsiyalar bo‘lishi mumkin.
dofo “belgi”;
Shartli operator

Dasturda shohlanishlarni tashkil qilish uchun, ya’ni ayrim faktorlarga bog’liq holda turli xatti-harakatlar bajarilishi uchun, if operatori qo‘llanadi.
Operator quyidagi formatga ega:
if (ifoda){operator-1;}[else{operator-2;}]
if operatorining bajarilishi ifodani hisoblashdan boshlanadi. Keyin bajarilish quyidagi sxema boyicha amalga oshiriladi.:
agar ifoda haqiqiy bo‘lsa (ya’ni noldan dan boshqa), bu holda operator-1 bajariladi.
agar ifoda sohta bo‘lsa (ya’ni 0 ga teng), bu holda operator-2 bajariladi.
agar ifoda sohta bo‘lsa-yu, operator-2 bo‘lmasa (shart bo‘lmagan konstruktsiya kvadrat qavslar ichiga olingan), bu holda if dan keyin turgan operator bajariladi.
Misol:

```
If (i<j)
{
i++;
}
Else
{
j=i-3;
i++;
}
```

Bu misol yana shuni ham ko‘rsatadiki, operator-1 o‘rnida, xuddi operator-2 o‘rnida Solib qoyilgan if operatorlaridan foydalanishga ham yo‘l qoyiladi. if operatori if konstruktsiyasi tarkibiga yoki boshqa if operatorining else konstruktsiyasiga kiritilgan bo‘lishi ham mumkinga.
Misollar:

```
int t=2;
int b=7;
int r=3;
if(t>b)
{
if(b<r)
{
r=b;
}
}
Else
{
r=t;
return (0);
}
```

Ushbu dasturning bajarilishi natijasida r=2 bo‘ladi.

Bunda dasturning bajarilishi jarayoni **doto** xizmatchi so‘zidan keyin yozilgan belgidan davom etadi. Bundan tashqari, shartsiz o‘tish operatorida ishlatiladigan **belgi label** xizmatchi so‘ziyordamida dastur salahasida tasvirlab qoyilishi lozim.

Shartli o‘tish operatori. Shartli o‘tish operatori berilgan biror shartning bajarilishi yoki bajarilmasligiga qarab operatordan birini tanlashga imkon beradi. Bunda tanlash dastur umumiy ko‘rinishlari qoyidagicha bo‘ladi:

if (ifoda){operator-1;} **1 kurinishi**

if (ifoda){operator-1;}[else{operator-2;}] **2 kurinishi**

1) Ko‘rinishidagi operator agar **<shart>** o‘rnidagi mantiqiy ifodaning qiymmati true (past) bo‘lsa u holda then xizmatchi so‘zidan keyingi operatorni aks xolda shartli o‘tish operatoridan keyingi operatorga boshqarishni o‘tkazish uchun ishlatiladi. Shartli o‘tish operatorining bu ko‘rinishi to‘liqsiz o‘tish operatori deb ataladi.
2) Ko‘rinishdagi operator shartli o‘tish operatorining to‘liq ko‘rinishi deb ataladi. Bu operator ishlatiladigan then va else xizmatchi so‘zlardan keyin yozilgan ikki operatordan biri tanlab olinadi. Bunda agar **<shart>** o‘rnidagi mantiqiy ifodaning qiymati rost bo‘lsa u holda then dan keyingi operator, aks xolda esa, else dan keyingi operator bajariladi.

Tanlash operatori (Case). Ma’lumki, shartli o‘tish operatorida berilgan shartning bajarilishi-bajarilishmasligiga qarab ikki xoldan bittasi ya’ni then dan yoki else dan keyingi operator tanlanar edi.

Ba’zan shunday masalalar uchraydiki, shartning bajarilishi-bajarilmasligiga qarab, bir nechta operatorlardan (ikki yoki undan ortiq) birini tanlashga to‘g’ri keladi. Buni yo‘qoridagi shartli operatorlardan foydalanib ham amalga oshirish mumkin. Lekin bunday dastur foydalanuvchi uchun ham o‘qitilishi noqulay, ham hajmi katta bo‘ladi.

C++ dasturlash tilida uni qulay ko‘rinishida yozish operatori mavjud bo‘lib, qiymatiga qarab tarmoqlanishga berilgan bir necha hollardan faqat bittasigina tanlab olinadi. Bu operatorning umumiy ko‘rinishi qoydagicha bo‘ladi.

```
Switch < ifoda >
Case <ifoda>of
<Berilganlar royxati>: <operatorlar>;
END;
```

Operatorda ifoda yani tinlovchi sifatida olingan ifodaning qiymati butun, satrli **(belgili),** mantiqiy yoki foydalanuvchi tomondan aniqlangan, chegaralangan va sanab o‘tiladigan turlardan biri bo‘lishi mumkin.

Bu operator bajarilganda dastavval **<ifoda>** qiymati aniqlanadi. Shundan so‘ng uning qiymati belgilar royxatida berilgan qaysi belgining qiymati bilan ustma - ust tushsa, shu belgili

operator bajariladi. Bu operator bajarilib bo‘lgandan keyin boshqarish shu tanlash operatordan keyingi operatorda keyilgi operatorga uzatiladi. Agar ifadaning qiymati belgilangan birontasi bilan ham ustma-ust tushmasa u holda bu operator aniqlanmagan bo‘ladi. Belgilar operatorlardan ikki nuqta **(:)** bilan ajratib yoziladi. Ifoda qiymatining **turi, belgi turi** bilan bir xil bo‘lishi kerak.

USLUBIY KO‘RSATMA. TARMOQLANISH JARAYONI

$$y = \begin{cases} e^{x+0,6} - |x-5| & , \quad agar \quad x \geq 5 \\ \ell n^2 (1+\frac{1}{x}) & , \quad agar \quad 0 < x < 5 \\ ctg\ x + tgx & , \quad agar \quad x \leq 0 \end{cases}$$

Dev C++ dagi dastur quydagi ko‘rinishga ega

```
 0 #include <iostream>
 1 #include <cmath>
 2  using namespace std;
 3  int main()
 4 {
 5       double x,y;
 6
 7     cin >> x;
 8          if(x >= 5)
 9          y = exp(x+0.6)-fabs(x-5);
10              else
11          if(0 <= x <= 5)
12              y = pow(log(1+1/x),2);
13          else
14              y=1/tan(x)+tan(x);
15
16     cout << y;
17     system("PAUSE");
18     return 0;
19 }
20
```

Rasm 7.1.

So‘ng dasturni bajarishga beramiz



Rasm 7.2.



Rasm 7.3.

8- LABORATORIYA ISHI
C++ ALGORITMIK TILNING TAKRORLANISH OPERATORLAR. DASTURLARI BILAN ISHLASH.

Maqsad: Takrorlanuvchi (siklik) tarkibli algoritmlarda ularning biror-bir bo‘lak punktlari parametrlarning qabul qilish qiymatiga qarab ketma-ket takroran bir necha marta bajarishni dasturini tuzishni o‘rganish.

Topshiriqlar:
1. Takrorlanuvchi (siklik) masalaning qoyilishi;
2. Takrorlanuvchi (siklik) algoritmi(blok-sxema ko‘rinishida)ni tuzish;
3. C++ tilida takrorlanuvchi (siklik) dastur tuzish;
4. Kompyuterda natija olish va hisobot yozish.

Nazariy qism

Ko‘pgina takrorlanuvchi elementlarga mos algoritmga mos dastur kodini yozish uchun quyidagi buyruqlar yordamida hosil qilinadigan siklik strukturalarni ishlatishga to‘g’ri keladi.
for buyrug’i
for buyrug’i - sikllarni tashkil qilishning eng umumiy (ommaviy) usulidir. U quyidagi ko‘rinishga ega:
for (1-ifoda; 2-ifoda; 3-ifoda) {tana}.
1-ifoda odatda siklni boshqaruvchi o‘zgaruvchining boshlang’ich qiymatini o‘rnatish uchun ishlatiladi. 2-ifoda sikl tanasi bajarilishi kerak bo‘lgan shartni ifodalaydi. 3-ifoda sikl tanasining bajarilganidan keyin o‘zgaruvchining o‘zgarishini boshqaradi.
for buyrug’ining bajarilish sxemasi quyidagicha:

1. 1-ifoda hisoblanadi.
2. 2-ifoda hisoblanadi.
3. Agar 2-ifoda noldan farqi (rost) bo‘lsa, u holda sikl tanasi bajariladi. So‘ngra 2-ifoda bajariladi va boshqarish 2-punktga uzatiladi. Agar 2-ifodaning qiymati nol (yolg’on) bo‘lsa, u holda boshqarish for buyrug’idan keyingi buyruqqa uzatiladi.

Shu narsa ahamiyatliki, shartni tekshirish har safar sikl boshida bajariladi. Bu narsa esa bajarish sharti boshidayoq nolga teng bo‘lganda sikl tanasining biror marta ham bajarilmasligini bildiradi.

Misol 1. 1 dan 1000 xamma soni yigindisini xisobliydigan dasturni tuzamiz.

```
0  #include <iostream>
1  using namespace std;
2
3  int main()
4  {
5      int i;
6      int sum = 0;
7      setlocale(0, "");
8      for (i = 1; i <= 1000; i++)
9      {
10         sum = sum + i;
11     }
12     cout << "Сумма чисел от 1 до 1000 = " << sum << endl;
13     system("pause");
14     return 0;
15 }
16
```

Rasm 8.1.



Rasm 8.2.

Belgilar satrini teskari tartibda yozuvchi bu misolda siklni boshqarish uchun ikkita top va bot o‘zgaruvchilari ishlatiladi. Shuni ta’kidlash lozimki, bu erda 1- va 2- ifodadal o‘rnida ketma-ket bajariluvchi va bergul bilan adratilib yozilgan bir nechta ifodalar ishlatilgan.

for buyrug’ini ishlatishning boshqa varianti cheksiz sikl tashkil qilishdir. Bunday siklni tashkil etish uchun bo‘sh shartli ifodalarni ishlatish mumkin. Sikldan chiqish uchun esa odatda qo‘shimcha shartlar yoki break buyrug’i ishlatiladi (bu buyruq keyinroq ko‘riladi).

Masalan:

1.for (;;)

{

...

... break;

...

}

C tilining sintaksisiga binoan buyruq ham, for buyrug’ining tanasi ham bo‘sh bo‘lishi mumkin. Buyruqning shakli izlashlarni tashkil etishda qo‘llanilishi mumkin.

2.for (i=0; t[i]<10 ; i++);

Bu misolda sikl o‘zgaruvchisi bo‘lgan i o‘zgaruvchi qiymati 10 dan kichik bo‘lmagan t massiv birinchi elementi nomerining qiymatini qabul qiladi.

.1 While buyrug’i

while sikl buyrug’i sharti oldindan berilgan sikl buyrug’i deyiladi va quyidagi ko‘rinishga ega:

while (ifoda) {tana};

Ifoda sifatida C tilining ixtiyoriy ifodasini ishlatish mumkin. Tana sifatida ixtiyoriy buyruqni, jumladan bo‘sh va tarkibli (murakkab) buyruqlarni ham, ishlatish mumkin. hile buyrug’ining ishlash sxemasi quyidagicha:

1. Ifoda hisoblanadi.
2. Agar ifoda yolg’on bo‘lsa hile buyrug’ining bajarilishi tugallanadi va boshqarish navbatdagi buyruqqa uzatiladi, aks holda hile buyrug’ining tanasi bajariladi.
3. Jarayon 1-punktdan davom ettiriladi.

Quyidagi ko‘rinishdagi sikl buyrug’i

for (1-ifoda; 2-ifoda; 3-ifoda) {tana};

while buyrug’i bilan quyidagicha almashtiriladi:

1-ifoda;

while (2-ifoda)

{

tana
3-ifoda;
}
for buyrug’ining bajarilishidagi kabi while buyrug’ida ham avvalo shartning bajarilishi tekshiriladi. Shuning uchun ham buyruq tanasini bajarish shart bo‘lmagan hollarda while buyrug’idan foydalanish qulay.
for va while buyruqlarining ichida ma’lum mos turlar bilan e’ln qilingan lokal o‘zgaruvchilarni ishlatish mumkin.
Misol 2. 1 dan 1000 xamma soni yigindisini xisobliydigan dasturni tuzamiz.

```
 0 #include <iostream>
 1 using namespace std;
 2
 3 int main()
 4 {
 5     setlocale(0, "");
 6     int i = 0;
 7     int sum = 0;
 8     while (i < 1000)
 9     {
10         i++;
11         sum += i;
12     }
13     cout << "Сумма чисел от 1 до 1000 = " << sum << endl;
14     system("pause");
15     return 0;
16 }
17
```



Rasm 8.3.

do while buyrug’i

do while sikl buyrug’i sharti oxirida berilan sikl buyrug’i deyiladi va sikl tanasini kamida bir marta bajarish zarur bo‘lgan hollarda ishlatiladi. Bu buyruq quyidagi ko‘rinishga ega:
do {telo} while (virajenie);
do while buyrug’ining bajarilish sxemasi:

1. sikl tanasi bajariladi (tarkibli buyruq bo‘lishi ham mumkin).
2. Ifoda hisoblanadi.
3. Agar ifoda yolg’on bo‘lsa, u holda do while buyrug’ining bajarilishi tugallaniladi va navbatdagi buyruq bajariladi. Agar ifoda yolg’on bo‘lsa, u holda bajarish 1-punktdan davom ettiriladi.

while va do while buyruqlari ichma-ich joylashgan bo‘lishi ham mumkin.

3.Misol: 1 dan 1000 xamma soni yigindisini xisobliydigan dasturni tuzamiz.

```
 0 #include <iostream>
 1 using namespace std;
 2
 3 int main ()
 4 {
 5     setlocale(0, "");
 6     int i = 0;
 7     int sum = 0;
 8     do {
 9         i++;
10         sum += i;
11     } while (i < 1000);
12     cout << "Сумма чисел от 1 до 1000 = " << sum << endl;
13     system("pause");
14     return 0;
15 }
16
```

Rasm 8.4.



.

Rasm 8.5.

break buyrug’i

break buyrug’i birlashgan switch, do, for, while sikllardan eng ichkisining bajarilishi tugallanilishini ta’minlaydi. break buyrug’i bajarilgandan so‘ng boshqarish bajarilishi tugallangan sikldan keyingi buyruqqa uzatiladi.
Shu yo‘l bilan muddatidan avval sikldan chiqish ta’minlanadi.

Continue buyrug’i

continue buyrug’i ham break buyrug’i kabi faqatgina sikl buyruqlarinig ichida ishlatiladi. Ammo undan farqli ravishda bajarish bajarilishi tugatilgan sikldan keyingi buyruqdan emas, balki bajarilishi tugallangan sikldan boshlanadi.

Misol:

```
int a,b;
for (a=1,b=0; a<100; b+=a, a++)
{
if (b%2 != 0) continue;
 ...
/* juft yig’indilarni qayta ishlash */
}
```

Bu misolda ko‘p nuqta bilan belgilangan amallar b ning toq qiymatlaridagina bajariladi. Chunki 1 dan a gacha sonlar yig’indisi toq bo‘lganda continue buyrug’i qayta ishlash buyruqlarini bajarmasdan, boshqarishni for siklining tanasini navbatdagi qiymat uchun bajarishga uzatadi. Continue buyrug’i ham break buyrug’i kabi ichma-ich sikllarning eng ichkisining ishini to‘xtatadi.

Misol 4. Berilgan butun n va xaqiqiy x. Xisoblang

$$\sum_{i=1}^{n} \sin^{i} x$$

```
0  #include <iostream>
1  #include <cmath>
2   using namespace std;
3
4      int main()
5      {
6           float S, X, Pr;
7           int N;
8           cout << "Sonlarni kiritin: ";
9           cin >> N >> X;
10          Pr = 1;
11          S = 0;
12          for(int i=1; i<=N; i++)
13          {
14               Pr *= sin(X);
15               S += Pr;
16          }
17
18          cout << "teng " << S;
19           system("PAUSE");
20         return 0;
21     }
22
```

Rasm 8.6.



Rasm 8.7.

TAKRORLANUVCHI TUZILMALI MASALALAR UCHUN UCH XIL KO‘RINISHDAGI TAKRORLANUVCHI TUZILMALI ALGORITMLARNI TUZISH.

$$y = a * \lg|(b+x)^{1/3} + a| + tg\,75^0$$

$$a = 30{,}01; b = 20{,}5$$

$$x = 1(25)150$$

```
#include <iostream>
#include <cmath>
#define PI 3.14159265
using namespace std;
int main()
{
double param = 75.0;
float xn,xk,dx,a,b,y;
cin >> xn >> xk >> dx >> a >> b;

for(int x=xn; x<=xk; x++)
{
y =a*log10(fabs(pow((b+x),1/3)+a))+tan(param*PI/180);
 cout<<"x="<< x <<"   "<<"y="<< y << endl;
     x+=dx;
}
         system("PAUSE");
       return 0;
}
```



Rasm 8.8.

9- LABORATORIYA ISHI
C++ ALGORITMIK TILDA MASSIVLAR BILAN ISHLASH. BIR VA IKKI O‘LCHAMLI MASSIVLAR. DASTURLARI BILAN ISHLASH.

Maqsad: Bir va ikki o‘lchamli massivlar algoritmlarni C++ dasturi muhitida hisoblash jarayonlariga mos algoritm va dastur tizim boyicha talabalarda amaliy bilim va ko‘nikmalar hosil qilish.

Topshiriqlar:
1. Masalaning qoyilishi;
2. Hisoblash algoritmi(blok-sxema ko‘rinishida)ni tuzish;
3. C++ tilida dastur tuzish;
4. Kompyuterda natija olish va hisobot yozish.

Nazariy qism

MASSIV – bir xil tipdagi elementlar guruhi bo‘lib, bitta umumiy nom va xotiraga ega.
XOSSALARI:
- Barcha elementlari **bitta tipga** ega.
- Massiv **bitta nomga** ega.
- Barcha elementlar xotirada **ketma-ket** joylashtirilgan**.**

MISOLLAR:
- O‘quvchilar royxati.
- Ko‘p qavatli uydagi xonadonlar.
- Shaxardagi universitetlar.
- Yil boyicha havoning temperaturasi.

MASSIVLARNI E’LON QILISH.
MISOLLAR:

```
 int X[10], Y[10];
float zz, A[20];
char s[80];
```

Rasm 9.1.

BOSHLANG’ICH QIYMATLARNI BERISH:

```
int A[4] = { 8, -3, 4, 6 };
float B[2] = { 1. };
char C[3] = { 'A', '1', '0'
```

Rasm 9.2.

DASTUR.
Misol 1. Klaviaturadan massivni 5 ta elementini kiriting va ularni barchasini 2 ga ko‘paytiring hamda hosil bo‘lgan natijani yangi massivini chiqaring.

```
#include <stdio.h>
#include <conio.h>
main()
{
const int N = 5;
int A[N], i;
 // massiv elementlarini kiritish.
 // massivlarni qayta ishlash.
 // natijalarni chiqarish.
getch();
}
```

STATIK BERILGANLAR.

```
int x, y = 20;
float z, A[10];
char str[80];
```

Rasm 9.3.

Xar bir o‘zgaruchining nomi номи (massiv) bo‘ladi, o‘sha nom sifatida unga murojaat qilinadi.
O‘lchami oldindan ma’lum (dastur tuzayotganda aniqlanadi)
Xotira e’lon qilinganda ajratiladi.
Dastur ishlash davomida o‘lchamni o‘zgartirish mumkin emas.

Dinamik berilganlar.

O‘lchami oldindan noaniq, dastur ishlashi davomida aniqlanadi.
Xotira dastur ishlashi davomida ajratiladi.

Ko‘rsatkichlar.

Ko‘rsatkich – bu shunday o‘zgaruvchiki, boshqa o‘zgaruvchining adresini o‘zida saqlaydi.
E’lon :

```
char  *pC; // simvol adresi
          // ( yoki massiv e’loni )
int   *pI; // butun o‘zgaruvchi adresi
float *pF; // xaqiqiy o‘zgaruvchi adresi
```

Adres qanday yoziladi:

```
int m = 5, *pI;
int A[2] = { 3, 4 };
pI = & m;    //  m o‘zgaruvchi adresi
pI = & A[1]; // A[1] massiv adresi
pI = NULL;  // nol adresi yoki bo‘sh adresi
```

Berilganlarga murojaat qilish usullari.
Ko‘rsatkich orqali berilganlar bilan ishlash.

```
int m = 4, n, *pI;
pI = &m;
printf ("m = %d", * pI); // qiymatni chop etish
n = 4*(7 - *pI);         // n = 4*(7 - 4) = 12
*pI = 4*(n – m);         // m = 4*(12 – 4) = 32
printf("&m = %p", pI); // adresni chop qilish
```

Massivlar bilan ishlash.

```
int *pI, i, A[] = {1, 2, 3, 4, 5, 999};
pI = A;// A[0] adres xuddi A kabi yoziladi.
while ( *pI != 999 ) { // while( A[i] != 999 )
  *pI += 2; // A[i] += 2;
  pI++;     // i++ (keyinga elementga o‘tish)
  }
```

Ko‘rsatkichlarning eng muhim tushunchalari.

Ko‘rsatkichni e’lon qilayotganda, ko‘rsatayotgan o‘zgaruvchining turi aniqlangan bo‘lishi kerak va o‘zgaruvchi nomi oldiga *** (bir o‘lchovli), **(ikki o‘lchovli…) belgisi qoyilishi kerak**;

& belgi o‘zgaruvchining adresini ifodalaydi.(&m- m ning adresini oladi) ;

Dastur ichida ko‘rsatkiche’londagi ko‘rsatkich emas) oldiga qoyilgan * belgi ko‘rsatkich ko‘rsatayotgan obyektning(o‘zgaruvchi,o‘zgarmas) xotiradagi yacheykani ko‘rsatadi;

Xaqiqiy bo‘lmagan ko‘rsatkichni ifodalash uchun **NOL** (bosh ko‘rsatkich)konstantasi dan foydalaniladi;

Ko‘rsatkichning qiymatini n ga o‘zgartirish degani turdagi n- chi songa siljitish degan ma’noni anglatadi , masalan, butun sonlarda n*sizeof(int))

Ko‘rsatkich **%p format** yordamida chop qilinadi.

Dinamik massivlar qayerda ishlatiladi.

Misol 2. Massiv o‘lchamini kiriting va uning elementlarini kiriting. Massivni tartiblang va uni ekranga chiqaring.

Muammo:

Massiv o‘lchami oldindan ma’lum emas.

Yechish usullari:

1) Xotirani ortig’I bilan ajratish.
2) Xotirani o‘lchov aniq bo‘lganda keragicha ajratish.

Algoritm:

1) Massiv o‘lchovini kiritish;
2) Xotira ajratish ;
3) Massiv elementlarini kiritish;
4) Massivni tartiblash va ekranga chiqarish;
5) Massivni xotiradan o‘chirish.



Rasm 9.4.

Dinamik massivlar.

C++tilida xotiradan joy ajratish uchun **malloc** va **calloc** funksiyalaridan foydalaniladi**.**
C++tilida **new operatoridan foydalaniladi**;

ko‘rsatkich = new tur [o‘lchami];

new operatori natijasini, ya’ni ajratilgan xotira bloki adresini ko‘rsatkichda saqlash kerak;
Agar **new** operatori (**NULL**) qiymatini qaytarsa, demak xotira ajratish amalga oshmaganligini bildiradi.;
Dinamik massiv bilan xam xuddi statik massiv kabi ishlanadi.
Dinamik xotirani bo‘shatish uchun **delete operatoridan foydalaniladi** :

delete ko‘rsatkich;

Xotira bilan ishlashdagi xatolar.

Xotiraning boshqa joyiga yozish:
Xotira ajratilmagan ammo massiv shu joydan foydalanmoqchi
Nima qilish kerak: ko‘rsatkichni NOL ga tekshirish kerak .
Massiv chegaralaridan chiqib ketishi:
massiv elementining indeksini xato berilishi bilan murojaat qilish, massivga elementlarni kiritayotganda chegaradan chiqib ketishi.
Nima qilish kerak: massivning chegaradan chiqib ketishini tekshiruvchi translyator funksiyasini ishlatish kerak. Ko‘rsatkich ikkinchimarta o‘chiriladi :
Xotira strukturasi buziladi.
Nima qilish kerak: o‘chirilgan ko‘rsatkichga NOL qiymatini berib tekshirish kerak.

10- LABORATORIYA ISHI.
C++ DASTURLASH TILINING GRAFIK IMKONIYATLARI. DASTURLARI BILAN ISHLASH.

Maqsad: EXCEL 2010 yordamida C++ da funktsiyalarning grafigini tuzishni o‘rganish va ko‘nikmalarini egallab o‘lish.

Qisqacha nazariy ma’lumotlar

Grafik dasturlarni dasturlash bu juda katta mavzu bo‘lib bu biz o‘rgatmoqchi bo‘lgan asosiy dasturlash tilidan ancha chiqib ketadi. Shunga qaramasdan har qanday dasturlash tilini o‘rganayotganda garchi ularga bitta misol keltirmasa bu qo‘niqarsiz bo‘ladi.

Grafik tuzishda harakatlarning ketma ketligi

1. Konsolga emas, faylga funktsiya va argument kiritilgan dastur yo‘zish. Argument va funktsiya o‘rtasidagi vergulni ko‘rib chiqing.

2. O‘lingan faylni Microsoft Office Word dasturida oching.

3.Ma’lumotlarni jadval ko‘rinishiga olib kelamiz **Вставка > Таблиsa > Преобразовать в таблиsy**, ajratuvchi sifatida argumentdan keyin vergul qoyish kerak.

4. Excelga jadvalni ko‘chiramiz, va olingan ma’lumotlarda nuqta o‘rniga vergul qoyamiz **Главная > Найти и выделит > Заменить.**

5. Excelda grafik tuzamiz **Вставка > Точечная > Точечная с гладкими кривыми.**

Misol 1. y=sin(x)+cos(x) funktsiyasining grafigini tuzing

```
#include <iostream>
#include <fstream> //kiritish/chiqarishkutubxonasi
#include <math.h>
using namespace std;
double trig(double var); // funktsiyaprototipi trig
int main()
{
setlocale (0, "");
double a, b, h, x;
char s[20]; // fayl nomi uchun 20 ta belgidan iborat qator
cout << "argumentning boshlang’ich va o‘xirgi qiymatini yozing va qadam: ";
cin>>a>>b>>h;
cout<< "nomini yozing: ";
cin>>s;
ofstream f; //fayl yozuvini e’lon qilamiz
f.open(s); // faylni o‘chamiz
for (x=a; x<=b; x+=h)
{f.width(10);
 f << x <<","; /* faylga x argumentini yo‘zamiz va bir vaqtda argumentdan keyin vergul qoyamiz */
 f.width(15);
 f << trig(x) << endl; /*x argumentli funktsiyani chaqiramiz va hisob natijasini faylga yo‘zamiz*/
 }
f.close(); //faylni yopamiz
   return 0;
}
double trig(double var) {  // funktsiya trig
return sin(var)+cos(var);
}
```

Hisob-kitob
natijalari bilan
bo‘lgan fayl



```
   0,                1
 0.5,          1.35701
   1,          1.38177
 1.5,          1.06823
   2,         0.493151
 2.5,        -0.202671
   3,        -0.848872
 3.5,         -1.28724
   4,         -1.41045
```

Rasm 10.1.

Natijalarni jadvalga aylantiramiz

0	1
0.5	1.35701
1	1.38177
1.5	1.06823
2	0.493151
2.5	-0.202671
3	-0.848872
3.5	-1.28724
4	-1.41045

Rasm 10.2.

Excelga jadvalni kochiramiz va sonlar o‘rtasidagi nuqtalarni vergulga almashtiramiz va grafik tuzamiz

0	1
0,5	1,35701
1	1,38177
1,5	1,06823
2	0,493151
2,5	-0,202671
3	-0,848872
3,5	-1,28724
4	-1,41045



Rasm 10.3.

Misol 2.(traektoriyani tuzamiz)

Top A nuqtaga yerga V1=6 m/s tezlikda tushmoqda. Tushish burchagi vertikaldan 30 grad. Har bir sakrashda top o‘zining 30 foiz tezligini yoqotadi, yani sakrash tezligini V2=0.7*V1 deb yozsak bo‘ladi.

Sakrash buechagi tushish burchagiga teng. Ikkinchi va keying tushishda topning tezligi unnan o‘ldingi sakrash tezligiga teng. dasturni yozing va sakrash harakati traektoriyasini ko‘rsating. Sakrashlar so‘ni 6 ekranga topning $h = V_{2в}^2/2g$ teng deb olinsin. Sakrashda topning balandligi

Topning ikki sakrash o‘rtasidagi vaqti $t = 2V_{2в}/g$

Bu $V_{2в}$ - topning sakrash tezligi.

```
#include <iostream>
#include <cmath>
#include <fstream>     //faylga chiqarish uchun kutubxona
using namespace std;
double V1=6, g=9.80665, pi=3.14159;
int main()
{
setlocale(LC_ALL, "Russian");
char s[20];
double x, t, tm, dt, V2, Vx, Vy, Vys, h;
inti, j, N;
doublexp[7]; // sakrash nuqtalari uchun massiv koordinatalari
doubletp[7]; //sakrash vaqti
cout<< "faylni nomini yozing: ";
cin>>s;
ofstreamf;              // faylga kiritsh oqimini ko‘rsating
f.open(s);              // faylni o‘chish
tp[0]=0;
xp[0]=0;
```

```
cout<< "sonni yozing N: ";
cin>>N;  // N –sakrash intervali
for (i=0; i<=6; i=i+1) // sakrash nuqtalari tsikli
{
V2=0.7*V1;
Vy=V2*cos(pi/6);
Vx=V2*sin(pi/6);
tm=Vy/g; // sakrash vaqtida maksimal balandlikka ko‘tarilish vaqti
tp[i+1]=tp[i]+2*tm; //keying sakrashgacha vaqt
xp[i+1]=xp[i]+Vx*2*tm;  //keying sakrashgacha oraliq
dt=2*tm/N;           // vaqt boyicha qadam
for (j=0; j<=N; j=j+1) /* ikki qoshni sakrashlar o‘rtasidagi nuqtalar traektoriyasini qurishdagi tsikl */
{
if (j==0)
{
h=0;
x=xp[i];
t=tp[i];
Vys=Vy; //
}else
{
Vy=Vy-g*dt;
h=h+dt*(Vy+Vys)/2; /* o‘rtacha tezlik hisobda balandligi dt */
x=x+Vx*dt;
t=t+dt;
Vys=Vy;
}
f<<x<< ",  ";  //x koordinatasini faylga yozish
f<<h<<endl; //x koordinatasiga munosib balandlik
}
V1=V2; // sakrash va tushish tezliklarini yozamiz
cout << tp[i] << "  "<< xp[i] << endl;
}
f.close();       //faylni yopamiz
}
```


Файл
Главная
Вставка
Разметка страницы
Формулы
Данные
Рецензирование
Вид
Конструктор
Макет
Сводная таблица
Таблица
Рисунок
Картинка
Фигуры
SmartArt
Снимок
Гистограмма
График
Круговая
Линейчатая
С областями
Точечная
Другие
Таблицы
Иллюстрации
Диаграммы
Диаграмма 2
0 0
0,74 1,55
1,26 2,32
1,62 2,7
1,88 2,88
2,06 2,97
Ряд1
Все типы диаграмм...

Rasm 10.4.

I-II. AMALIYOT MASHG‘ULOT MAVZULARI
II. SEMESTR.
1-AMALIYOT ISHI
MATEMATIK MODELLARNI ELEKTRON JADVALIDAGI TATQIQOTI.

Maqsad: Talabalarga chiziqli algebraik tenglamalar sistemasini Gauss, Kramer, teskari matritsa, iteratsiya usullarida yechish algoritmlarini berish hamda bu usullarga Mathcad dasturida va elektron jadvalda ishlashga o‘rgatish.

Nazariy qism

Bizga n ta noma’lumli n ta chiziqli algebraik tenglamalar sistemasi

$$\begin{cases} a_{11}x_1 + a_{12}x_2 + ... + a_{1n} = b_1 \\ a_{21}x_1 + a_{22}x_2 + ... + a_{2n} = b_2 \\ ..... \\ a_{n1}x_1 + a_{n2}x_2 + ... + a_{nn}x_n = b_n \end{cases} \quad (1)$$

berilgan bo‘lsin. Bu yerda a_{ij}, b_i lar berilgan sonlar, x_i lar noma’lumlar (i,j=1,2,...,n). Agar (1) sistemaga mos keluvchi asosiy determenant 0 dan farqli, ya’ni

$$\begin{vmatrix} a_{11}\ a_{12}\ ...\ a_{1n} \\ a_{21}\ a_{22}\ ...\ a_{2n} \\ ..... \\ a_{n1}\ a_{n2}\ ...\ a_{nn} \end{vmatrix} \neq 0$$

bo‘lsa u yagona yechimga ega bo‘ladi.

Chiziqli algebraik tenglamalar sistemasini yechishning bir necha usullari mavjud bo‘lib, ulardan asosiylari Kramer, Gauss, teskari matritsa, iteratsiya usullaridir. Bu usullar algoritmlarini (1) sistema uchun ko‘rib chiqaylik.

Kramer usuli. Kramer usuli odatda determenantlar usuli ham deb ataladi. Bu usulning algoritmi quyidagicha. Dastlab quyidagi (n+1) ta n - tartibli

$$\Delta = \begin{vmatrix} a_{11}\ a_{12}\ ...\ a_{1n} \\ a_{21}\ a_{22}\ ...\ a_{2n} \\ ..... \\ a_{n1}\ a_{n2}\ ...\ a_{nn} \end{vmatrix} \quad \Delta_{x_1} = \begin{vmatrix} b_1\ a_{12}\ ...\ a_{1n} \\ b_2\ a_{22}\ ...\ a_{2n} \\ ..... \\ b_n\ a_{n2}\ ...\ a_{nn} \end{vmatrix} \quad ... \quad \Delta_{x_n} = \begin{vmatrix} a_{11}\ a_{12}\ ...\ b_1 \\ a_{21}\ a_{22}\ ...\ b_2 \\ ..... \\ a_{n1}\ a_{n2}\ ...\ b_n \end{vmatrix}$$

determinantlarning qiymatlari hisoblanadi va no‘malumlar

$$x_1 = \frac{\Delta_{x_1}}{\Delta},\ x_2 = \frac{\Delta_{x_2}}{\Delta}, ..., x_n = \frac{\Delta_{x_n}}{\Delta}$$

formulalar yordamida topiladi.

Misol 1. Quyidagi

$$\begin{cases} 2x_1 + x_2 - x_3 = 1 \\ x_1 - 4x_2 + 7x_3 = 14 \\ 5x_2 - 2x_3 = 4 \end{cases}$$

chiziqli algebraik tenglamalar sistemasini Kramer usuli yordamida yeching.

Yechish.

$$\Delta = \begin{vmatrix} 2 & 1 & -1 \\ 1 & -4 & 7 \\ 0 & 5 & -2 \end{vmatrix} = 2\cdot(-4)\cdot(-2) + 1\cdot 7\cdot 0 + 1\cdot 5\cdot(-1) - 0\cdot(-4)\cdot(-1) - 1\cdot 1\cdot(-2) -$$

$$-2\cdot 5\cdot 7 = 16 + 0 - 5 - 0 + 2 - 70 = -57$$

$$\Delta_{x_1} = \begin{vmatrix} 1 & 1 & -1 \\ 14 & -4 & 7 \\ 4 & 5 & -2 \end{vmatrix} = 1\cdot(-4)\cdot(-2) + 1\cdot 7\cdot 4 + (-1)\cdot 14\cdot 5 - (-1)\cdot(-4)\cdot 4 -$$

$$-1\cdot 14\cdot(-2) - 1\cdot 7\cdot 5 = 8 + 28 - 70 - 16 + 28 - 35 = -57;$$

$$\Delta_{x_2} = \begin{vmatrix} 2 & 1 & -1 \\ 1 & 14 & 7 \\ 0 & 4 & -2 \end{vmatrix} = 2\cdot 14\cdot(-2) + 1\cdot 7\cdot 0 + (-1)\cdot 1\cdot 4 - (-1)\cdot 14\cdot 0 - 1\cdot 1\cdot(-2) -$$

$$-2\cdot 7\cdot 4 = -56 + 0 - 4 - 0 + 2 - 56 = -114;$$

$$\Delta_{x_3} = \begin{vmatrix} 2 & 1 & 1 \\ 1 & -4 & 14 \\ 0 & 5 & 4 \end{vmatrix} = 2\cdot(-4)\cdot 4 + 1\cdot 14\cdot 0 + 1\cdot 1\cdot 5 - 1\cdot(-4)\cdot 0 - 1\cdot 1\cdot 4 -$$

$$-2\cdot 14\cdot 5 = -32 + 0 + 5 - 0 - 4 - 140 = -171;$$

$$x_1 = \frac{\Delta_{x_1}}{\Delta} = \frac{-57}{-57} = 1; \quad x_2 = \frac{\Delta_{x_2}}{\Delta} = \frac{-114}{-57} = 2; \quad x_3 = \frac{\Delta_{x_3}}{\Delta} = \frac{-171}{-57} = 3;$$

Javob: $x_1 = 1,\ x_2 = 2,\ x_3 = 3.$

Gauss usuli. Gauss usuli yoki no‘malumlarni ketma-ket yo‘qotish usuli chiziqli algebraik tenglamalar sistemasini aniq yechish usuli hisoblanadi. Bu usulining algoritmi quyidagi hisoblashlar ketma-ketligidan iborat.

$a_{11} \neq 0$ bo‘lsin (agar $a_{11} = 0$ bo‘lsa, sistemadagi tenglamalarning o‘rnini almashtirib $a_{11} \neq 0$ ga ega bo‘lish mumkin). (1) sistemadagi birinchi tenglamaning barcha hadlarini a_{11} ga bo‘lib

$$x_1 + a_{12}^{(1)} x_2 + ... + a_{1n}^{(1)} x_n = b_1^{(1)}$$

ni hosil qilamiz. Bu tenglamani ketma-ket $a_{21}, a_{31}, ..., a_{n1}$ larga ko‘paytirib, undan sistemaning keyingi tenglamalarini ayiramiz va

$$\begin{cases} x_1 + a_{12}^{(1)} x_2 + ... + a_{1n}^{(1)} x_n = b_1^{(1)} \\ a_{22}^{(1)} x_2 + ... + a_{2n}^{(1)} = b_2^{(1)} \\ ..... \\ a_{n2}^{(1)} x_2 + ... + a_{nn}^{(1)} x_n = b_n^{(1)} \end{cases} \qquad (2)$$

sistemaga ega bo‘lamiz. Bu yerda $a_{ij}^{(1)} = a_{ij} - \dfrac{a_{i1} a_{1j}^{(1)}}{a_{11}}$, $b_j^{(1)} = b_j - \dfrac{b_1 a_{j1}}{a_{11}}$ i=2,…,n; j=2,3,…,n.

(2) sistema uchun yuqoridagi hisoblashlar (noma’lumlarni ketma-ket yuqotish) ni bir necha bor takrorlab, quyidagi

$$\begin{cases} x_1 + a_{12}^{(1)} x_2 + a_{13}^{(1)} x_3 + ... + a_{1n}^{(1)} x_n = b_1^{(1)} \\ x_2 + a_{23}^{(2)} x_3 + ... + a_{2n}^{(2)} x_n = b_2^{(2)} \\ ..... \\ x_n = b_n^{(n)} \end{cases} \qquad (3)$$

sistemani hosil qilamiz va x_i larni topish uchun

$$x_k = a_{k,n-1}^{(k-1)} - \sum_{j:=k+1}^{n} a_{kj}^{(k-1)} x_j , k = n, n-1, n-2, ..., 1$$

formulaga ega bo‘lamiz.

Misol 2. Quyidagi

$$\begin{cases} x_1 + 2x_2 - x_3 = -1 \\ 2x_1 - 3x_2 + 4x_3 = 13 \\ -3x_1 + x_2 - 2x_3 = -6 \end{cases}$$

tenglamalar sitemasini Gauss usulida yeching.

Yechish.

$$\begin{cases} x_1 + 2x_2 - x_3 = -1 \\ 2x_1 - 3x_2 + 4x_3 = 13 \\ -3x_1 + x_2 - 2x_3 = -6 \end{cases} \Leftrightarrow \begin{cases} x_1 + 2x_2 - x_3 = -1 \\ 7x_2 - 6x_3 = -15 \\ 7x_2 - 5x_3 = -9 \end{cases} \Leftrightarrow \begin{cases} x_1 + 2x_2 - x_3 = -1 \\ 7x_2 - 6x_3 = -15 \\ -x_3 = -6 \end{cases} \Leftrightarrow$$

$$\begin{cases} x_1 + 2x_2 - x_3 = -1 \\ 7x_2 - 6x_3 = -15 \\ x_3 = 6 \end{cases} \Leftrightarrow \begin{cases} x_1 + 2x_2 - 6 = -1 \\ 7x_2 - 36 = -15 \\ x_3 = 6 \end{cases} \Leftrightarrow \begin{cases} x_1 + 2x_2 - 6 = -1 \\ 7x_2 = 21 \\ x_3 = 6 \end{cases} \Leftrightarrow$$

$$\begin{cases} x_1 + 6 - 6 = -1 \\ x_2 = 3 \\ x_3 = 6 \end{cases} \Leftrightarrow \begin{cases} x_1 = -1 \\ x_2 = 3 \\ x_3 = 6 \end{cases}$$

Javob: $x_1 = -1,\ x_2 = 3,\ x_3 = 6.$

Chiziqli algebraik tenglamalar sistemasini Gauss usulida yechish uchun elektron jadvalga kiritib ishliymiz.



	A	B	C	D	E
1					
2			*Gauss usuli*		
3					
4		1	2	-1	-1
5		2	-3	4	13
6		-3	1	-2	-6
7					
8					
9		1	2	-1	-1
10		0	-7	6	15
11		0	7	-5	-9
12					
13					
14		1	2	-1	-1
15		0	-7	6	15
16		0	0	1	6
17					
18					

Rasm1.1.



Rasm1.2.



Rasm1.3.



Rasm1.4.

Teskari matritsa usuli. Bizga n-o‘lchovli

$$A=\begin{Vmatrix} a_{11} & a_{12} & \dots & a_{1n} \\ a_{21} & a_{22} & \dots & a_{2n} \\ \dots & \dots & \dots & \dots \\ a_{n1} & a_{n2} & \dots & a_{nn} \end{Vmatrix}$$

kvadrat matritsa berilgan bo‘lsin.

Tarif. A matritsaga teskari matritsa deb shunday A^{-1} matritsaga aytiladiki,

$$A^{-1}\cdot A=E$$

bo‘ladi. Bu yerda E birlik matritsa, ya’ni

$$E=\begin{Vmatrix} 1 & 0 & \dots & 0 \\ 0 & 1 & \dots & 0 \\ \dots & \dots & \dots & \dots \\ 0 & 0 & \dots & 1 \end{Vmatrix}$$

Teorema. Agar A matritsa elementlaridan tuzilgan determenant qiymati noldan farqli, ya’ni $det\,A\neq 0$ bo‘lsa, A matritsaga teskari matritsa mavjud.

Agar A matritsaga teskari matritsa mavjud bo‘lsa, u quyidagi formula yordamida hisoblanadi

$$A^{-1} = \begin{Vmatrix} \frac{A_{11}}{\Delta} & \frac{A_{21}}{\Delta} & \dots & \frac{A_{n1}}{\Delta} \\ \frac{A_{12}}{\Delta} & \frac{A_{22}}{\Delta} & \dots & \frac{A_{n2}}{\Delta} \\ \dots & \dots & \dots & \dots \\ \frac{A_{1n}}{\Delta} & \frac{A_{2n}}{\Delta} & \dots & \frac{A_{nn}}{\Delta} \end{Vmatrix}$$

bu yerda $\Delta = det\, A$, A_{ij} - a_{ij} elementlarning algebraik to‘ldiruvchilari $(i,j = 1,n)$:

$$A_{ij} = (-1)^{i+j} \begin{vmatrix} a_{11} & a_{12} & \dots & a_{1,j-1} & a_{1,j+1} & \dots & a_{1n} \\ a_{21} & a_{22} & \dots & a_{2,j-1} & a_{2,j+1} & \dots & a_{2n} \\ \dots & \dots & \dots & \dots & \dots & \dots & \dots \\ a_{i-1,1} & a_{i-1,2} & \dots & a_{i-1,j-1} & a_{i-1,j+1} & \dots & a_{i-1,n} \\ a_{i+1,1} & a_{i+1,2} & \dots & a_{i+1,j-1} & a_{i+1,j+1} & \dots & a_{i+1,n} \\ \dots & \dots & \dots & \dots & \dots & \dots & \dots \\ a_{n1} & a_{n2} & \dots & a_{n,j-1} & a_{n,j+1} & \dots & a_{n,n} \end{vmatrix}, \quad i, j = 1,2,3,\dots,n.$$

Misol 3. $A = \begin{Vmatrix} 5 & 1 & 3 \\ 0 & 4 & 2 \\ -2 & 1 & 0 \end{Vmatrix}$ matritsaga teskari matritsa toping.

Yechish.

$$\Delta = det\, A = \begin{vmatrix} 5 & 1 & 3 \\ 0 & 4 & 2 \\ -2 & 1 & 0 \end{vmatrix} = -4 + 24 - 10 = 10;$$

Algebraik to‘ldiruvchilarni hisoblaymiz: $A_{11} = -2;$ $A_{12} = -4;$ $A_{13} = 8;$ $A_{21} = 3;$ $A_{22} = 6;$ $A_{23} = -7;$ $A_{31} = 10;$ $A_{32} = -10;$ $A_{33} = 20.$

U holda

$$A^{-1} = \begin{Vmatrix} -\frac{1}{5} & \frac{3}{10} & 1 \\ -\frac{2}{5} & \frac{3}{5} & -1 \\ \frac{4}{5} & -\frac{7}{10} & 2 \end{Vmatrix}$$

Chiziqli algebraik tenglamalar sistemasini teskari matritsa usulida yechish uchun, (1) ni

$$AX = B \qquad (4)$$

ko‘rinishda yozib olamiz. Bu yerda

$$A = \begin{Vmatrix} a_{11} & a_{12} & \dots & a_{1n} \\ a_{21} & a_{22} & \dots & a_{2n} \\ \dots & \dots & \dots & \dots \\ a_{n1} & a_{n2} & \dots & a_{nn} \end{Vmatrix}; \quad X = \begin{Vmatrix} x_1 \\ x_2 \\ \dots \\ x_n \end{Vmatrix}; \quad B = \begin{Vmatrix} b_1 \\ b_2 \\ \dots \\ b_n \end{Vmatrix}.$$

(4) ni A^{-1} ga ko‘paytirib, (1) sistemaning yechimini matritsa ko‘rinishida hosil qilamiz

CHATSni teskari $X = A^{-1}B$ matritsa usulida yechishga elektron jadvalni ko‘llash. Quyidagi

$$\begin{cases} x_1 + 2x_2 - x_3 = -1 \\ 2x_1 - 3x_2 + 4x_3 = 13 \\ -3x_1 + x_2 - 2x_3 = -6 \end{cases}$$ teskari matritsa usulida elektron jadvalda yeching



Rasm1.5.



Rasm1.6.



Rasm1.7.



Rasm1.8.



Rasm1.9.



	A	B	C	D	E	F	G
1	matritsa A				teskari matritsa	A	
2	1	2	-1		-0,285714286	-0,42857	-0,71429
3	2	-3	4		1,142857143	0,714286	0,857143
4	-3	1	-2		1	1	1
5							
6	matritsa B		yechimi				
7	-1		-1				
8	13		3				
9	-6		6				
10							

Rasm1.10.

Iteratsiya usuli. Noma'lumlar soni ko'p bo'lganda Kramer, Gauss, teskari matritsa usullarining aniq yechimlar beruvchi chiziqli sistema sxemasi juda murakkab bo'lib qoladi. Bunday hollarda sistema ildizlarini topish uchun ba'zan taqribiy sonli usullardan foydalanish qulaydir. Shunday usullardan biri iteratsiya usulidir. Quyidagi tenglamalar sistemasi berilgan bo'lsin:

$$\sum_{j=1}^{n} a_{ij} x_j = b_i, \ i = 1,2,...,n \qquad (5)$$

Bu sistema matritsa ko'rinishda quyidagicha yoziladi:

$$Ax = b,$$

bu yerda

$$A = \begin{pmatrix} a_{11} & a_{12} & .. & a_{1n} \\ a_{21} & a_{22} & ... & a_{2n} \\ ... & ... & ... & ... \\ a_{n1} & a_{n2} & ... & a_{nn} \end{pmatrix}, \ B = \begin{pmatrix} b_1 \\ b_2 \\ ... \\ b_n \end{pmatrix}, \ x = \begin{pmatrix} x_1 \\ x_2 \\ ... \\ x_n \end{pmatrix}.$$

Biz (5) da $a_{ii} \neq 0$ (i=1,n) deb faraz qilamiz.

Tenglamalar sistemasida 1- tenglamani x_1 ga nisbatan, 2- tenglamani x_2 ga nisbatan va oxirgisini x_n ga nisbatan yechamiz:

$$\begin{cases} x_1 = \beta_1 + 0 + \alpha_{12} x_2 + \alpha_{13} x_3 + ... + \alpha_{1n} x_n \\ x_2 = \beta_2 + \alpha_{21} x_2 + 0 + \alpha_{23} x_3 + ... + \alpha_{2n} x_n \\ ..... \\ x_n = \beta_n + \alpha_{n1} x_2 + \alpha_{n2} x_2 + \alpha_{n3} x_3 + ... + \alpha_{nn-1} x_{n-1} + 0 \end{cases} \qquad (6)$$

Ushbu

$$\alpha = \begin{pmatrix} 0 & \alpha_{12} & \dots & \alpha_{in} \\ \alpha_{21} & 0 & \dots & \alpha_{2n} \\ \dots & \dots & \dots & \dots \\ \alpha_{n1} & a_{n2} & \dots & 0 \end{pmatrix} \text{ va } \beta = \begin{pmatrix} \beta_1 \\ \beta_2 \\ \dots \\ \beta_n \end{pmatrix}$$

matritsalar yordamida (6) ni quyidagicha yozishimiz mumkin

$$x = \beta + \alpha x \tag{7}$$

(7) sistemani ketma-ket yaqinlashishlar usuli bilan yechamiz:

$$x^{(0)}=\beta, \quad x^{(1)} = \beta + \alpha x^{(0)}, \; x^{(2)} = \beta + \alpha x^{(1)}, \dots.$$

Bu jarayonni quyidagicha ifodalaymiz:

$$x^{(k)} = \beta + \alpha x^{(k-1)}, \; x^{(0)}=\beta \tag{8}$$

Bu ketma-ketlikning limiti, agar u mavjud bo‘lsa (5) sistemaning izlanayotgan yechimi bo‘ladi.

Biz

$$x^{(k)} = \begin{pmatrix} x_1^{(k)} \\ x_2^{(k)} \\ \dots \\ x_n^{(k)} \end{pmatrix}$$

belgilashni kiritamiz.

Agar ixtiyoriy ε>0 uchun $\left|x_i^{(k+1)} - x_i^{(k)}\right| < \varepsilon$ tengsizlik barcha i =1,2,...n uchun bajarilsa $x^{(k+1)} = \left(x_1^{(k+1)}, x_2^{(k+1)}, \dots, x_n^{(k+1)}\right)$ vektor (5) sistemaning ε aniqlikdagi yechimi deb yuritiladi.

Teorema. Agar keltirilgan (6) sistema uchun $\sum_{j=1}^{n}\left|\alpha_{ij}\right| < 1$ yoki $\sum_{i=1}^{n}\left|\alpha_{ij}\right| < 1$ shartlardan birontasi bajarilsa, u holda (8) iteratsiya jarayoni boshlang‘ich yaqinlashishni tanlashga bog‘liq bo‘lmagan holda yagona yechimga yaqinlashadi.

Natija (8) tenglamalar sistemasi uchun $\sum_{\substack{j\neq 1 \\ j=1}}^{n} |a_{ij}| < |a_{11}|$, $\sum_{\substack{j\neq 2 \\ j=1}}^{n} |a_{2j}| < |a_{22}|$, ..., $\sum_{\substack{j\neq n \\ j=1}}^{n} |a_{nj}| < |a_{nn}|$ tengsizliklar bajarilsa (8) iteratsiya yaqinlashuvchi bo‘ladi.

Misol 4. Tenglamalar sistemasini ε=0,001 aniqlikda oddiy iteratsiya usuli bilan yeching:

$$\begin{cases} 4x_1 + 0{,}24x_2 - 0{,}08x_3 = 8 \\ 0{,}09x_1 + 3x_2 - 0{,}15x_3 = 9 \\ 0{,}04x_1 - 0{,}08x_2 + 4x_3 = 20 \end{cases}$$

Yechish:

$$\left.\begin{array}{l} 0{,}24 + |-0{,}08| = 0{,}32 < |a_{11}| = 4 \\ 0{,}09 + |-0{,}15| = 0{,}24 < |a_{22}| = 3 \\ 0{,}04 + |0{,}08| = 0{,}12 < |a_{33}| = 4 \end{array}\right\}$$

Demak, iteratsiya yaqinlashadi

$$\begin{cases} x_1 = 2 - 0{,}06x_2 + 0{,}02x_3 \\ x_2 = 3 - 0{,}03x_1 + 0{,}05x_3 \\ x_3 = 5 - 0{,}01x_1 + 0{,}02x_2 \end{cases}.$$

Nolinchi yaqinlashish: $x^{(0)} = \beta = \begin{pmatrix} 2 \\ 3 \\ 5 \end{pmatrix}$, $x_1^{(0)} = 2, x_2^{(0)} = 3, x_3^{(0)} = 5.$

$$\alpha = \begin{pmatrix} 0 & -0{,}06 & 0{,}02 \\ -0{,}03 & 0 & 0{,}05 \\ -0{,}01 & 0{,}02 & 0 \end{pmatrix}$$

(8) formula yordamida hisoblashlarni bajaramiz.

$$x^{(1)} = \beta + \alpha x^{(0)} = \begin{pmatrix} 1{,}92 \\ 3{,}19 \\ 5{,}04 \end{pmatrix}; \; x_1^{(1)} = 1{,}92; x_2^{(1)} = 3{,}19; x_3^{(0)} = 5{,}04.$$

$$x^{(2)} = \beta + \alpha x^{(1)} = \begin{pmatrix} 1{,}9094 \\ 3{,}1944 \\ 5{,}0446 \end{pmatrix}; \quad x^{(3)} = \beta + \alpha x^{(2)} = \begin{pmatrix} 1{,}90923 \\ 3{,}19495 \\ 5{,}04485 \end{pmatrix};$$

$$x_1^{(2)} = 1{,}9094; x_2^{(2)} = 3{,}1944; x_3^{(2)} = 5{,}0446.$$

Ushbu jadval hosil bo‘ladi.

Yaqinla-shishlar (k)	x_1	x_2	x_3	$x_1^{(k)} - x_1^{(k-1)}$	$x_2^{(k)} - x_2^{(k-1)}$	$x_3^{(k)} - x_3^{(k-1)}$
0	2	3	5	-	-	-

1	1,92	3,19	5,04	0,08	0,19	0,04
2	1,9094	3,1944	5,0446	0,0106	0,0044	0,0046
3	1,90923	3,19495	5,04485	0,00017	0,00055	0,00025

Bunda $\left|x_1^{(3)} - x_1^{(2)}\right| = 0{,}00017 < \varepsilon$, $\left|x_2^{(3)} - x_2^{(2)}\right| = 0{,}00055 < \varepsilon$, $\left|x_3^{(3)} - x_3^{(2)}\right| = 0{,}00025 < \varepsilon$ bajariladi. $x=x^{(3)}$ CHTS ning taqribiy yechimi.

Tenglamalar sistemasini iteratsiya usulida yechish uchun elektron jadvalni ko‘llash.

2-AMALIYOT ISHI
ELEKTRON JADVALDA BERILGANLARNI STATISTIK USLUBIDA QAYTA ISHLASH.

Maqsad: Talabalarni ma'lumotlarni qayta ishlash tanlash yo‘li usullari bilan o‘zlashtirish. Ma'lumotlarning grafik ko‘rinishini tekshirish va asosiy raqamli xususiyatlarini kompyuter yordamida hisoblash ko‘nikmalariga ega bo‘lish.

Nazariy qism

Ekonometriyadagi asosiy ob'ekt namunadir. N hajmining namunasi n-ilovasida olingan x1.x2 ... .xn - doimiy shartlar ostida eksperimentning qisqacha takrorlanishi. Amalda, namuna ko‘pincha statistik ketma-ketlikda namoyon bo‘ladi. Buning uchun, namunadagi yolg'on qiymatlari k intervalgacha bo‘linadigan butun son eksa (bu raqam ixtiyoriy 5 dan 10 gacha tanlanadi), odatda teng, zn ning o‘rta nuqtalari hisoblab chiqiladi va namunadagi elementlarning soni n1ning har bir intervaliga kiritiladi. Statistik ketma-ketlik juftlik ketma-ketligi (z1, n1). Muammoni echimini va EXCEL 2010 da ko‘rib chiqamiz.

Misol 1. Do‘konning 30 kunlik daromad raqamlari namunasi berilgan:

72	74	69	71	73	68	73	77	76	77	76	76	76	64	65
75	70	75	71	69	72	69	78	72	67	72	81	75	72	69

Statistik qator, ko‘pburchak, histogram va birikma egri hosil qilamiz. EXCEL dasturining kitobini oching.

Birinchi ustunga (A1-A30 hujayralari) dastlabki ma'lumotlarni kiritishimiz kerak. Ma'lumotlar joylashgan raqamlar oralig'ini aniqlang. Buning uchun namunaning maksimal va minimal elementlarini topamiz. Biz B1 "Maksimal" va B2 "Minimal" ga kiramiz va funktsiyalarini argumentlar ("son" ustuniga) belgilab lamiz. Natijada 64 va 81 bo‘ladi.



Rasm2.1.



Rasm2.2.



Rasm2.3.



Rasm2.4.



	A	B
10	77	81
11	76	64
12	76	
13	76	
14	64	
15	65	
16	75	
17	70	
18	75	
19	71	
20	69	
21	72	
22	69	
23	78	
24	72	
25	67	
26	72	
27	81	
28	75	
29	72	
30	69	
31		
32		

Rasm2.5.

Barcha ma'lumotlarning segmentga mos kelishini ko‘rish mumkin [64, 81]. Uni 9 (5 dan 10 gacha tasodifiy tanlangan) bilan ajratib oling:64-66; 66-68: 68-70: 70-72: 72-74, 74-76, 76-78, 78-80, 80-82. C1-C10 hujayralarida guruhlararo intervallarning yuqori chegaralariga - 66, 68, 70, 72, 74, 76, 78, 80, 82 raqamlariga kiring.

	A	B	C
0	77	81	66
1	76	64	68
2	76		70
3	76		72
4	64		74
5	65		76
6	75		78
7	70		80
8	75		82
9	71		
0	69		
1	72		
2	69		
3	78		
4	72		
5	67		
6	72		
7	81		
8	75		
9	72		
0	69		

Rasm2.6.

D1ga n_1 chastotalarini hisoblash uchun **Статистические** kategoriyasida joylashgan **Частота** funktsiyani ishlating.



Rasm2.7.

Массив данных qatorida A1-A30 katakchadagi diapozonni kiritamiz. **Массив_ интервалов** qatorida C1-C9 katakchadagi diapozoniga kiritamiz.



Rasm2.8.



Rasm2.9.



Rasm2.10.

Natijani esa D1-D9 belgilab olib avval F2 bosamiz, so‘ng **CTRL+SHIFT+ENTER**. Natijada – chastota oralig‘i 2,2,5,7,3,7,3,0,1.

Gistogrammani yaratish uchun tanlanish **Вставка/Диаграмма** kerak yoki asosiy paneldagi tegishli belgini bosing (kursor bo‘sh xonada bo‘lishi kerak), so‘ngra quyidagi turni tanlang:**Гистограмма**, namunadagi ko‘rinish, ni bosing **Далее**, yo‘nalish bo‘yicha **Подписи Оси x** ga **C1-C5** hujayra oralig'ini kiritish, **Далее** – **Гистограмма- Интервалы - Частота- Готово** bosing.



Rasm2.11.



Rasm2.12.

Ko‘pburchak yaratish uchun faqatgina grafik turini amalga oshiring **Гистограмма- График** bosing.



Rasm2.13.

Kumulyata egri qurish uchun to‘plangan chastotani hisoblashingiz kerak. Uning uchun E1 katakchaga «=D1», E2 ga «=D1+D2» kiritamiz va avtoto‘ldirish bilan E9 gacha siljitamiz.

Keyinchalik ko‘pburchak holatida bo‘lgani kabi, chiziqda ham grafik tuzamiz **Диапазон** da **E1- E9** kiritamiz, **Ряд- Подписи Оси x** ga **C1-C9** kiritamiz.

Namunaning asosiy raqam ko‘rsatkichlarini toping. Ularga kirish uchun biz ikkita ustunni tanlaymiz, masalan, F va G, biz birinchi navbatda xarakteristikaning nomini kiritamiz, ikkinchidan - funksiya, bu erda ma'lumotlar majmuasi **(Строка«Число1»),** A1-A30ulanishni belgilang.



Rasm2.14.

3-AMALIYOT ISHI
MATEMATIK MODELLASHTIRISHNING TRANSPORT MASALALARINI ELEKTRON JADVAL YORDAMIDA YECHISH.

Maqsad: Transport masalalarini matematik modellarini shakillantirib elektron jadval orqali yechimini topish va optimallashtirishni o‘rganish.

Nazariy qism

Transport muammolarini matematik shakllantirish

Umuman olganda, transport muammosining matematik shakllanishi quyidagicha ifodalanishi mumkin. Bir hil mahsulotga (masalan, ko‘mir, qum, tsement va boshqalar) ishlab chiqarish yoki saqlash nuqtalari va n iste'mol nuqtalari mavjud. Har bir mahsulot uchun, a**i**-ga mahsulotning ishlab chiqarish hajmi yoki mahsulot zahirasi (i (1,2, ..., m)) beriladi va har bir iste'mol nuqtasi uchun bj belgilanadi - j-th iste'mol nuqtasida mahsulotga bo‘lgan ehtiyoj (j { 1,2, ..., n}). i-ishlab chiqarish punktidan j-th iste'mol nuqtasiga qadar bir mahsulotni tashish yoki tashish narxi ma'lum.

Mahsulotning optimal transport rejasini aniqlash kerak, shuning uchun iste'molning barcha nuqtalarida talab qoniqtiriladi va barcha mahsulotlarning umumiy transport xarajatlari minimal.

Biz quyidagi o‘zgaruvchilarni hisobga olamiz: x_{ij} - i-ishlab chiqarish punktidan j-th iste'mol nuqtasiga ko‘chirilgan mahsulotning miqdori yoki transport hajmi. Keyinchalik, umuman, transport muammosining matematik formulasi quyidagi tarzda shakllantirilishi mumkin.

$$\sum_{i=1}^{m}\sum_{j=1}^{n} c_{ij}x_{ij} \to \min_{x\in\Delta_\beta}, \quad (\mathbf{3}.1)$$

Quyidagi tengsizlikka cheklovlar tizimida Δ_β mavjud bo‘lgan muqobil variantlar to‘plami mavjud:

$$\begin{cases} \sum_{j=1}^{n} x_{ij} = a_i, \forall i \in \{1,2,..., m\} (2.2) \\ \sum_{i=1}^{m} x_{ij} = b_j, \forall j \in \{1,2,..., n\} (2.3) \\ \sum_{i=1}^{m} a_i = \sum_{j=1}^{n} b_j, (2.4) \\ x_{ij} \geq 0, \forall i \in \{1,2,..., m\}, \forall j \in \{1,2,..., n\} (2.5) \end{cases}$$

Shuni ta'kidlash kerakki, standart chiziqli dasturiy muammolardan farqli o‘laroq, transport masalasining matematik shakllanishida qulaylik uchun ikkita indeksli o‘zgaruvchilar qo‘llaniladi.

Bu holatda transport muammosining o‘zgaruvchan umumiy soni: m n, bu transport parametrining bir xil indeks bilan mos keladigan matematik formulasini shakllantirish imkonini beradi.

Klassik chiziqli dasturlash transporti muammosi muvozanatli yoki yopiqdir, ya'ni**,** ushbu mahsulotning umumiy ishlab chiqarish hajmining teng iste'mol miqdori iste'molning umumiy hajmiga teng bo‘lgan shaklda shakllantiriladi. Bu shart alohida cheklashlarga mos keladi. Aks holda, agar tenglik saqlanmasa, transport muammosi muvozanatsiz yoki ochiq deb nomlanadi. Amaliyotda transport muammosining turli xil o‘zgarishlari mavjud. Ulardan eng mashhurlari ishlab chiqarish va iste'mol nuqtalarini bog'laydigan transport tarmog'ining tuzilishini aniqlash uchun grafik kabi qo‘shimcha tuzilmalardan foydalanadilar. Tegishli transport muammosi muayyan grafika uchun qo‘llaniladigan tarmoq formulasida shakllantirilishi mumkin, shuning uchun grafikalar bo‘yicha optimallash muammolari sinfiga kiradi. Shu bilan birga, klassik transport muammosi o‘zgaruvchining ayrim yoki barcha o‘zgaruvchan qiymatlarining yuqori chegaralarida shartlar bilan to‘ldirilishi mumkin: $x_{ij} \leq h_{ij}$, **bu erda** hij- i-ishlab chiqarish nuqtasi va iste'mol uchun j-nuqtasi orasidagi transport hajmi. Bunday modifikatsiyani modeldagi qo‘shimcha cheklovlarni kiritishiga olib keladi. Biroq, bu qo‘shimcha cheklovlar MS Excel**2010** dasturidan foydalanib ularni hal qilish jarayoniga sezilarli ta'sir ko‘rsatmaydi.

Ms Excel 2010 dasturi yordamida transport muammosini hal qilish.

Ms Excel 2010 dasturidan foydalanib klassik transport muammosini hal qilish uchun asl vazifa parametrlari uchun aniq qiymatlarni ko‘rsatishingiz kerak.

Neft-gaz quyish stantsiyalari va benzin stantsiyalari o‘rtasida ma'lum bir tovar benzinini tashishning maqbul rejasini aniqlash masalasini ko‘rib chiqish.

Bu holatda, benzinni tashilayotgan mahsulot, ishlab chiqarish nuqtalari sifatida 3 ta neftni qayta ishlash zavodi (t = 3) va iste'mol ballari sifatida 4 ta yoqilg'i quyish stantsiyasi (n = 4) hisoblanadi.

Yoqilg'i ishlab chiqarish hajmi quyidagilardan iborat: № 1- 10, № 2- 14, 3-17 tonna. №1-15, № 2-12, № 3-8.5, № 4-5,5 tonna benzin iste'moli hajmi. Bir tonna benzinni tashish narxi quyidagi jadvalda ko‘rsatilgan:

Iste'mol tovarlari / ishlab chiqarish punktlari	№1	№2	№3	№4
№1	3	5	7	11
№2	1	4	6	3
№3	5	8	12	7

Ko‘rib chiqilgan individual transport muammosining tegishli matematik formulasi quyidagi shaklda yozilishi mumkin:

$$3x11+5x12+7x13+11x14+x21+4x22+6x23+3x24+ +5x31+8x32+12x33+7x34 \rightarrow \min_{X\in\Delta_\beta}.$$

ruxsat etilgan Δ_β alternativalar to‘plami quyidagi tenglik turiga cheklovlar tizimi tomonidan shakllantirilgan:

$$\begin{cases} x_{11}+x_{12}+x_{13}+x_{14}=10; \\ x_{21}+x_{22}+x_{23}+x_{24}=14; \\ x_{31}+x_{32}+x_{33}+x_{34}=17 \\ x_{11}+x_{21}+x_{31}=15; \\ x_{12}+x_{22}+x_{32}=12; \\ x_{13}+x_{23}+x_{33}=8{,}5; \\ x_{14}+x_{24}+x_{34}=5{,}5; \\ x_{ij}\ge 0, \forall i\in\{1,2,3\}, \forall j\in\{1,2,3,4\}. \end{cases}$$

Ushbu vazifaning dastlabki uchta cheklovi umumiy cheklovga, umumiy cheklovga quyidagi 4 ta cheklashlarga va umumiy cheklovga so‘nggi cheklovga mos kelishiga e'tibor bering.

Bunday holda, transport muammosining muvozanatiga mos keladigan umumiy to‘siq, ko‘rib chiqilayotgan alohida muammoning matematik modeliga kiritilmaydi. Bu to‘g'rida to‘g'ridan-to‘g'ri tekshirish sizning umumiy cheklovni amalga oshirishga imkon beradi, ya'ni dastlabki transport vazifasini muvozanatlashtirgan degan ma'noni anglatadi.

MS Excel 2010 yordamida formulali shaxsiy transport muammosini hal qilish uchun **chiziqli** dasturlash kitobida yangi varaq yaratamiz va uning nomini **transport** muammolariga o‘zgartiramiz.

Muammoni hal qilish uchun quyidagi tayyorgarlik bosqichlarini bajaring:

1. Hujayralarda kerakli yozuvlar qilamiz A5:A10, B1, F1. B5:G5, rasmda ko‘rsatilgandek. Shuni ta'kidlash kerakki, ushbu yozuvlarning o‘ziga xos tarkibi ko‘rib chiqilayotgan transport muammosini hal etishga ta'sir qilmaydi.



	A	B	C	D	E
1		Butun funksiyaning koeffitsiyenti			
2		3	5	7	11
3		1	4	6	3
4		5	8	12	7
5	O'zgaruvchilar	x1i	x2i	x3i	x4i
6	x1j	0			
7	x2j	0			
8	x3j	0			
9	Cheklanish qiymati				
10	AYOQSH	15	12	8,5	5,5

Rasm 3.1.

2. B2: E4 hujayralarida ob'ektiv funktsiyaning koeffitsientlarining qiymatini kiriting.

	3	5	7	11
	1	4	6	3
	5	8	12	7

Rasm 3.2.

3. F2 hujayralarida biz formulani kiritamiz: =суммпроизв(B2:E2; B6:E8), bu ob'ektiv vazifani ifodalaydi.



Rasm 3.3.



Rasm 3.4.

G6: G8 va **B10: E10** katakchariga cheklovlarning o‘ng tomonlariga mos keladigan qiymatlarni kiriting. **F6** katakchaga quyidagi formula kiriting: =**сумм (B6:E6)**, bu birinchi cheklovni anglatadi. **F6** katakchaga kiritilgan formulani **F7** va **F8** katakcharga nusxalaymiz.

4. B9 **katakchaga** quyidagi formula kiriting: =сумм(B6:B8),bu to‘rtinchi cheklovni ifodalaydi.

5. B9 **katakchaga** kiritilgan formulani C9, D9 **va** E9 **katakchariga nusxalaymiz**.



	A	B	C	D	E	F	G
1		Butun funksiyaning koeffitsiyenti				Butun funksiyaning qiymati	
2		3	5	7	11	0	
3		1	4	6	3		
4		5	8	12	7		
5	O‘zgaruvchilar	x1i	x2i	x3i	x4i	Cheklanish qiymati	Qayta ishlab chiqish zavodi
6	x1j	0				0	10
7	x2j	0				0	14
8	x3j	0				0	17
9	Cheklanish qiymati	0	0	10	10		
10	AYOQSH	15	12	8,5	5,5		

Rasm 3.5.

MS Excel **2010** ish varag'ining transport muammosini hal qilish uchun dastlabki ma'lumotlarga ega ko‘rinishi shaklida ko‘rsatilgan.

Muammoni yanada yaxshiroq hal qilish uchun, asosiy menyuning ishlashini amalga oshirish kerak bo‘lgan Разработчик | Поиск решения… bo‘limni oching**.**



Rasm 3.6.

Поиск решения muloqot darchasini oching va quyidagilarni bajaring:



Rasm 3.7.

1. Оптимизировать целевую функцию: **maydonida absolyut manzilni** $F$2 **kiriting.**

2. Равной **guruh uchun**: минимум **qidiruv echimini tanlang**.



Rasm 3.8.

3 Изменяя ячейки переменных: **maydonida absolyut manzilni** $B$2:$E$4 **kiriting.**



Rasm 3.9.

4.To‘ldirilgan transport muammosining dastlabki formulasini asosiy cheklovlariga mos keladigan 7 ta cheklovlarni qo‘shing. Buning uchun quyidagi amallarni bajaring:для задания Dastlabki cheklashni dastlabki echimlarni Поиск qutisiga o‘rnatish uchun Добавить yorlig'ini bosing; ko‘rsatiladigan qo‘shimcha oynadagi $F$6 **katakchani** tanlang, которая

Katakchani Ссылка nomi bilan maydonda paydo bo‘lishi kerak;

- ochiladigan ro‘yxatdagi cheklashlar belgisi sifatida, qattiq tengsizlikni tanlang "=";
- $C$6 **katakchasi** cheklashning o‘ng qismining qiymati sifatida tanlang;
- Qo‘shimcha **darchada** birinchi cheklovni qo‘shish uchun Добавить tugmani bosing;
- shunga o‘xshash qolgan 6 ta cheklovni belgilang.



Rasm 3.10.

5.Vazifa o‘zgaruvchilarining noan'anaviy qiymatlari bo‘yicha oxirgi cheklovni qo‘shing. Transport muammolariga cheklovlar bilan hal qidirish dialog **darchasi** ko‘rinishi ko‘rsatilgan.



Rasm 3.11.

Cheklovlar va ob'ektiv funktsiyani aniqlaganingizdan so‘ng siz Выполнить tugmachasini bosishingiz kerak bo‘lgan raqamli echimni qidirishga kirishingiz mumkin. Hisob-kitoblarni amalga oshirgandan so‘ng, MS Excel 2010 quyidagilarga o‘xshash bo‘lgan miqdoriy echimga ega

bo‘ladi:



	A	B	C	D	E	F	G
1		Butun funksiyaning koeffitsiyenti				Butun funksiyaning qiymati	
2		3	5	7	11	208,5	
3		1	4	6	3		
4		5	8	12	7		
5	O‘zgaruvchilar	x1i	x2i	x3i	x4i	Cheklanish qiymati	Qayta ishlab chiqish zavodi
6	x1j	0	1,5	8,5	0	10	10
7	x2j	14	0	0	0	14	14
8	x3j	1	10,5	0	5,5	17	17
9	Cheklanish qiymati	15	12	8,5	5,5		
10	AYOQSH	15	12	8,5	5,5		
11							
12							

Rasm 3.12.

4-AMALIYOT ISHI
MATEMATIK MODELLASHTIRISHNI ELEKTRON JADVALIDAGI GRAFIK USULLARI.

O‘zgaruvchan kesimli sterjen tebranishi masalasining matematik modeli va uni yechish usuli.

Maqsad: Talabalarni o‘zgaruvchan kesimli sterjen tebranishi matematik modeli va uni yechish usuli algoritmi bilan tanishtirish hamda unga elektron jadvalga ishlashga o‘rgatish.

Nazariy qism

Uzunligi L ga teng, uchlari sharnirli mahkamlangan, o‘zgaruvchi kesimli sterjenga $q = q(t)$ kuch ta’sir etayotgan bo‘lsin (rasm). Sterjenning tebranish masalasini qarab chiqamiz. Sterjenning tebranish funksiyasi (progib)ni $W(x,t)$ deb belgilaylik. U holda kuchlanish va deformatsiya orasidagi bog‘lanish

$$\sigma = E\varepsilon \qquad (1)$$

ko‘rinishda, $W(x,t)$ va ε deformatsiya orasidagi bog‘lanish esa quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ladi:

$$\varepsilon = -z\frac{\partial^2 W}{\partial x^2} \qquad (2)$$

Sterjenning tebranish masalasida inersion kuch hosil bo‘lib, harakat tenglamasi quyidagi munosabat yordamida ifodalanadi

$$\frac{\partial^2 M}{\partial x^2} + q = m\frac{\partial^2 W}{\partial t^2} \qquad (3)$$

Bu yerda t-vaqt; m-sterjen massasi; $q = q(t)$-sterjenga ta’sir etayotgan kuch; $M = \iint_F z\sigma dF$ - inersiya momenti.

(1), (2) va (3) yordamida sterjenning tebranishini ifodalovchi

$$\frac{\partial^2}{\partial x^2}\left[EJ(x)\frac{\partial^2 W}{\partial x^2}\right] + m\frac{\partial^2 W}{\partial t^2} = q(t) \qquad (4)$$

xususiy hosilali differensial tenglamani hosil qilamiz.

(4) tenglama $x = 0$ va $x = L$ larda quyidagi chegaraviy

$$W = 0; \quad \frac{\partial^2 W}{\partial x^2} = 0 \qquad (5)$$

va $t = 0$ da boshlang‘ich

$$W = \varphi(x), \quad \frac{\partial W}{\partial t} = \psi(x) \tag{6}$$

shartlar bilan birgalikda, sterjenning tebranishi haqidagi masalasining matematik modelini tashkil etadi.

Xususiy holda $F = const$ bo‘lsa, u holda

$$EJ\frac{\partial^2}{\partial x^2}\left(\frac{\partial^2 W}{\partial x^2}\right) + m\frac{\partial^2 W}{\partial t^2} = q(t)$$

tenglamani olamiz.

(4) –(6) da quyidagi $\overline{W} = \frac{W}{W_0}$, $\overline{x} = \frac{x}{l}$, $\overline{J(x)} = \frac{J(x)}{J_0}$, $\overline{m} = \frac{m}{m_0}$, $\overline{t} = \sqrt{\frac{EJ_0}{m_0 l^4}} \cdot t$,

$\overline{q} = \frac{l^4}{EW_0 J_0} q$ almashtirishlarni bajarib (va oldingi belgilashlarni saqlab qolib) quyidagi

$$m(x)\frac{\partial^2 W}{\partial t^2} + \frac{\partial^2}{\partial x^2}\left[J(x)\frac{\partial^2 W}{\partial x^2}\right] = q(t) \tag{7}$$

xususiy hosilali differensial tenglamani hosil qilamiz. (5) va (6) shartlar esa $x = 0$ va $x = 1$ da

$$W(x,t) = 0, \qquad \frac{\partial^2 W(x,t)}{\partial x^2} = 0 \tag{8}$$

va $t = 0$ da

$$W(x,t) = \varphi(x), \qquad \frac{\partial W(x,t)}{\partial t} = \psi(x) \tag{9}$$

ko‘rinishni oladi.

Bubnov-Galyorkin usuliga ko‘ra (7) tenglamaning (8) shartni qanoatlantiruvchi yechimini

$$W(x,t) = \sum_{n=1}^{N} y_n(t)\sin n\pi x \tag{10}$$

ko‘rinishda qidiramiz. (10) ni (7) ga qo‘yib

$$\sum_{n=1} y_n''(t)\sin n\pi x + \sum_{n=1} y_n(t)[J(x)(n\pi)^4 \sin n\pi x - 2J'(x)(n\pi)^3 \cos n\pi x -$$

$$- J''(x)(n\pi)^2 \sin n\pi x]\frac{1}{m(x)} = \frac{q(t)}{m(x)}$$

tenglikni hosil qilamiz.

Bu tenglikni ikkala tomonini $\sin m\pi x$ ga ko‘paytirib, uni 0 dan 1 gacha integrallaymiz va natijada

$$y_m''(t)+\sum_{n=1}^{N}a_{mn}y_n(t)=q_m(t),\qquad m=1,2,...,N \tag{11}$$

ko‘rinishdagi oddiy differensial tenglamalar sitemasiga ega bo‘lamiz. Bu yerda

$$a_{mn}=2\int_0^1[\,J(x)(n\pi)^4\sin n\pi x-2J'(x)(n\pi)^3\cos n\pi x-$$

$$-J''(x)(n\pi)^2\sin n\pi x]\,\frac{\sin m\pi x}{m(x)}dx$$

$$q_m(t)=q(t)\int_0^1\frac{\sin m\pi x}{m(x)}dx$$

(11) tenglamalar sistemasi uchun boshlang‘ich shartlar quyidagi

$$y_m(0)=y_{mo},\qquad y_m'(0)=y_{m1} \tag{12}$$

ko‘rinishni oladi. Bu yerda

$$y_{m0}=2\int_0^1\varphi(x)\sin m\pi\pi xd,\quad y_{m1}=2\int_0^1\psi(x)\sin m\pi\pi xd$$

(11), (12) Koshi masalasini Runge-Kutta usulida yechamiz. Topilgan $y_n(t)$ ni (10) ga olib borib qo‘yamiz va sterjenning tebranish $W(x,t)$ funksiyasi aniqlaymiz.

Misol 1. Ushbu $J(x)=1+0{,}1\cdot x$, $\varphi(x)=\psi(x)=0$, $m(x)=100$, $q(x)=20$ lar uchun sterjen o‘rtasining($x=0{,}5$) tebranishini aniqlang va uni grafik ko‘rinishda tasvirlang.

Yechish. $n=3$, $nt=151$, $ht=0{,}1$ lar uchun, yuqorida keltirilgan dasturdan foydalanib berilgan masalaning sonli yechimi olindi va natija quyidagi grafikda tasvirlangan.



Rasm 4.1.

Sterjen tebranishini aniqlashga elektron jadvaldagi qo‘rinishi:

Misol 2.



	A	B	C	D	E	F	G	H
1	Z=x+zy+1			B7=$A7+2*B$6+1				
2	x[0,6]	h=0,5		B7:H19 гача корага белгилаб				
3	y[0,6]	h=1		мастер диаграмни чақириб				
4				уни ичида поверхностьни танлаймиз				
5	x	y		сунг 2чи легендани оламиз.				
6		0	1	2	3	4	5	6
7	0	1	3	5	7	9	11	13
8	0,5	1,5	3,5	5,5	7,5	9,5	11,5	13,5
9	1	2	4	6	8	10	12	14
10	1,5	2,5	4,5	6,5	8,5	10,5	12,5	14,5
11	2	3	5	7	9	11	13	15
12	2,5	3,5	5,5	7,5	9,5	11,5	13,5	15,5
13	3	4	6	8	10	12	14	16
14	3,5	4,5	6,5	8,5	10,5	12,5	14,5	16,5
15	4	5	7	9	11	13	15	17
16	4,5	5,5	7,5	9,5	11,5	13,5	15,5	17,5
17	5	6	8	10	12	14	16	18
18	5,5	6,5	8,5	10,5	12,5	14,5	16,5	18,5
19	6	7	9	11	13	15	17	19

Rasm 4.2.



Rasm 4.3.

5-AMALIYOT ISHI
MATHCAD DASTURI MUXITI BILAN TANISHISH. SODDA HISOBLASHLAR BAJARISH.

Maqsad: Mathcad tizimida ishlash haqida tushunchaga ega bo‘lish.Matematika ifodalarni hisoblash boyicha masalalar yechishni o‘rganish.

Nazariy qism

Mathcad tizimi va unda ishlash texnologiyasi

Matematik paketlar, ayniqsa Mathcad –mashhur paket bo‘lib, ilmiy – texnikaviy soha mutaxassislariga dasturlashning nozik elementlariga e’tibor berilmasdan (masalan:fortran, C, paskal, BASIC va boshqalar kabi) kompyuterda matematik modellashtirishni amalga oshirishga katta yordam beradi.

Mathcad 1986-yilda Massachueset texnika unversitetida olim Allen Razdov tomonidan yaratilgan.Hozirgi kunda Mathcad dasturini qullab versiyalari (variantlari) yaratilgan bo‘lib, ulardan oxirgisi Mathcad s 1.0 po 4.xx, Mathcad 1.0 dan 15 versiyalarigacha ishlab chiqarilgan. Tabiiyki, har bir variant uzidan oldingisidan foydalanish uchun qulayligi va boy imkoniyatlari bilan farq qiladi.

Quyida Mathcad matematik dasturlash muhitida ishlashning yaqqol ajralib turadigan imkoniyatlarini sanab o‘tmoqchimiz:

- **Mathcad** muhitida matematik ifoda, qabul qilingan ko‘rinishda ifodalanadi. Masalan, daraja yuqorida, indeks pastda, integralning yuqori va quyi chegaralari esa an’anaviy joyida turadi.
- **Mathcad** muhitida “dasturlashni” tuzish va ularning bajarilish jarayoni parallel kechadi. Foydalanuvchi **Mathcad** – hujjatida yangi ifoda kiritar ekan, uning qiymatini hisoblash va ifodani kiritishda yo‘l qoyilgan yashirin xatoliklarni grafigini ko‘rish imkoniyati ham mavjud.
- **Mathcad** paketi yetarli darajada qudratli matematik apparat bilan qurollanganki, ular orqali tashqi pratseduralarni chaqirmasdan turib paydo bo‘ladigan muammolarni hal qilishimiz mumkin.

Mathcadga xos bo‘lgan ayrim hisoblovchi qurilmalarni sanab o‘tmoqchimiz:

- Chiziqli va chiziqli bo‘lmagan algebraik tenglama va sistemalarni yechish;
- Oddiy differensial tenglama va sistemalarni (Koshi masalasi va chegaraviy masala) yechish;
- Xususiy hosilali differensial tenglamalarni yechish;
- Berilganlarni static qayta ishlov berish (interpolyatsiya, ekstrapolyatsiya, approksimatsiya va ko‘pgina boshqa amallar);
- Vektor va matritsalar bilan ishlash (chiziqli algebra va boshqalar);
- Funksional bog’liqlikning maksimum va minimumini izlash.

Mathcad paketi matematik va fizik-kimyoviy formulalarga, hamda o‘zgarmaslarga asoslangan yordamchi qo‘llanmalar bilan boyitilgan.

Foydalanuvchi o‘z oldiga qoyilgan masalani yechish bilan cheklanibgina qolmay, fizikaviy masalalarni yechishda o‘lchovni hisobga olish imkoniyatiga ega. Bunda foydalanuvchi birliklar sistemasini ham tanlashi mumkin.

Matematik ifodalarni qurish va hisoblash.

Tahrirlashda klaviaturadan ham foydalanish mumkin, masalan boshlang`ich holatda ekranda kursor krestik ko`rinishda bo`ladi. Ifodani kiritishda u kiritilayotgan ifodani egallab olgan ko`k burchakli holatga o`tadi. Mathcadning har qanday operatorini kiritishni uchta usulda bajarish mumkin:

- menyu buyrug`idan foydalanib;
- klaviatura tugmalaridan foydalanib;
- matematik paneldan foydalanib.

O`zgauvchilarga qiymat berish uchun yuborish operatori ":=" ishlatiladi. Hisoblashlarni amalga oshirish uchun oldin formuladagi o`zgaruvchi qiymatlari kiritiladi, keyin matematik ifoda yozilib tenglik "=" belgisi kiritiladi, natijada ifoda qiymati hosil bo`ladi.

Oddiy va matematik ifodalarni tahrirlashda menyu standart buyruqlaridan foydalaniladi.

- qirqi bo'lish – Ctrl+x;
- nusxa olish – Ctrl+c;
- qo`yish – Ctrl+v;
- bajarishni bekor qilish – Ctrl+z.

Oddiy matematik ifodalarni hisoblash quyidagi rasmda keltirilgan:



Rasm 5.1.

Diskret o`zgaruvchilar va sonlarni formatlash.

Mathcadda diskret o`zgaruvchilar deganda sikl operatorini tushunish kerak. Bunday o`zgaruvchilar ma'lum qadam bilan o`suvchi yoki kamayuvchi sonlarni ketma-ket qabul qiladi. Masalan:

x:=0..5. Bu shuni bildiradiki bu o`zgaruvchi qiymati qator bir necha qiymatlardir, ya'ni x=0,1,2,3,4,5.

x:=1,1.1..5. Bunda 1 – birinchi sonni, 1,1 – ikkinchi sonni, 5 - oxirgi sonni bildiradi.

x:=A,A+B..B. Bunda A – birinchi, A+B – ikkinchi, B - oxirgi sonni bildiradi.

Izoh! O`zgaruvchi diapazonini ko`rsatishda ikki nuqta o`rniga klaviaturadan (;) nuqta vergul kiritiladi yoki Matrix (Matritsa) panelidan Range Variable (Diskret o`zgaruvchi) tugmasi

bosiladi. Hisoblangan qiymatni chiqarish uchun esa o`zgaruvchi va tenglik belgisini kiritish kifoY. Natijada o`zgaruvchi qiymati ketma-ket jadvalda chiqadi. Masalan, x:=0..5 deb yozib, keyin x= kiritish kerak.

Foydalanuvchi funktsiyaning uning argumentiga mos qiymatlarini hisoblab chiqarish va bu qiymatlarni jadval yoki grafik ko`rinishda tasvirlashda diskret o`zgaruvchilardan foydalanish qulaylikni keltiradi. Masalan, f(x)=sin(x)·Cos(x) funktsiya qiymatlarini x ning 0 dan 5 gacha bo`lgan qiymatlarida hisoblash kerak bo`lsa, u holda quyidagi kiritishni amalga oshirish kerak: f(x)=sin(x)·Cos(x) x:=0..5 f(x)=*javob.*

Sonlarni formatlash. Odatda Mathcad 20 belgi aniqligigacha matematik ifodalarni hisoblaydi. Hisoblash natijalarini kerakli formatga o`zgartirish uchun sichqoncha ko`rsatgichini sonli hisob chiqadigan joyga keltirib, ikki marta tez-tez bosish kerak. Natijada sonlarni formatlash natijasi Result Format oynasi paydo bo`ladi.



Rasm 5.2.

Mathcad tizimida ishlash. Sodda hisoblashlar bajarishboyichatopshiriqlar.

1) x,y,z o‘zgaruvchilarga qiymat berib ifodaning qiymatini toping:

$$\ln\left|\left(x-\sqrt{\sin^3\left(x+\frac{\pi}{3}\right)}\right)\right|\left[x-\frac{y^2-1}{z+\frac{x}{x+y}}\right]+\cos\left[tg^2\left[\frac{1}{\sqrt[3]{z+1}}\right]\right]$$

Dastlab o‘zgaruvchilarning qiymatini kiritamiz:



Rasm 5.3.

So‘ngra **Калькулятор** paketidan foydalanib, ifodani kiritamiz; (=) (tenglik) belgisini bosib,natijaga erishamiz.



Rasm 5.4.

2) [a,b] oraliqda h qadam bilan funksiya qiymatlari jadvalini hosil qiling:

$$d = \frac{2m + \sin^2(8 + x^3)}{\sqrt[3]{8 + x^3}}, m = 4, a = -1, b = 5, h = 1.$$

Dastlab o‘zgaruvchilarni kiritamiz; [-1,5] oraliqni kiritish uchun **Матрица** paketining (**m..n)** amalidan yoki klaviaturadagi (**J)** klavishidan foydalanamiz.



Rasm 5.5.

So‘ngra **Калькулятор** paketidan foydalanib funksyani quyidagicha kiritamiz:



Rasm 5.6.

Funksiyaning berilgan oraliqdagi qiymatlarini toppish uchun so‘ngi amalni bajaramiz:



Rasm 5.7.

3) x=0.25 Funksiya hosilasini berilgan qiymatda hisoblang:

$$f(x) := \left(x^{5}\cdot\frac{3}{5}\right) - \left(\frac{1}{2\cdot x^{4}}\right) - \left(\frac{2}{\sqrt[4]{x^{3}}}\right) + 7$$

Ushbu fuksiyani xosilasini hisoblash uchun **Математические** panelidagi **Вычисление Математические** va **Калькулятор** paketlari kerak bo‘ladi.

Paketlar yordamida funksyani quyidagi ko‘rinishga keltiramiz va natijaga erishamiz:



Rasm 5.8.

4) Quyidagi limitni toping:

$$\lim_{n\to\infty}\frac{(n+1)^4+(n-1)^4}{n^4+10}$$

Ushbu limitni toppish uchun bizga **Математические** panelidagi **Калькулятор** va **Вычисление** paketlari kerak bo‘ladi:



Rasm 5.10.

Dastlab ifodani kiritamiz va natijaga erishish uchun **Вычисление** paketidan foydalanamiz:



Rasm 5.11.

5) Aniq integralni hisoblang va natijani solishtiring:

$$\int_0^{\frac{\pi}{4}} \frac{1}{\cos(x)}\,dx \to \ln(\sqrt{2}+1) = 0.881 \int_1^4 e^x \left(1 - \frac{e^{-x}}{x^2}\right) dx = 51.13$$

Ushbu aniq integrallarni hisoblash uchun **математические** panelidagi **Калькулятор, Вычисление,** va **Математический анализ** paketlaridan foydalanamiz.



Rasm 5.12.

So‘ng aniq integralni kiritib, quyidagi natijaga erishamiz:



Rasm 5.12.

Grek alifbosi harflarini ishlatish uchun Γrecheskiy paketlaridan ham foydalandik. 2-aniq integralni shunday tartibda kiritamiz va quyidagi natijaga erishamiz:



Rasm 5.13.

6) Aniqmas integralni hisoblang va natijani solishtiring:

7)

$$\int\left(\frac{1}{x^3}+\frac{1}{x^2}+\frac{1}{x}\right)dx \to \frac{-1}{(2x^2)}-\frac{1}{x}+\ln(x)\int\frac{1}{2x^2-6}dx \to \frac{-1}{6}\cdot\sqrt{3}\cdot a\tanh\left(\frac{1}{3}\cdot x\cdot\sqrt{3}\right)$$

Ushbu aniqmas integrallarni hisoblash uchun **Математические** panelidagi **Калькулятор, Вычисление** va **Математический анализ** paketlaridan foydalanamiz. So‘ng aniqmas integrallarni kiritib, quyidagi natijalarga ega bo‘lamiz:



$$\int \left(\frac{1}{x^3}\right) + \left(\frac{1}{x^2}\right) + \left(\frac{1}{x}\right) dx \rightarrow \ln(x) - \frac{x + \frac{1}{2}}{x^2}$$

Rasm 5.14.



$$\int \frac{1}{2 \cdot x^2 - 6} dx \rightarrow \frac{\sqrt{3} \cdot \ln\left(x - \sqrt{3}\right)}{12} - \frac{\sqrt{3} \cdot \ln\left(x + \sqrt{3}\right)}{12}$$

Rasm 5.15.

8) Karrali integralni hisoblang va natijani solishtiring:

$$\int_{-\infty}^{\infty} \int_{-\infty}^{\infty} e^{-\left(x^2+y^2\right)} dx\ dy = 3.142$$

Ushbu karrali integrallarni hisoblash uchun **Математические** panelidagi **Калькулятор, Вычисление** va **Математический анализ** paketlaridan foydalanamiz. Ishchi sohaga karrali integralni kiritib, quyidagi natijani hosil qilamiz:



Rasm 5.16.

6-AMALIYOT ISHI
MATHCAD PAKETIDA VEKTORLAR VA MATRITSALAR USTIDA ISH OLIB BORISH.

Maqsad: Talabalarni Mathcad paketida vektorlar va matritsalar ustida turli hil amallar ish ustida olib borish.

Nazariy qism

O‘zgaruvchilar ham skalyar sonlar kabi massivga ega. Massivni aniqlash ham o‘zgaruvchilarga skalyar qiymatlarni berganimizdek avval o‘zgaruvchining nomi yoziladi va : qo‘yiladi keyin massiv kiritiladi (vektor yoki matritsa). Masalan 3 elementli v vektorni aniqlash uchun quyidagi ishlar bajariladi.

bo‘sh satrda v vektorni kiritamiz V:=● ko‘rinishda.

INSERT bo‘limidan Matrix… ni tanlaymiz yoki [Ctrl+M] tugmasini bosamiz yoki Matematik belgilar panelidan matritsa belgisini tanlaymiz natijada muloqot oynasi hosil bo‘ladi. Satr va ustun elementlar sonini kiritib OK tugmasini bosib vektor yoki matritsa hosil qilinadi.



Rasm 6.1.

Massivni hosil qilganimizdan keyin uning elementlarini Tab tugmasi orqali to‘ldirib chiqamiz.

Rasm 6.2.

Massiv elementlariga murojaat qilish uchun quyi chegarani ishlatamiz, uning alohida ustunlariga murojaat qilish uchun yuqori chegaradan foydalanamiz. Quyi chegara [bilan yuqori chegara [Ctrl+6] tugmalari yordamida chiqariladi. Masalan yuqoridagi misolda $V_0=3$, $A_{1,1}=2$, $A^1=\begin{pmatrix}2\\2\end{pmatrix}$ ga teng bo‘ladi. Ba’zi massiv elementlariga qiymat berilmasligi ham mumkin. Masalan X ga qiymat bermasdan X_3 ga qiymat berilsa X_0, X_1, X_2 lar 0 qiymat qabul qiladi. Agar massivlarni e’lon qilishdan oldin ORIGIN≡0 deb yozsak massiv elementlarini tartiblashni 0 dan boshlaydi. Agar ORIGIN≡1 deb yozsak massiv elementlarini tartiblashni 1 dan boshlaydi. Massiv elementlari 100 dan ortiq bo‘lsa uni 1- rasmda keltirilganidek aniqlab bo‘lmaydi. Buning uchun “ argument ” yoki “stack” funksiyalaridan foydalanish mumkin yoki diskret argumentlar yordamida aniqlash mumkin.



Rasm 6.3.

Mathcad tizimida Vektor va Matritsaviy operatorlar

Ba’zi Mathcad dagi operatorlar matritsa va vektorlarni o‘zgartirish uchun muhimdir. Bu operatorlarning ko‘pi simvollardan iborat va jadval ko‘rinishda keltiramiz

Amal	Ko‘rinishi	Tugma	Ma’nosi
Matritsani skalyar songa ko‘paytirish	A•n	*	A ning har bir elementi n ga ko‘paytiriladi
Skalyar ko‘paytma	u•v	*	u va v ning uzunligi teng
Matritsaviy ko‘paytma	A•B	*	A ustunlar soni B qatorlar soniga teng
Matritsani vektorga ko‘paytirish	A•v	*	A ustunlar soni v ning satrlar soniga teng bo‘lishi kerak
Matritsani songa bo‘lish	$\frac{A}{n}$	/	Har bir massiv elementi n ga bo‘linadi
Vektor va matritsani yig‘indisi va ayirmasi	A+B, u+v A-B, u-v	+	Massivlar bir xil satr va bir xil ustunga ega bo‘lishi kerak
Skalyar yig‘indi	A+n	+	A ning har bir qiymatiga n qo‘shiladi
Skalyar ayirma	A-n	-	A ning har bir qiymatidan n ayiriladi
Ishorani almashtirish	-A	-	A ni –1 ga ko‘paytiradi
Matritsa darajasi	M^n	^	n-darajali kvadrat matritsa M^{-1} , M ga teskari matritsa
Vektor uzunligi	|v|	Shift+\	
Determinant	|M|	Shift +\	
Transponirlash	A^T	Ctrl+1	Satr elementlarini ustun elementlariga almashtiradi
Vektor ko‘paytma	Uxv	Ctrl+8	u va v lar uchun ko‘paytmani hisoblaydi.
Kompleks	$\overline{A}$	“	A ning mavhum qismini belgisini almashtiradi
Yuqori daraja	$A^{<n>}$	Ctrl+6	Matritsaning n – ustuni
Vektorizatsiya	$\vec{A}$	Ctrl+-	
Quyi indeks	$A_{n,m}$	[	
Elementlar yigindisi	$\sum v$	Ctrl+4	

Yuqoridagi jadvalda keltirilgan o‘zgaruvchilarda.

1.A va B – matritsalar.
2.u va v - vektorlar.
3.M- kvadrat matritsa.
4.u_i va v_i -u va v vektorning elementlari.
5.m va n –butun sonlar.



Rasm 6.4.

MathCAD o‘zida algebra va chiziqli algebra uchun funksiyalarni saqlaydi. Bu funksiyalar vektorlar va matritsalarni ishlatish uchun tayinlangan. Keyingi jadvalda vektorli va matritsali funksiyalar keltirilgan.

Bunda : A va B –massivlar. V- vektor.

M va N – kvadrat matritsa.

z- skalyar son

m,n,i,j-butun sonlar.

Funksiya nomi	**Hosil bo‘ladi**
rows(A)	A massivning satrlar soni
cols(A)	A massivning ustunlar soni
length(V)	V vektorning elementlar soni
last(V)	V vektor elementining oxirgi indeksi
max(A)	A massivning eng katta elementi
min(A)	A massivning eng kichik elementi



Rasm 6.5.

Matritsali funksiyalar.

Funksiya nomi	Hosil bo‘ladi
identity(n)	Nxn birlik matritsa
Re(A)	A matritsa elementining aniq qismiga tegishli massiv
Im(A)	A matritsaning mavhum qismiga tegishli massiv
diag(v)	V ni matritsa diagonalida joylashtiradi
geninv(A)	A- mxn matritsa m≥n
rref(A)	A matritsani bosqichli formasi



Rasm 6.6.

Matritsani xarakteristikasi.

Funksiya nomi	Hosil bo‘ladi
tr(M)	M-kvadrat matritsa diagonal elementlari yig‘indisi
tr(M)	T-massiv elementlari o‘rta arifmetigi.
mean(T)	A matritsaning rangi
rank(A)	M matritsaning L_1 normasi
norm1(M)	M matritsaning L_2 normasi
norm2(M)	M matritsaning Yevklid normasi
norme(M)	M matritsaning teng o‘lchovli normasi
normi(M)	M matritsa shartli soni L_1 normaga asosli
cond1(M)	M matritsa shartli soni L_2 normaga asosli
cond2(M)	M matritsa shartli soni Yevklid normaga asosli
conde(M)	M matritsa shartli soni teng o‘lchovli normaga asosli
cond(iM)	

Yangi matritsani formatlash.

Funksiya nomi	Hosil bo‘ladi
augment(A,B)	A va B massivni ketma-ket joylashtiradi. A va B ning satr elementlari teng bo‘lishi kerak.
stack(A,B)	A va B massivni tagma-tag joylashtiradi. A va B ning ustun elementlari teng bo‘lishi kerak.
Submatrix(A,m,n,i,j)	A-matritsaning m…n satr va i…j ustun elementlaridan iborat.



Rasm 6.7.

Massivlardan o‘zgaruvchi va funksiyalarni e’lon qilishda ham ishlatish mumkin.

Masalan: $\begin{pmatrix} a \\ b \\ c \end{pmatrix} := \begin{pmatrix} 5 \\ 6 \\ 7 \end{pmatrix}$ bu yerda a=5 ga b=6 ga c=7 ga teng.

$$F(x) := \begin{pmatrix} x^2 & x \\ \sqrt{x} & -x \end{pmatrix} \qquad F(4) := \begin{pmatrix} 16 & 4 \\ 2 & -4 \end{pmatrix}$$

$F(4)_{2,2}$=-4 $\qquad F(4)^{<2>} = \begin{pmatrix} 4 \\ -4 \end{pmatrix}$

Matritsa va vektor elementlarini saralash.

sort(V)	V- vektor elementlarini o‘sib borish tartibida joylashtirish.
revarse(V)	V vektor elementlarini kamayib borish tartibida joylashtirish.
csort(M,n)	M-matritsa n-qator elementlarini saralsh
rsort(M,n)	M-matritsa n- ustun elementlarini saralash



Rasm 6.8.

7-AMALIYOT ISHI
MATHCADDA VA ELEKTRON JADVALLARDA TENGLAMALAR YECHISH.

Maqsad: Mathcad tizimida tenglama va tengsizliklarni ishlash haqida tushunchaga ega bo‘lish. Matematik tenglama va tengsizliklarni hisoblash bo‘yicha masalalar yechishni o‘rganish.

Nazariy qism

Mathcad tizimi va unda ishlash texnologiyasi.

Matematik paketlar, ayniqsa Mathcad –mashhur paket bo‘lib, ilmiy – texnikaviy soha mutaxassislariga dasturlashning nozik elementlariga e’tibor berilmasdan (masalan:fortran, C, paskal, BASIC va boshqalar kabi) kompyuterda matematik modellashtirishni amalga oshirishga katta yordam beradi.

Mathcad 1986-yilda Massachueset texnika unversitetida olim Allen Razdov tomonidan yaratilgan. Hozirgi kunda Mathcad dasturini ko‘plab versiyalari (variantlari) yaratilgan bolib, ulardan oxirgisi Mathcad s 1.0 po 4.xx, Mathcad 1.0 dan 15 versiyalarigacha ishlab chiqarilgan. Tabiiyki, har bir variant uzidan oldingisidan foydalanish uchun qulayligi va boy imkoniyatlari bilan farq qiladi.

Quyida Mathcad matematik dasturlash muhitida ishlashning yaqqol ajralib turadigan imkoniyatlarini sanab o‘tmoqchimiz:

- **Mathcad** muhitida matematik ifoda, qabul qilingan ko‘rinishda ifodalanadi. Masalan, daraja yuqorida, indeks pastda, integralning yuqori va quyi chegaralari esa an’anaviy joyida turadi.
- **Mathcad** muhitida “dasturlashni” tuzish va ularning bajarilish jarayoni parallel kechadi. Foydalanuvchi **Mathcad** – hujjatida yangi ifoda kiritar ekan, uning qiymatini hisoblash va ifodani kiritishda yo‘l qoyilgan yashirin xatoliklarni grafigini ko‘rish imkoniyati ham mavjud.
- **Mathcad** paketi yetarli darajada qudratli matematik apparat bilan qurollanganki, ular orqali tashqi pratseduralarni chaqirmasdan turib paydo bo‘ladigan muammolarni hal qilishimiz mumkin.

Mathcadga xos bo‘lgan ayrim hisoblovchi qurilmalarni sanab o‘tmoqchimiz:

- Chiziqli va chiziqli bo‘lmagan algebraik tenglama va sistemalarni yechish;
- Oddiy differensial tenglama va sistemalarni (Koshi masalasi va chegaraviy masala) yechish;
- Xususiy hosilali differensial tenglamalarni yechish;
- Berilganlarni statik qayta ishlov berish (interpolyatsiya, ekstrapolyatsiya, approksimatsiya va ko‘pgina boshqa amallar);
- Vektor va matritsalar bilan ishlash (Chiziqli algebra va boshqalar);
- Funksional bog’liqlikning maksimum va minimumini izlash.

Mathcad paketi matematik va fizik-kimyoviy formulalarga, hamda o‘zgarmaslarga asoslangan yordamchi qo‘llanmalar bilan boyitilgan.

Foydalanuvchi o‘z oldiga qoyilgan masalani yechish bilan cheklanibgina qolmay, fizikaviy maslalarni yechishda o‘lchovni hisobga olish imkoniyatiga ega. Bunda foydalanuvchi birliklar sistemasini ham tanlashi mumkin.

Matematik ifodalarni qurish va hisoblash.

Boshlang`ich holatda ekranda kursor krestik ko`rinishda bo`ladi. Ifodani kiritishda u kiritilayotgan ifodani egallab olgan ko`k burchakli holatga o`tadi. Mathcadning har qanday operatorini kiritishni uchta usulda bajarish mumkin:

- menyu buyrug`idan foydalanib;
- klaviatura tugmalaridan foydalanib;
- matematik paneldan foydalanib.

O`zgauvchilarga qiymat berish uchun yuborish operatori ":=" ishlatiladi. Hisoblashlarni amalga oshirish uchun oldin formuladagi o`zgaruvchi qiymatlari kiritiladi, keyin matematik ifoda yozilib tenglik "=" belgisi kiritiladi, natijada ifoda qiymati hosil bo`ladi.

Oddiy va matematik ifodalarni tahrirlashda menyu standart buyruqlaridan foydalaniladi. Tahrirlashda klaviaturadan ham foydalanish mumkin, masalan

- qirqib olish – Ctrl+x;
- nusxa olish – Ctrl+c;
- qo`yish – Ctrl+v;
- bajarishni bekor qilish – Ctrl+z.

Oddiy matematik ifodalarni hisoblash quyidagi rasmda keltirilgan:



Rasm 7.1.

Diskret o`zgaruvchilar va sonlarni formatlash.

Mathcadda diskret o`zgaruvchilar deganda sikl operatorini tushunish kerak. Bunday o`zgaruvchilar ma'lum qadam bilan o`suvchi yoki kamayuvchi sonlarni ketma-ket qabul qiladi. Masalan:

x:=0..5. Bu shuni bildiradiki bu o`zgaruvchi qiymati qator bir necha qiymatlardir, ya'ni x=0,1,2,3,4,5.

x:=1,1.1..5. Bunda 1 – birinchi sonni, 1,1 – ikkinchi sonni, 5 - oxirgi sonni bildiradi.

x:=A,A+B..B. Bunda A – birinchi, A+B – ikkinchi, B - oxirgi sonni bildiradi.

Izoh! O`zgaruvchi diapazonini ko`rsatishda ikki nuqta o`rniga klaviaturadan (;) nuqta vergul kiritiladi yoki Matrix (Matritsa) panelidan Range Variable (Diskret o`zgaruvchi) tugmasi bosiladi. Hisoblangan qiymatni chiqarish uchun esa o`zgaruvchi va tenglik belgisini kiritish

kifoY. Natijada o`zgaruvchi qiymati ketma-ket jadvalda chiqadi. Masalan, x:=0..5 deb yozib, keyin x= kiritish kerak.

Foydalanuvchi funksiyaning uning argumentiga mos qiymatlarini hisoblab chiqarish va bu qiymatlarni jadval yoki grafik ko`rinishda tasvirlashda diskret o`zgaruvchilardan foydalanish qulaylikni keltiradi. Masalan, f(x)=sin(x)·Cos(x) funksiya qiymatlarini x ning 0 dan 5 gacha bo`lgan qiymatlarida hisoblash kerak bo`lsa, u holda quyidagi kiritishni amalga oshirish kerak: f(x)=sin(x)·Cos(x) x:=0..5 f(x)=*javob.*

Sonlarni formatlash. Odatda Mathcad 20 belgi aniqligigacha matematik ifodalarni hisoblaydi. Hisoblash natijalarini kerakli formatga o`zgartirish uchun sichqoncha ko`rsatgichini sonli hisob chiqadigan joyga keltirib, ikki marta tez-tez bosish kerak. Natijada sonlarni formatlash natijasi Result Format oynasi paydo bo`ladi.



Rasm 7.2.

Mathcad tizimida ishlash. Sodda hisoblashlar bajarish boyicha topshiriqlar.

9) x,y,z o‘zgaruvchilarga qiymat berib ifodaning qiymatini toping:

$$\ln\left|\left(x-\sqrt{\sin^3\left(x+\frac{\pi}{3}\right)}\right)\right|\left[x-\frac{y^2-1}{z+\frac{x}{x+y}}\right]+\cos\left[tg^2\left[\frac{1}{\sqrt[3]{z+1}}\right]\right]$$

Dastlab o‘zgaruvchilarning qiymatini kiritamiz:



Rasm 7.3.

So‘ngra **Калькулятор** paketidan foydalanib, ifodani kiritamiz; (=) (tenglik) belgisini bosib,natijaga erishamiz



Rasm 7.4.

10) [a,b] oraliqda h qadam bilan funksiya qiymatlari jadvalini hosil qiling:

11)

$$d = \frac{2m + \sin^2(8 + x^3)}{\sqrt[3]{8 + x^3}}, m = 4, a = -1, b = 5, h = 1.$$

Dastlab o‘zgaruvchilarni kiritamiz; [-1,5] oraliqni kiritish uchun **Матрица** paketining (**m..n)** amalidan yoki klaviaturadagi (**J)** klavishidan foydalanamiz.



Rasm 7.5.

So‘ngara **Калькулятор** paketidan foydalanib funksiyani quyidagicha kiritamiz:



Rasm 7.6.

Funksiyaning berilgan oraliqdagi qiymatlarini topish uchun so‘ngi amalni bajaramiz:



Rasm 7.7.

12) x=0.25 Funksiya hosilasini berilgan qiymatda hisoblang:

$$f(x) := \left(x^{5}\cdot\frac{3}{5}\right) - \left(\frac{1}{2\cdot x^{4}}\right) - \left(\frac{2}{\sqrt[4]{x^{3}}}\right) + 7$$

Ushbu fuksiyani xosilasini hisoblash uchun **Математические** panelidagi **Вычисление Математические** va **Калькулятор** paketlari kerak bo‘ladi.

Paketlar yordamida funksyani quyidagi ko‘rinishga keltiramiz va natijaga erishamiz:



Rasm 7.8.

13) Quyidagi limitni toping:

$$\lim_{n\to\infty}\frac{(n+1)^4+(n-1)^4}{n^4+10}$$

Ushbu limitni topish uchun bizga **Математические** panelidagi **Калькулятор** va **Вычисление** paketlari kerak bo‘ladi:



Rasm 7.9.

Dastlab ifodani kiritamiz va natijaga erishish uchun **Вычисление** paketidan foydalanamiz:



Rasm 7.10.

14) Aniq integralni hisoblang va natijani solishtiring:

$$\int_0^{\frac{\pi}{4}} \frac{1}{\cos(x)}\,dx \to \ln(\sqrt{2}+1) = 0.881 \qquad \int_1^4 e^x\left(1-\frac{e^{-x}}{x^2}\right)dx = 51.13$$

Ushbu aniq integrallarni hisoblash uchun **Математические** panelidagi **Калькулятор, Вычисление** va **Математический анализ** paketlaridan foydalanamiz.



Rasm 7.11.

So‘ng aniq integralni kiritib, quyidagi natijaga erishamiz:



Rasm 7.12.

Grek alifbosi harflarini ishlatish uchun Γrecheskiy paketlaridan ham foydalandik. 2-aniq integralni shunday tartibda kiritamiz va quyidagi natijaga erishamiz:



Rasm 7.13.

15) Aniqmas integralni hisoblang va natijani solishtiring:

$$\int\left(\frac{1}{x^3}+\frac{1}{x^2}+\frac{1}{x}\right)dx \to \frac{-1}{\left(2x^2\right)}-\frac{1}{x}+\ln(x) \qquad \int\frac{1}{2x^2-6}dx \to \frac{-1}{6}\cdot\sqrt{3}\cdot a\tanh\left(\frac{1}{3}\cdot x\cdot\sqrt{3}\right)$$

Ushbu aniqmas integrallarni hisoblash uchun **Математические** panelidagi **Калькулятор, Вычисление** va **Математический анализ** paketlaridan foydalanamiz. So‘ng aniqmas integrallarni kiritib, quyidagi natijalarga ega bo‘lamiz:



Rasm 7.14.



Rasm 7.15.

16) Karrali integralni hisoblang va natijani solishtiring:

$$\int_{-\infty}^{\infty}\int_{-\infty}^{\infty} e^{-\left(x^2+y^2\right)}\,dx\,dy = 3.142$$

Ushbu karrali integrallarni hisoblash uchun **Математические** panelidagi **Калькулятор, Вычисление** va **Математический анализ** paketlaridan foydalanamiz. Ishchi sohaga karrali integralni kiritib, quyidagi natijani hosil qilamiz:



Rasm 7.16.

8-AMALIYOT ISHI
MATHCAD PAKETIDA VA ELEKTRON JADVALLARDA LIMITLAR, DIFFERENSIAL TENGLAMALAR, INTEGRALLAR TURLI XIL USULLAR BILAN HISOBLASH.

Maqsad: Talabalarni limitlar, differensial tenglamalar, integrallar turli xil usullar bilan hisoblashni ishlashga o‘rgatish.

Nazariy qism

Limitlarni hisoblash.

Mathcadda limitlarni hisoblashning uchta operatori bor.

1.**Математические** panelidan **Калькулятор** va **Математический анализ** tugmalari bosiladi.



Rasm 8.1.

1. **Математические** panelidan **Математический анализ** tugmasi basilsa, **Математический анализ** paneli ochiladi. U yerning pastki qismida limitlarni hisoblash operatorlarini kiritish uchun uchta tugmacha mavjud. Ularning birini bosish kerak.

2.lim so`zining o`ng tomonidagi kiritish joyiga ifoda kiritiladi.

3.lim so`zining ostki qismiga o`zgaruvchi nomi va uning intiladigan qiymati kiritiladi.

Simvolli yechish.

Tenglamaning simvolli yechimini topish uchun quyidagi ishlar ketma-ketligini bajarish kerak:

1.Yechiladigan tenglamani kiritish va tenglama yechimi bo`lgan o`zgaruvchini kursorning ko`k burchagida ajratish.

2.**Символьные операции** menyudan — **Переменная** — **Решить** (Belrili amallar — o`zgaruvchi — yechish) buyrug`ini tanlash. Tenglamani yechish rasmda keltirilgan.



$$2 \cdot h^2 + h - bb$$

$$\begin{pmatrix} \frac{\sqrt{8 \cdot bb + 1}}{4} - \frac{1}{4} \\ -\frac{\sqrt{8 \cdot bb + 1}}{4} - \frac{1}{4} \end{pmatrix}$$

Mathcad agar limit mavjud bo`lsa, limitning intilish qiymatini qaytaradi. Limitlarni hisoblashga doir misollar rasmda keltirilgan.



Rasm 8.2.

Sonli yechish.

Algebraik tenglamalarni yechish uchun Mathcadda bir necha funksiyalar mavjud. Ulardan Root funksiyasini ko`rib chiqamiz. Bu funksiyaga murojaat quyidagicha:



Rasm 8.3.



Rasm 8.4.

$$f(z) := 2\left|(z-3)^2\right| + z - 8$$

$$z := 1 \qquad z0 := \text{root}(f(z), z) = 1.149$$

Rasm 8.5.



Rasm 8.6.

Root funksiyasi yordamida funksiya hosilasini nolga tenglashtirib uning ekstremumini ham topish mumkin. Funksiya ekstremumini topish uchun quyidagi protsedurani bajarish kerak:

1. Ekstremum nuqtasiga boshlang`ich yaqinlashishni berish kerak.
2. Root funksiyasini yozib uning ichiga birinchi tartibli differentsialni va o`zgaruvchini kiritish.
3. O`zgaruvchini yozib teng belgisini kiritish.
4. Funksiyani yozib teng belgisini kiritish.

Root funksiyasi yordamida tenglamaning simvolli yechimini ham olish mumkin. Buning uchun boshlang`ich yaqinlashish talab etilmaydi. Root funksiya ichiga oluvchi ifodani kiritish kifoyadir (masalan, Root(2h2+h-bb,h)). Keyin **Ctrl+.** klavishasini birgalikda bosish kerak. Agrar simvolli yechim mavjud bo`lsa, u paydo bo`ladi.

Mathcada tenglamalar tizimini yechish.**Given…Find** hisoblash bloki yordamida amalga oshiriladi.Tenglamalar tizimini yechish uchun iteratsiya usuli qo‘llaniladi va yechishdan oldin boshlang’ich yaqinlashish barcha noma’lumlar uchun beriladi.

Tenglamalar tizimini yechish uchun quyidagi protsedurani bajarish kerak:

1. Tizimga kiruvchi barcha noma’lumlar uchun boshlang’ich yaqinlashishlarni berish.
2. **Given** kalit so‘zi kiritiladi.
3. Tizimga kiruvchi tenglama va tengsizlik kiritiladi.Tenglik belgisi qalin bo‘lishi kerak,buning uchun **Ctrl+=** klavishlarni birgalikda bosish kerak bo‘lad yoki **Boolean**(Bul operatorlari) panelidan foydalanish mumkin.
4. **Find** funksiyasi tarkibiga kiruvchi o‘zgaruvchi yoki ifodani kiritish.

Funksiyaga murojaat quyidagicha bajariladi:**Find(x,y).**Bu yerda x,y-noma’lumlar Noma’lumlar soni tenglamalr soniga teng bo‘ladi .



Rasm 8.7.

Find funktsiyasi funktsiya **Root** ga o`xshab tenglamalar tizimini sonli yechish bilan bir qatorda, yechimni simvolli ko`rinishda ham topish imkonini beradi



Rasm 8.8.

Mathcad tizimida sodda integrallarni hisoblash.

Ma'lumki, aniq integralni hisoblash natijasida, qandaydir egri chiziqlar bilan ajratilgan sohaning yuzini hisobga olgan bo‘lamiz. Ikki karrali integrallarni hisoblab figuraning hajmi topiladi. Murakkab ko‘rinishdagi integrallarni son qiymatini topishda turli xil metodlardan foydalanamiz, ba'zi vaqtda esa vaqtdan yutqazamiz. Shunda biz yuqori tartibli integrallarning son qiymatini hisoblashda Mathcad tizimidan foydalanishimiz mumkin. Mathcad tizimida bajarilgan integralning qiymati aniq va tez hisoblanadi.

Mathcadda integralni hisoblash paneldan tugmasini tanlaymiz va va aniqmas integralning son qiymatini topishda tugmasidan, aniq integralning qiymatini hisoblashda esa tugmasidan foydalanamiz.

Quyida Mathcad muhitida hisoblangan aniq va aniqmas integrallar, hamda ikki karrali va uch karrali integrallar keltirilgan.

$g(x) = \dfrac{1}{1+\cos(x)}$ funksiyaning boshlang’ichi va [0, 3.14/2] oraliqdagi aniq integrallarni hisoblang.

Yechish: $g(x) = \dfrac{1}{1+\cos(x)}$ funksiyaning boshlang’ichini hisoblash uchun asboblar panelidagi $\int \blacksquare\, d\blacksquare$ simvoldan foydalanamiz va natijani ko‘rish uchun $\blacksquare \rightarrow$ tugmasini bosish kerak. Berilgan oraliqdagi aniq integralni hisoblash uchun ham shu paneldagi $\int \blacksquare\, d\blacksquare$

simvoldan foydalanamiz va natijani olish uchun ham shu paneldagi $\int \blacksquare\, d\blacksquare$ simvoldan foydalanamiz va natijani olish uchun “=” tugmasini bosish kifoY.

$$g(x) := \frac{1}{1+\cos(x)} \rightarrow \tan\left(\frac{1}{2}\cdot x\right) \qquad \int_{0}^{\frac{3.14}{2}} \frac{1}{\cos(x)}\,dx = 0.999$$

Quyida keltirilgan funksiyalarning boshlang’ichi va oraliqdagi integrallari asboblar panelidagi $\int \blacksquare\, d\blacksquare$ simvoldan foydalanamiz va natijani ko‘rish uchun $\blacksquare \rightarrow$ tugmasini bosib, oraliqdagi aniq integralni hisoblash uchun ham shu paneldagi $\int \blacksquare\, d\blacksquare$ simvoldan foydalanib natijalar olinganligi keltirilgan.

9-AMALIYOT ISHI
MATHCADDA SIMVOLLI XISOBLASH.

Maqsad: Mathcad muxitida simvolli o‘zgartirishlar imkoniyatini o‘rganish, simvol o‘zgartirishlarni bajarish asoslarini o‘zlashtirish, soda simvolli o‘zgartirishlarni bajarish.

Nazariy qism

Belgili (simvolli) hisoblashlar.

Sonli hisoblashlardan tashqari Mathcad belgili (simvolli) hisoblashlarni ham amalga oshiradi. Bu degani hisoblashlar natijasini analitik ko`rinishda tasvirlash mumkin. Masalan, aniqmas integral, differentsiallash va boshqa shu kabi masalalarni echishda uning echimini analitik ko`rinishda tasvirlaydi. Bunday oddiy simvolli hisoblashlar rasmda keltirilgan.



Rasm 9.1.

Simvolli hisoblashlarni bajarishda ikkita asosiy vosita mavjud:

- Simвolnie operasii (Simvolli hisoblash) menyusi;
- Matematicheskiy panelidan Simвolnie preoбrazovaniya paneli.

Bu vositalar ancha murakkab simvolli hisoblashlarda qo`llaniniladi. Hozir esa oddiy simvolli hisoblashni bajarishning eng sodda usuli, ya'ni tez-tez ishlatilib turiladigan usullardan biri - simvolli tenglik belgisi (→) usulini ko`rib chiqamiz. Quyida bu usuldan foydalanishning ketma-ketlik tartibi berilgan:

1.**Математические** panelidan **Калькулятор** va **Математический анализ** tugmalari bosiladi.

2.Ochilgan panel oynalaridan kerakli ifodani kiritiladi (misol tariqasida aniqmas integral qaralayapdi).

3.Kiritish joylari to`ldiriladi, ya'ni funktsiya nomi va o`zgaruvchi nomi kiritiladi.

4. Simvolli belgi tengligi (→) belgisi kiritiladi.

Simvolli operatsiyalar **Символьные операции** — **Вычислить**(hisoblash) — **Аналитически** (analitik **SHIFT+F9**) buyruqlari yordamida beriladi. Mathcad agar limit mavjud bo`lsa, limitning intilish qiymatini qaytaradi. Limitlarni hisoblashga doir misollar pastki rasmda keltirilgan.

Simvolli hisoblash vositalari.

Vosita	Shablon	Ta'rifi
float	• Float, •→	Siljuvchi nuqtani hisoblash
complex	• complex, •→	Kompleks son formasiga o`tkazish
expand	• expand, •→	Bir necha o`zgaruvchili yig`indi, ko`paytma va darajani ochish
solve	• solve, •→	Tenglama va tenglamalar tizimini echish
simplify	• simplify, •→	Ifodalarni ixchamlash
substitute	• substitute, •→	Ifodalarni hisoblash
collect	• collect, •→	Oddiy yig`indida tasvirlangan palinom ko`rinishdagi ifodani ixchamlash
series	• series, •→	Darajali qatorda ifodani yoyish
assume	• assume, •→	Aniq qiymat bilan yuborilgan o`zgaruvchini hisoblash
parfrac	• parfrac, •→	Oddiy kasrga ifodalarni yoyish
coeffs	• coeffs, •→	Polinom koeffitsienti vektorini aniqlash
factor	• factor, •→	Ifodalarni ko`paytuvchilarga yoyish
fourier	• fourier, •→	Fure to`g`ri almashtirishi
laplace	• laplace, •→	Laplas to`g`ri almashtirishi
ztrans	• ztrans, •→	To`g`ri z-almashtirish
invfourier	• invfourier, •→	Fure teskari almashtirishi
invlaplace	• invlaplace,•→	Laplas teskari almashtirishi
invztrans	• invztrans, •→	Teskari z-almashtirish
$M^T\rightarrow$	• $^T\rightarrow$	Matritsani transponirlash
$M^{-1}\rightarrow$	• $^{-1}\rightarrow$	Matritsaga murojaat
$\|M\|\rightarrow$	$\|•\|\rightarrow$	Matritsa determinantini hisoblash
Modifier		Modifier panelini chiqarish

Limitlarni hisoblash.

Mathcadda limitlarni hisoblashning uchta operatori bor.

1.**Математические** panelidan **Калькулятор** va **Математический анализ** tugmalari bosiladi.

4-topshiriq



Rasm 9.2.

1. **Математические** panelidan **Математический анализ**tugmasi basilsa, **Математический анализ** paneli ochiladi. U yerning pastki qismida limitlarni hisoblash operatorlarini kiritish uchun uchta tugmacha mavjud. Ularning birini bosish kerak.

2.lim so`zining o`ng tomonidagi kiritish joyiga ifoda kiritiladi.

3.lim so`zining ostki qismiga o`zgaruvchi nomi va uning intiladigan qiymati kiritiladi.

Simvolli yechish.

Tenglamaning simvolli yechimini topish uchun quyidagi ishlar ketma-ketligini bajarish kerak:

1.Yechiladigan tenglamani kiritish va tenglama yechimi bo`lgan o`zgaruvchini kursorning ko`k burchagida ajratish.

2. **Символьные операции** menyudan — **Переменная** —— **Решить** (Belgili amallar – – O`zgaruvchi — Yechish) buyrug`ini tanlash. Tenglamani yechish rasmda keltirilgan.



Rasm 9.3.

Mathcad agar limit mavjud bo`lsa, limitning intilish qiymatini qaytaradi. Limitlarni hisoblashga doir misollar rasmda keltirilgan.



Rasm 9.4.

Massivlar bilan ishlash.

Matematik masalalarni yechishda Mathcadning xizmati matritsalar ustida amallar bajarishda yaqqol ko`rinadi. Matritsalar katta bo`lganda bu amallarni bajarish ancha murakkab bo`lib, kompyuterda Mathcadda dastur tuzishni talab etadi. Mathcad tizimida bunday ishlarni tez va yaqqol ko`rinishda amalga oshirsa bo`ladi.

Hujjatga matritsani kiritish uchun quyidagi ishlar ketma-ketligi bajariladi:

1.Matritsa nomini va (:=) yuborish operatorini kiritish.

2.Matematika panelidan **Матрица** tugmachasi bosiladi. Natijada **Матрица** paneli ochiladi. Ochilgan muloqot oynasidan ustun va satr sonlari kiritilib Ok tugmasi bosiladi. Bu holda ekranda matritsa shabloni paydo bo`ladi.

3.Har bir joy sonlar bilan to`ldiriladi, ya'ni matritsa elementlari kiritiladi.

Matritsalar ustida asosiy amallar. Mathcad matritsalar bilan quyidagi arifmetik operatsiyalarni bajaradi: matritsani matritsaga ko`paytirish, qo`shish, va ayirish, bundan tashqari transponirlash operatsiyasini, murojaat qilish, matritsa determinantini hisoblash, maxsus son va maxsus vektorni topish va boshqa.

Shablon yordamida 100 dan ortiq elementga ega bo`lgan matritsani kiritish mumkin. Vektor – bu bir ustunli matritsa deb qabul qilinadi. Har qanday matitsa elementi matritsa nomi bilan uning ikki indeksi orqali aniqlanadi. Birinchi indeks qator nomerini, ikkinchi indeks – ustun nomerini bildiradi. Indekslarni kiritish uchun matematika vositalar panelidan Matrix panelini ochib, u erdan Vector and Matrix Toolbar, keyin Subscript (Pastki indeks) bosiladi. Klaviaturadan buni [(ochuvchi kvadrat qavs) yordamida bajarsa ham bo`ladi. Massiv elementi nomeri 0,1 yoki istalgan sondan boshlanishi mumkin (musbat yoki manfiy). Massiv elementi numeri boshqarish uchun maxsus ORIGIN nomli o`zgaruvchi ishlatiladi. Avtomatik 0 uchun ORIGIN=0 deb yoziladi. Bunda massiv elementlari nomeri nuldan boshlanadi. Agar nuldan boshqa sondan boshlansa unda ORIGIN dan keyin ikki nuqta qo`yiladi, masalan ORIGIN:=1.

D matritsaning pastki indekslardan foydalanib elementlarini topish ko`rsatilgan. ORIGIN=0 bo`lgani uchun avtomatik ravishda birinchi element 10 ga teng.

Matritsalar ustida asosiy amallar. Matchad matritsalar bilan quyidagi arifmetik operatsiyalarni bajaradi: matritsani matritsaga qo`shish, ayirish va ko`paytirish, bundan tashqari transponirlash operatsiyasini, murojaat qilish, matritsa determinantini hisoblash, maxsus son va maxsus vektorni topish va boshqa. Bu operatsiyalarning bajarilishi rasmlarda keltirilgan.



Rasm 9.5.



Rasm 9.6.

Matritsali tenglamalarni echish. Matritsali tenglamalar bu chiziqli algebraik tenlamalar tizimi bo`lib A·X=B ko`rinishda yoziladi va u matritsaga murojaat qilish yo`li bilan teskari matritsani topish orqali echiladi $X=A^{-1}\cdot B$



Rasm 9.7.

Matritsalar ustida simvolli operatsiyalar Simвolnie operasii (Simvolli hisoblash) menyusining buyruqlari va simvolli tenglik belgisi (→) yordamida bajariladi.

Quyidagi misollarda matritsalar ustida amallar bajarilishi ko‘rsatilgan:



Rasm 9.8.



Rasm 9.9.

Matritsali tenglamalar bu chiziqli algebraik tenglamalar tizimi bo`lib $A \cdot X=B$ ko`rinishda yoziladi va u matritsaga murojaat qilish yo`li bilan teskari matritsani topish orqali yechiladi $X=A^{-1} \cdot B$



$$A := \begin{pmatrix} 1 & 2 & 3 \\ 3 & 2 & 1 \\ 2 & 1 & 3 \end{pmatrix} \qquad B := \begin{pmatrix} 10 \\ 20 \\ 50 \end{pmatrix}$$

$$X := A^{-1}B = \begin{pmatrix} 17.5 \\ -22.5 \\ 12.5 \end{pmatrix}$$

Rasm 9.10.

10-AMALIYOT ISHI
MATHCAD PAKETI VA UNING IMKONIYATLARI. BIR VA IKKI O‘LCHAMLI FUNKSTIYALARNING GRAFIGINI QURISH.

Maqsad: MathCad tizimida ishlash haqida tushunchaga ega bo‘lish.Matematika ifodalarni hisoblash boyicha masalalar yechishni o‘rganish.

Nazariy qism

Mathcad tizimi va unda ishlash texnologiyasi

Matematik paketlar, ayniqsa Mathcad –mashhur paket bo‘lib, ilmiy – texnikaviy soha mutaxassislariga dasturlashning nozik elementlariga e’tibor berilmasdan (masalan:fortran, C, paskal, BASIC va boshqalar kabi) kompyuterda matematik modellashtirishni amalga oshirishga katta yordam beradi.

Mathcad 1986-yilda Massachueset texnika unversitetida olim Allen Razdov tomonidan yaratilgan.Hozirgi kunda Mathcad dasturini qullab versiyalari (Topshiriqlari) yaratilgan bo‘lib, ulardan oxirgisi Mathcad s 1.0 po 4.xx, Mathcad 1.0 dan 15 versiyalarigacha ishlab chiqarilgan. Tabiiyki, har bir Topshiriq uzidan oldingisidan foydalanish uchun qulayligi va boy imkoniyatlari bilan farq qiladi.

Quyida Mathcad matematik dasturlash muhitida ishlashning yaqqol ajralib turadigan imkoniyatlarini sanab o‘tmoqchimiz:

- **Mathcad** muhitida matematik ifoda, qabul qilingan ko‘rinishda ifodalanadi. Masalan, daraja yuqorida, indeks pastda, integralning yuqori va quyi chegaralari esa an’anaviy joyida turadi.
- **Mathcad** muhitida “dasturlashni” tuzish va ularning bajarilish jarayoni parallel kechadi. Foydalanuvchi **Mathcad** – hujjatida yangi ifoda kiritar ekan, uning qiymatini hisoblash va ifodani kiritishda yo‘l qoyilgan yashirin xatoliklarni grafigini ko‘rish imkoniyati ham mavjud.
- **Mathcad** paketi yetarli darajada qudratli matematik apparat bilan qurollanganki, ular orqali tashqi pratseduralarni chaqirmasdan turib paydo bo‘ladigan muammolarni hal qilishimiz mumkin.

Mathcadga xos bo‘lgan ayrim hisoblovchi qurilmalarni sanab o‘tmoqchimiz:

- Chiziqli va chiziqli bo‘lmagan algebraik tenglama va sistemalarni yechish;
- Oddiy differensial tenglama va sistemalarni (Koshi masalasi va chegaraviy masala) yechish;
- Xususiy hosilali differensial tenglamalarni yechish;
- Berilganlarni static qayta ishlov berish (interpolyatsiya, ekstrapolyatsiya, approksimatsiya va ko‘pgina boshqa amallar);
- Vektor va matritsalar bilan ishlash (chiziqli algebra va boshqalar);
- Funksional bog’liqlikning maksimum va minimumini izlash.

Mathcad paketi matematik va fizik-kimyoviy formulalarga, hamda o‘zgarmaslarga asoslangan yordamchi qo‘llanmalar bilan boyitilgan.

Foydalanuvchi o‘z oldiga qoyilgan masalani yechish bilan cheklanibgina qolmay, fizikaviy masalalarni yechishda o‘lchovni hisobga olish imkoniyatiga ega. Bunda foydalanuvchi birliklar sistemasini ham tanlashi mumkin.

Matematik ifodalarni qurish va hisoblash. Tahrirlashda klaviaturadan ham foydalanish mumkin, masalan

Boshlang`ich holatda ekranda kursor krestik ko`rinishda bo`ladi. Ifodani kiritishda u kiritilayotgan ifodani egallab olgan ko`k burchakli holatga o`tadi. Mathcadning har qanday operatorini kiritishni uchta usulda bajarish mumkin:

- menyu buyrug`idan foydalanib;
- klaviatura tugmalaridan foydalanib;
- matematik paneldan foydalanib.

O`zgauvchilarga qiymat berish uchun yuborish operatori “:=” ishlatiladi. Hisoblashlarni amalga oshirish uchun oldin formuladagi o`zgaruvchi qiymatlari kiritiladi, keyin matematik ifoda yozilib tenglik “=” belgisi kiritiladi, natijada ifoda qiymati hosil bo`ladi.

Oddiy va matematik ifodalarni tahrirlashda menyu standart buyruqlaridan foydalaniladi.

- qirqi bo‘lish – Ctrl+x;
- nusxa olish – Ctrl+c;
- qo`yish – Ctrl+v;
- bajarishni bekor qilish – Ctrl+z.

Oddiy matematik ifodalarni hisoblash quyidagi rasmda keltirilgan:



Rasm 10.1.

Diskret o`zgaruvchilar va sonlarni formatlash.

Mathcadda diskret o`zgaruvchilar deganda sikl operatorini tushunish kerak. Bunday o`zgaruvchilar ma'lum qadam bilan o`suvchi yoki kamayuvchi sonlarni ketma-ket qabul qiladi. Masalan:

x:=0..5. Bu shuni bildiradiki bu o`zgaruvchi qiymati qator bir necha qiymatlardir, ya'ni x=0,1,2,3,4,5.

x:=1,1.1..5. Bunda 1 – birinchi sonni, 1,1 – ikkinchi sonni, 5 - oxirgi sonni bildiradi.

x:=A,A+B..B. Bunda A – birinchi, A+B – ikkinchi, B - oxirgi sonni bildiradi.

Izoh! O`zgaruvchi diapazonini ko`rsatishda ikki nuqta o`rniga klaviaturadan (;) nuqta vergul kiritiladi yoki Matrix (Matritsa) panelidan Range Variable (Diskret o`zgaruvchi) tugmasi bosiladi. Hisoblangan qiymatni chiqarish uchun esa o`zgaruvchi va tenglik belgisini kiritish kifoY. Natijada o`zgaruvchi qiymati ketma-ket jadvalda chiqadi. Masalan, x:=0..5 deb yozib, keyin x= kiritish kerak.

Foydalanuvchi funktsiyaning uning argumentiga mos qiymatlarini hisoblab chiqarish va bu qiymatlarni jadval yoki grafik ko`rinishda tasvirlashda diskret o`zgaruvchilardan foydalanish qulaylikni keltiradi. Masalan, f(x)=sin(x)·Cos(x) funktsiya qiymatlarini x ning 0 dan 5 gacha bo`lgan qiymatlarida hisoblash kerak bo`lsa, u holda quyidagi kiritishni amalga oshirish kerak: f(x)=sin(x)·Cos(x) x:=0..5 f(x)=*javob.*

Sonlarni formatlash. Odatda Mathcad 20 belgi aniqligigacha matematik ifodalarni hisoblaydi. Hisoblash natijalarini kerakli formatga o`zgartirish uchun sichqoncha ko`rsatgichini sonli hisob chiqadigan joyga keltirib, ikki marta tez-tez bosish kerak. Natijada sonlarni formatlash natijasi Result Format oynasi paydo bo`ladi.



Rasm 10.2.

Mathcad tizimida ishlash.Sodda hisoblashlar bajarish boyicha topshiriqlar.

17) x,y,z o‘zgaruvchilarga qiymat berib ifodaning qiymatini toping:

$$\ln\left|\left(x-\sqrt{\sin^3\left(x+\frac{\pi}{3}\right)}\right)\right|\left[x-\frac{y^2-1}{z+\frac{x}{x+y}}\right]+\cos\left[tg^2\left[\frac{1}{\sqrt[3]{z+1}}\right]\right]$$

Dastlab o‘zgaruvchilarning qiymatini kiritamiz:



Rasm 10.3.

So‘ngra **Калькулятор** paketidan foydalanib, ifodani kiritamiz; (=) (tenglik) belgisini bosib,natijaga erishamiz.



Rasm 10.4.

18) [a,b] oraliqda h qadam bilan funksiya qiymatlari jadvalini hosil qiling:

$$d = \frac{2m + \sin^2(8 + x^3)}{\sqrt[3]{8 + x^3}}, m = 4, a = -1, b = 5, h = 1.$$

Dastlab o‘zgaruvchilarni kiritamiz; [-1,5] oraliqni kiritish uchun **Матрица** paketining (**m..n)** amalidan yoki klaviaturadagi (**J)** klavishidan foydalanamiz.



Rasm 10.5.

So‘ngra **Калькулятор** paketidan foydalanib funksyani quyidagicha kiritamiz:



Rasm 10.6.

Funksiyaning berilgan oraliqdagi qiymatlarini toppish uchun so‘ngi amalni bajaramiz:



Rasm 10.7.

19) x=0.25 Funksiya hosilasini berilgan qiymatda hisoblang:

$$f(x) := \left(x^{5}\cdot\frac{3}{5}\right) - \left(\frac{1}{2\cdot x^{4}}\right) - \left(\frac{2}{\sqrt[4]{x^{3}}}\right) + 7$$

Ushbu fuksiyani xosilasini hisoblash uchun **Математические** panelidagi **Вычисление Математические** va **Калькулятор** paketlari kerak bo‘ladi.

Paketlar yordamida funksyani quyidagi ko‘rinishga keltiramiz va natijaga erishamiz:



Rasm 10.8.

20) Quyidagi limitni toping:

$$\lim_{n\to\infty}\frac{(n+1)^4+(n-1)^4}{n^4+10}$$

Ushbu limitni toppish uchun bizga **Математические** panelidagi **Калькулятор** va **Вычисление** paketlari kerak bo‘ladi:



Rasm 10.9.

Dastlab ifodani kiritamiz va natijaga erishish uchun **Вычисление** paketidan foydalanamiz:



Rasm 10.10.

21) Aniq integralni hisoblang va natijani solishtiring:

$$\int_0^{\frac{\pi}{4}} \frac{1}{\cos(x)}\,dx \to \ln(\sqrt{2}+1) = 0.881 \qquad \int_1^4 e^x \left(1 - \frac{e^{-x}}{x^2}\right) dx = 51.13$$

Ushbu aniq integrallarni hisoblash uchun ***математические*** panelidagi ***Калькулятор, Вычисление,*** va ***Математическиеataliz*** paketlaridan foydalanamiz.



Rasm 10.11.

So‘ng aniq integralni kiritib, quyidagi natijaga erishamiz:



Rasm 10.12.

Grek alifbosi harflarini ishlatish uchun **Греческий** paketlaridan ham foydalandik. 2-aniq integralni shunday tartibda kiritamiz va quyidagi natijaga erishamiz:



Rasm 10.13.

22) Aniqmas integralni hisoblang va natijani solishtiring:

23)

$$\int\left(\frac{1}{x^3}+\frac{1}{x^2}+\frac{1}{x}\right)dx \to \frac{-1}{(2x^2)}-\frac{1}{x}+\ln(x)\int\frac{1}{2x^2-6}\,dx \to \frac{-1}{6}\cdot\sqrt{3}\cdot a\tanh\left(\frac{1}{3}\cdot x\cdot\sqrt{3}\right)$$

Ushbu aniqmas integrallarni hisoblash uchun **Математические** panelidagi **Калькулятор, Вычисление** va **Математический анализ** paketlaridan foydalanamiz. So‘ng aniqmas integrallarni kiritib, quyidagi natijalarga ega bo‘lamiz:



$$\int \left(\frac{1}{x^3}\right) + \left(\frac{1}{x^2}\right) + \left(\frac{1}{x}\right) dx \rightarrow \ln(x) - \frac{x + \frac{1}{2}}{x^2}$$

Rasm 10.14.



$$\int \frac{1}{2 \cdot x^2 - 6} dx \rightarrow \frac{\sqrt{3} \cdot \ln\left(x - \sqrt{3}\right)}{12} - \frac{\sqrt{3} \cdot \ln\left(x + \sqrt{3}\right)}{12}$$

Rasm 10.15.

24) Karrali integralni hisoblang va natijani solishtiring:

$$\int_{-\infty}^{\infty} \int_{-\infty}^{\infty} e^{-\left(x^2+y^2\right)} dx\ dy = 3.142$$

Ushbu karrali integrallarni hisoblash uchun **Математические** panelidagi **Калькулятор, Вычисление,** va **Математический анализ** paketlaridan foydalanamiz. Ishchi sohaga karrali integralni kiritib, quyidagi natijani hosil qilamiz:


100%
Мой веб-узел
Go
Математический ан...
Калькулятор
sin cos tan ln log n!
Вычисление
$\int_{-\infty}^{\infty}\int_{-\infty}^{\infty} e^{-\left(x^2+y^2\right)}\,dx\,dy = 3.142$

Rasm 10.16.

II. MUSTAQIL TA’LIM MAVZULARI

Mustaqil ta’lim va mustaqil ishlar

Axborot texnologiyalari va jarayonlarning matematik modellashtirish bo‘yicha talabaning mustaqil talimi shu fanni organish jarayonining tarkibiy qismi bo‘lib, uslubiy va axborot resurslari bilan tola taminlangan.

Talabalar auditoriya mashgulotlarida professor-o‘qituvchilarining ma’ruzasini tinglaydilar. Auditoriyadan tashqarida talaba darslarga tayyorlanadi, adabiyotlarni konspekt qiladi, uy vazifa sifatida berilgan topshiriqlarga javoblarni topadilar. Bundan tashqari ayrim mavzularni kengroq organish maqsadida qoshimcha adabiyotlarni oqib referatlar tayyorlaydi hamda mavzu bo‘yicha testlar echadi. Mustaqil talim natijalari reyting tizimi asosida baholanadi.

Uyga vazifalarni bajarish, qoshimcha darslik va adabiyotlardan yangi bilimlarni mustaqil organish, kerakli malumotlarni izlash va ularni topish yollarini aniqlash, internet tarmoqlaridan foydalanib malumotlar toplash va ilmiy izlanishlar olib borish, ilmiy togarak doirasida yoki mustaqil ravishda ilmiy manbalardan foydalanib ilmiy maqola va maruzalar tayyorlash kabilar talabalarning darsda olgan bilimlarini chuqurlashtiradi,ularning mustaqil fikirlash va ijodiy qobiliyatini rivojlantiradi.Shuning uchun ham mustaqil talimsiz oquv faoliyati samarali bolishi mumkin emas.

Uy vazifalarni tekshirish va baholash amaliy mashgulot olib boruvchi oqituvchi tomonidan, laboratoriya ishlarini qabul qilish biriktirilgan oqituvchilar tomonidan har bir laboratoriya darsida baholanadi, konspektlarni va mavzuni ozlashtirish darajasini tekshirissh va baholassh esa maruza darslarini olib boruvchi oqituvchi tomonidan har darsda amalga oshiriladi. Axborot texnologiyalari va jarayonlarning matematik modellashtirish fanidan mustaqil ish majmuasi fanning barcha mavzularini qamrab olgan va quyidagi tartibda bajarish tartibi korsatilgan.

Mustaqil ishni bajarish tartibi.

1. Masalani mazmuni bilan tanishish.
2. Masalani yechishga qol keladigan adabiyotlarni organib chiqish.
3. Topshiriqni bajarish etaplarini belgilash. Ishni bajarishda optimal usullarni tanlash.
4. Topshiriqni bajarish.
5. Hisobot tayyorlash (referat tarzida yoki electron tarzida)

Tavsiya etiladigan mustaqil ta’lim mavzulari va hajmi.

№ t/r	Mustaqil ishlar mavzulari	Vazifa
1.	C++tili fanining C++ tilining arifmetik, qiymat uzatish va mantiqiy buyruqlari bo‘limi asosida elektron saxifa yaratish.	Adabiyot tanlash va mustaqil vazifani bajarish.
2.	C++ tili fanining C++ tilining konstruktsiyasi va dasturni translyatsiya qilish bo‘limi asosida elektron saxifa yaratish.	Adabiyot tanlash va mustaqil vazifani bajarish.
3.	C++ tili fanining Boshqarishni uzatish buyruqlari bo‘limi asosida elektron saxifa yaratish.	Adabiyot tanlash va mustaqil vazifani bajarish.
4.	Mathcad dasturi. Dastur interfeysi.	Adabiyot tanlash va mustaqil vazifani

		bajarish.
5.	Mathcad da hujjat yaratish Mathcadda oddiy hisoblashlarni bajarish.	Adabiyot tanlash va mustaqil vazifani bajarish.
6.	Dastur haqida umumiy ma’lumotlar Mathcadda ishlashning asosiy usullari.	Adabiyot tanlash va mustaqil vazifani bajarish.
7.	Mathcad dasturida o‘zgaruvchi va funksiyalarni aniqlash.	Adabiyot tanlash va mustaqil vazifani bajarish.
8.	Mathcadda Matn. Matnda formula. Matnni tahrirlash.	Adabiyot tanlash va mustaqil vazifani bajarish.
9.	Mathcadda grafika.Dekart grafikni yasash. Qutb koordinatalardagi grafiklar uchun funksiyalarni qo‘llash.	Adabiyot tanlash va mustaqil vazifani bajarish.
10	Mathcad paketida va elektron jadvallarda bir va ikki o‘lchamli funksiyalarning grafigini qurish.	Adabiyot tanlash va mustaqil vazifani bajarish.
11	Mathcadda simvolli xisoblash.	Adabiyot tanlash va mustaqil vazifani bajarish.
12.	Funksiyalarni berilgan oraliqdagi grafigini yasash. Ikki va uch o‘lchovli grafiklar.	Adabiyot tanlash va mustaqil vazifani bajarish.
13.	MS Acces dasturida forma va hisobot yaratish.	Adabiyot tanlash va mustaqil vazifani bajarish.
14.	Master va konstruktor rejimida ishlash. Bazaga ma’lumotlarni forma yordamida kiritish.	Adabiyot tanlash va mustaqil vazifani bajarish.
15.	Internet. Internet tarmog‘ining paydo bo‘lishi.	Adabiyot tanlash va mustaqil vazifani bajarish.
16.	Kompyuter tarmog‘i. Tarmoq turlari. Kompyuter tarmoqlarida ishlash asoslari.	Adabiyot tanlash va mustaqil vazifani bajarish.
17.	Tarmoq xizmatlari va axborotlarining servis markazlari.	Adabiyot tanlash va mustaqil vazifani bajarish.
18.	Kompyuterni tarmoqqa bog‘lash. TCP/IP protokoli.	Adabiyot tanlash va mustaqil vazifani bajarish.
19.	Kompyuterni tarmoqqa ulash va ishga sozlash.	Adabiyot tanlash va mustaqil vazifani bajarish.
20.	Axborot xavfsizligi. Axborotlarni himoyalash. Himoyalash usullari.	Adabiyot tanlash va mustaqil vazifani bajarish.
21.	Ma’lumotlar bazasini loyihalash.Ma’lumotlar bazasini boshqarish tizimi tushunchasi.	Adabiyot tanlash va mustaqil vazifani bajarish.
22.	MS Access dasturida MB ni yaratish. Relyatsion MB. yaratsh. Loyihalash.	Adabiyot tanlash va mustaqil vazifani bajarish.

23.	Ma’lumotlar bazasi tillari. SQL tili. Operatorlar. Ma’lumotlarni qayta ishlash. Jadvallarni birlashtirish.	Adabiyot tanlash va mustaqil vazifani bajarish.
24.	MS Acces dasturida forma va hisobot yaratish.	Adabiyot tanlash va mustaqil vazifani bajarish.
25.	MS Acces dasturida so‘rov (Запрос) yaratish.	Adabiyot tanlash va mustaqil vazifani bajarish.
26.	MS Acces dasturida SQL tili buyruqlarini qo‘llash.	Adabiyot tanlash va mustaqil vazifani bajarish.
27.	Ma’lumotlar bazasini boshqarish tizimida SQL tilida so‘rovlar buyruqlarni qo‘llab avtomobillarga jadvallar va turli xil so‘rovlar yarating va kompyuterda saklang.	Adabiyot tanlash va mustaqil vazifani bajarish.
28.	Ma’lumotlar bazasini boshqarish tizimida SQL tilida со‘ровлар buyruqlarni qo‘llab dori darmonlarga jadvallar va turli xil so‘rovlar yarating va kompyuterda saklang.	Adabiyot tanlash va mustaqil vazifani bajarish.

III. TARQATMA MATERIALLAR

I SEMESTR. ЛАБОРАТОРИЯ TOPSHIRIQ VARIANTLARI.

Laboratoriya ishi №1.Fayl va katologlar bilan ishlash. Axborot o‘lchovi boyicha masalalar yechish.

1–Variant

1. Disk turlari va ularning vazifasi
2. Lazerli printer va uning turlari
3. Mikroprotsessor va uning turlari hamda o‘lchamlari
4. Operativ xotira va uning hajmi
5. Xab(hub) qurilmasi va uning vazifasi

2–Variant

1. Qattiq disk(vinchester) va uning hajmi
2. Sichqoncha va uning tugmachalari vazifalari
3. Kesh-xotira va uning vazifasi
4. 5,25 va 3,5 dyumli disketalar va ularning vazifasi hamda hajmi
5. Klaviatura, uning turlari va asosiy tugmachalari vazifasi

3–**Variant**

1. Disk yurituvchilar va ularning vazifasi, turlari
2. Port tushunchasi
3. Ma’lumot o‘lchami birliklari
4. Kompyuterning qo‘shimcha qurilmalari nimalardan iborat va ularning vazifalari
5. Flesh disk tushunchasi va uning hajmi

4–Variant

1. Monitor vazifasi va uning turlari
2. Kesh xotira va uning vazifasi
3. Kompakt disk yurituvchilar vazifasi va uning turlari
4. Kompakt disklar va ularning turlari
5. Portlar to‘g’risida ma’lumot bering

5–Variant

1. Klaviatura vazifasi va uning turlari
2. Qattiq disk o‘lchami va uni bo‘laklarga ajratish
3. Ishchi(taktovaya) chastota nima?
4. Printer vazifasi va uning turlari
5. Kompakt disklar va ularning turlari hamda hajmi

6–Variant

1. Skaner vazifasi va turlari
2. UPS qurilmasi va uning vazifasi
3. Kompyuter turlari
4. Plotter va uning vazifasi
5. Klaviatura vazifasi va uning turlari

7–**Variant**

1. Modem qurilmasi, uning turlari hamda vazifasi
2. Kompyuterni o‘chirish tartibi
3. Tizimli blok va uning tarkibidagi qurilmalarni vazifalari
4. Strimer va uning vazifasi

5. Kompyuterni ishga tushirish tartibi

8–Variant

1. Sichqoncha qurilmasi, uning chap va o‘ng tugmachalari vazifalari
2. Strimer va uning vazifasi
3. Skaner, uning turlari va vazifasi
4. Doimiy xotira to‘g’risida tushuncha
5. Disk turlari va vazifalari

9–Variant

1. Kompyuter turlari
2. Kesh xotira va uning vazifasi
3. Faks-modem va uning vazifasi
4. Mikroprotsessor vazifasi va uning turlari
5. Kompyuterning asosiy qurilmalari nimalardan iborat va ularning vazifalari.

10–Variant

1. Kompakt disk uchun disk yurituvchilar va ularning turlari
2. Printerlar va ularning turlari va chop qilish tezligi
3. Modem, uning vazifasi hamda turlari
4. Kompakt disklar va ularning turlari
5. Ma’lumot o‘lchami birliklari

11–Variant

1. Videoxotira to‘g’risida tushuncha
2. Materinskaya plata to‘g’risida tushuncha
3. Mikroprotsessor, uning turlari va vazifasi
4. Plotter va uning vazifasi
5. Doimiy xotira to‘g’risida tushuncha

12–Variant

1. Shaxsiy kompyuterlarning yaratilish tarixi
2. Skaner, uning turlari va vazifasi
3. Kompyuterning asosiy qurilmalari nimalardan iborat va ularning vazifalari.
4. Kesh-xotira vazifasi va o‘lchami
5. Modem, uning turlari va vazifasi

13–Variant

1. Kompyuterni o‘chirish tartibi
2. Printer, uning turlari va vazifasi
3. Flesh-disk nima?
4. Kompyuter bilan ishlashda texnika xavfsizligiga rioya qilish qoidalari
5. Monitor, uning turlari va vazifasi

14–Variant

1. Kompyuterni ishga tushirish tartibi
2. Klaviatura, uning turlari va vazifasi
3. Skaner va uning vazifasi
4. Ishchi(taktovaya) chastota tushunchasi
5. Mikroprotsessor, uning vazifasi va turlari

15–Variant

1. Shaxsiy kompyuterlarning yaratilish tarixi
2. Monitor, uning turlari va vazifasi
3. Kompyuter turlari
4. Kompyuterning qo‘shimcha qurilmalari nimalardan iborat va

ularning vazifalari
5. Ovozli xarita nima?

16–Variant

1. Skaner vazifasi va turlari
2. UPS qurilmasi va uning vazifasi
3. Kesh-xotira vazifasi va o‘lchami
4. Plotter va uning vazifasi
5. Skaner va uning vazifasi

17–Variant

1. Kompakt disklar va ularning turlari
2. UPS qurilmasi va uning vazifasi
3. Modem, uning vazifasi hamda turlari
4. Plotter va uning vazifasi
5. Videoxotira to‘g’risida tushuncha

18–Variant

1. Flesh-disk nima?
2. Kesh-xotira vazifasi va o‘lchami
3. Kompyuter turlari
4. Plotter va uning vazifasi
5. Strimer va uning vazifasi

19–Variant

1. Klaviatura vazifasi va uning turlari
2. UPS qurilmasi va uning vazifasi
3. Kompyuter turlari
4. Plotter va uning vazifasi
5. Skaner vazifasi va turlari

20–**Variant**

1. Kesh-xotira vazifasi va o‘lchami
2. Materinskaya plata to‘g’risida tushuncha
3. Printerlar va ularning turlari va chop qilish tezligi
4. Plotter va uning vazifasi
5. Kompyuter-Bloknotlar turlari

21–Variant

1. Skaner vazifasi va turlari
2. Cho‘ntak Kompyuterlari turlari
3. Videoxotira to‘g’risida tushuncha
4. Elektron Kotiblar xaqida nimalar bilasiz?
5. Klaviatura vazifasi va uning turlari

22–Variant

1. Elektron yozuv daftarchalari
2. Matritsali printerlar
3. Lazerli kompakt disklar
4. Plotter va uning vazifasi
5. Klaviatura vazifasi va uning turlari

23–Variant

1. Purkovchi printer vazifasi
2. UPS qurilmasi va uning
3. Kompyuter turlari
4. Plotter va uning vazifasi
5. Audioadapter

24–Variant

1. Lazerli printer vazifasi
2. Bit-bayt-fayl-katalog- mantiqiy disk
3. Drayverlar
4. Plotter va uning vazifasi
5. Klaviatura vazifasi va uning turlari

25–Variant

1. UNIX xaqida nimalar bilasiz?
2. Modem, uning turlari va vazifasi
3. O‘tilitlar
4. Plotter va uning vazifasi
5. Elektron yozuv daftarchalari

26–Variant

1. Kompyuterli nashriyot faoliyati
2. Kompilyator va Interpretatorlar
3. Diskli jamlagichlarning qanday turlari
4. Plotter va uning vazifasi
5. Klaviatura vazifasi va uning turlari

27–Variant

1. Multimedia dasturiy vositalari
2. UPS qurilmasi va uning vazifasi
3. Modem va faks-modemlar
4. Plotter va uning vazifasi
5. Klaviatura vazifasi va uning turlari

28–Variant

1. Sun’iy intellekt tizimlari
2. UPS qurilmasi va uning vazifasi
3. Axborotning qanday o‘lchov birliklari
4. Plotter va uning vazifasi
5. Klaviatura vazifasi va uning turlari

29–Variant

1. Skaner vazifasi va turlari
2. Drayverlar
3. Bit-bayt-fayl-katalog- mantiqiy disk
4. Plotter va uning vazifasi
5. Klaviatura vazifasi va uning turlari

30–Variant

1. Case-Texnologiyalar
2. SATA qurilmasi va uning vazifasi
3. Kompyuter turlari

4. Plotter va uning vazifasi
5. Sichqoncha vazifasi va uning turlari

Laboratoriya ishi №2.Ma'lumotlar bazasini Access 2010da yaratish. Access2010da jadvallar yaratish operatorlari. Access2010da so'rovnoma yaratish.

Quyidagi avtomobillar boyicha malumot bazasini loyihalang:

1.4 та jadval tuzing.



2.adr ichiga 2 maydon va 20 ta yozuv



3. avto ichiga 6 maydon va 20 ta yozuv



4. nom ichiga 2 maydon va 20 ta yozuv



5. nom ichiga 2 maydon va 20 ta yozuv



Topshiriq variantlari

1. Atomobil
2. Sport
3. Miliy taomlar
4. Dori darmon
5. Moda
6. Gullar
7. Xayvonlar
8. Adabiyot
9. Sa’nat
10. Kompyuter qurilmalari
11. Dekanat
12. Yo‘l qurilish soxasi
13. Er usti transport tizimlari
14. Chinni idish
15. Meditsina
16. Tabiyot

17. Muzey
18. Paxta
19. Avtomobil transporti
20. Iqtisodiyot
21. Pishiriqlar
22. Sanatkorlar
23. Sabzavotlar
24. Mevalar
25. Tarmoq
26. Tarixiy obidalar
27. Avtoservis
28. Asaka zavodi
29. O‘zbekiston shaharlari
30. Toshkent tumanlari

Laboratoriya ishi №3.Access2010da shakllar yaratish. Ms Access2010da hisobotlar yaratish.

1. Atomobil
2. Sport
3. Miliy taomlar
4. Dori darmon
5. Moda
6. Gullar
7. Xayvonlar
8. Adabiyot
9. Sa’nat
10. Kompyuter qurilmalari
11. Dekanat
12. Yo‘l qurilish soxasi
13. Er usti transport tizimlari
14. Chinni idish
15. Meditsina
16. Tabiyot
17. Muzey
18. Paxta
19. Avtomobil transporti
20. Iqtisodiyot
21. Pishiriqlar
22. Sanatkorlar
23. Sabzavotlar
24. Mevalar
25. Tarmoq
26. Tarixiy obidalar
27. Avtoservis
28. Asaka zavodi
29. O‘zbekiston shaharlari
30. Toshkent tumanlari

Laboratoriya ishi №4.Access2010da SQL tilini so‘rov yaratish buyruqlari.

T.R.	OPERATOR TURI	CO‘ROV SONI (MIN)	QISQA MAZMUNI
1	INSERT INTO	3	turli tipdagi va bir nechta yozuvlarni qo‘shish
2	SELECT	5	cheklangan sondagi yozuvlari chiqarish
3	DELETE	2	shart orqali o‘chirish, hammasini o‘chirish
4	UPDATE	3	turli tipdagi va bir nechta yozuvlarni hamda
5	MATEMATIK AMALLAR	2	kamida ikkitasi birga bo‘lsin
6	MUNOSABAT AMALLAR	3	kamida ikkitasi birga bo‘lsin
7	MANTIQIY AMALLAR	2	kamida ikkitasi birga bo‘lsin
8	ARRALASH	2	
9	DISTINCT	2	
10	WHERE	2	
11	BETWEEN	2	
12	IN	2	
13	LIKE	4	faqat boshidan, oxiridan, ixtiyoriy joydan
14	ISNULL	2	not bilan ham
15	NOT	3	murakkab amallar bilan
16	ORDER BY	2	hamma Topshiriqlar uchun
17	HAVING	2	
18	MAX	1	
19	MIN	1	
20	COUNT	1	
21	SUM	1	
22	COUNT(*)	1	
23	AVG	1	
24	ARRALASH	3	
25	YORDAMCHI SO‘ROVLAR	3	kamida 3 ta statik funksiyalar, amallar, operatorlardan foydalang
26	IN	2	
27	EXISTS	2	
28	ANY	2	
29	ALL	2	
30	CAST	1	
31	CONVERT	2	
32	CASE	3	
33	COALESCE	1	
34	NULLIF	1	
35	ODDIY	2	barcha Topshiriqlar
36	INNER JOIN	2	
37	LEFT OUTER JOIN	2	
38	RIGHT OUTER JOIN	2	

39	FULL OUTER JOIN	2	barcha Topshiriqlar
40	CROSS JOIN	2	
41	UNION	2	

1. Atomobil
2. Sport
3. Miliy taomlar
4. Dori darmon
5. Moda
6. Gullar
7. Xayvonlar
8. Adabiyot
9. Sa’nat
10. Kompyuter qurilmalari
11. Dekanat
12. Yo‘l qurilish soxasi
13. Er usti transport tizimlari
14. Chinni idish
15. Meditsina
16. Tabiyot
17. Muzey
18. Paxta
19. Avtomobil transporti
20. Iqtisodiyot
21. Pishiriqlar
22. Sanatkorlar
23. Sabzavotlar
24. Mevalar
25. Tarmoq
26. Tarixiy obidalar
27. Avtoservis
28. Asaka zavodi
29. O‘zbekiston shaharlari
30. Toshkent tumanlari

Laboratoriya ishi №5.Kompyuter tarmoqlari va topologiyalari.

1. /D diskda o‘z papkangizni yarating.
2. Lokal tarmoq orqali: 172.16.4.134 –BIK–2SEM–3 lab papkasidan topshiriq oling va bajaring.
3.Ishchi kompyuterizni lokal tarmoqqa ulanish xaqidagi ma’lumotni , server 172.16.4.134 –3 papkasiga tarmoq orqali kiriting va saqlang.
4. Internet Explorer dasturini ishga tushiring.
5. Internet qidiruv tizimiga kiring.
6. O‘zbekistonda suv xo‘jaligi holati va suv xo‘jaligida zamonaviy boshqaruv tizimlarini qo‘llashga oid ma’lumotlar yig’ing.
7. Ma’lumotlardan nusxa oling va o‘z papkangizga ko‘chiring.
8. Internet Explorer dasturini ishga tushiring.
9. Variantingizga oid Internet qidiruv tizimiga kiring.

Variantlar:

a) www.google.uz., www.naytov.com (O‘zbekistonda joylashgan qidiruv tizimlari);
b) www.rambler.ru,
c) www.aport.ru,

d) www.yandex.ru,
f) www.mail.ru, (Rossiyada joylashgan qidiruv tizimlari);
h) www.altavista.com,
i) www.yahoo.com (AQshda joylashgan qidiruv tizimlari).
10. www.nigma.ru qidiruv tizimida quyida keltirilgan mavzularda ma'lumotlar qidiring.
- ✓ Avtomobil Yo'llarining xalq xujaligidagi axamiyati
- ✓ O'zbekiston Respublikasi avtomobil yo'llari to'g'risidagi qonun
- ✓ Avtomobil yo'llarini tasniflanishi
- ✓ Avtomobil yo'llari elementlari
- ✓ Avtomobil yo'llarini bo'ylama va ko'ndalang kesimlari
- ✓ Avtomobil yo'llarida kichik suv inshootlarini joylashishi
- ✓ Suv o'tkazuvchi inshootlarning asosiy turlari
- ✓ Atmosfera va yer osti suvlarini yo'ldan chetlatish
- ✓ Transport oqimi xarakat qonuniyatlari
- ✓ Avtomobil g'ildiragidan yo'l to'shamasiga ta'sir etuvchi kuchlar

11. «Kompyuter tarmoqlari va topologiyalari.» mavzusiga oid ma'lumot izlang:
1. O'z shaxsiy elektron adresingizni oching.
2. Elektron adresingizdagi parolingizni saqlang va doimo yodda tuting.
3. O'z gruppadoshlaringiz bilan xat yozishing.
4. Laboratoriya ishni rasmiylashtiring.
5. Yuqorida keltirilgan berilgan variantlaringizga oid qidiruv serveriga kiring.
6. Quyida keltirilgan mavzular bo`yicha ma'lumot izlang, o'z papkangizda saqlang.
- ✓ Yo'l to'shamasi konstruktsiyalari turlari
- ✓ Yo'l to'shamalarini qurishni tashkil etish va qurish
- ✓ Avtomobil yo'llarini bir satxda kesishuvi. Xalqali chorraxalar
- ✓ Avtomobil yo'llarining xar xil satxda kesishuvchi turlari
- ✓ Avtomagistrallarni loyihalash xususiyatlari
- ✓ Avtomobil yo'llarini ta'mirlash va saqlash ishlari tasnifi.
- ✓ Avtomobil yo'llarini ta'mirlash va saqlash ishlarini rejalashtirish va ularni tashkil qilish.
- ✓ Avtomobil yo'llarini ta'mirlash va saqlash xizmatining vazifalari.
- ✓ Xarakat xavfsizligini ta'minlash.

7. Ma'lumotlaringizni www.inf-at@yandex.ru nomli elektron adresga xat orqali jo'nating.
8. Xatga Internetdan rasm, musiqa biriktiring.
11. Ma'lumotlardan nusxa oling va o'z papkangizga ko'chiring.
12. Laboratoriya ishni rasmiylashtiring.

Laboratoriya ishi № 6.Лаборатория topshiriq variantlari. C++ algoritmik tilning chiziqli operatorlar. Dasturlari bilan ishlash.

BERILGAN FUNKTSIYALARNING QIYMATINING HISOBLASH ALGORITMI VA DASTURINI TUZING.

1. Laboaratoriya ishini bajarish uchun topshiriq variantlari.Qoyidagi ifodalar qiymatini hisoblash algoritmi va dasturi tuzilsin.

1–variant

M. 12.11 r=20cm t=5c S=20sinπt v=? a=?

2–variant

M. 12.24 x=αt y=βt-$\frac{gt^2}{2}$ $a_\tau = ?$ $b_n = ?$

3–variant

M. 12.17 x=20t-sin20t , y= 1-cos20t t=0 a=? ρ=?

4-12–variant

M. 11. 7 M. 11.4 M. 10.9 M. 10.12 M. 10.13
M. 10.15 M. 10.16 M. 10.17 M. 10.20

13–variant

$k = c\,tg\,\frac{x-4}{0{,}6y} + \ln e^{0{,}5xy} - \sqrt[3]{x-0{,}15}$

бу ерда $x = 1{,}8;\quad y = 1{,}35.$

14–variant

$w = s\,in^2\,\frac{x^3}{2{,}65} + \ell n arctg^2 x^2 - 3{,}5\sqrt{x}$

бу ерда $x = 0{,}168.$

15–variant

$y = \arcsin x + 0{,}69 \cdot a \cdot tg^3 x - 2^{\sqrt{x+0{,}4}}$

бу ерда $x = 0{,}6;\quad a = 5.$

16–variant

$h = 4{,}5^a - \cos 2x^2 - \frac{8{,}46 \cdot c}{5^{a-c}} + ctg\ \ell n^2 x$

бу ерда $x = 0{,}6;\quad a = 2{,}5;\quad c = 1{,}96.$

17–variant

$p = \ell n\, e^x - \frac{\sqrt[3]{x+4}}{e^{x-5}} + \cos\frac{2x}{y}$

$y = \sin x$

бу ерда $x = 0{,}159.$

18–variant

$y = e^{\sqrt{2x+5}} + \frac{\ell n e^{x-5}}{|x-5|} - 3\sin x$

бу ерда $x = 0{,}695.$

19–variant

$y = e^{\sqrt{x+Sinx}} + \ell n x^3 + arctgx^2$

$x = 5z$

бу ерда $z = 3{,}5.$

20–variant

$$z = ctg\ \sin x^2 + \frac{0{,}55xy}{e^{\,x}} + \sqrt{x + y^2}$$

$y = e^{\,x+5}$

бу ерда $x = 0{,}5.$

21–variant

$$y = e^{\,arctgx} + \ell nctg^2 x - \frac{0{,}65x}{|\,x \cdot z\,|}$$

бу ерда $x = 0{,}67\,;\ z = -5.$

22–variant

$$a = 3^{\,x} + \frac{b+c}{c+d} + \ell n(x+b) + e^{\,c+e}$$

$x = b \cdot c \cdot d$

бу ерда $b = 3\,;\quad c = 4\,;\quad d = 5\,.$

23–variant

$$y = e^{\arcsin x} - 2^{\,a+b} - \sqrt[3]{x + 5ab}$$

$a = x + b$

бу ерда $x = 0{,}5;\quad b = 3{,}9.$

24–variant

$$w = e^{\,\ell n^2 x} - \sin 2{,}5x + \frac{|\,x - 5\,|}{\sqrt{x}}$$

$x = ctgz$

бу ерда $z = 0{,}36.$

25–variant

$$y = s\,in\,\frac{x-5}{0{,}6x} + \ell narctgx + \frac{\sqrt{|\,x - 5 \cdot a\,|}}{0{,}7x}$$

бу ерда $x = 0{,}75\,;\quad a = -0{,}1.$

Laboratoriya ishi №7.C++ algoritmik tilning tarmoqlanish operatorlar. Dasturlari bilan ishlash.

1–variant

$$y = \begin{cases} e^{\,\ell n^2 x}\,, & agar \quad x > 1 \\ arctg\,\dfrac{2x}{z}\,, & agar \quad x = 1 \qquad bu\ erda \quad z = 5. \\ \sqrt{|\,x - 0{,}5z\,|}\,, & agar \quad x < 1 \end{cases}$$

2–variant

$$z=\begin{cases}\sqrt{2x^3+3\ln 5x}\ , & agar \quad x>0\\ 2^{x-5}-\sin^2 x\ , & agar \quad x=0\\ arc\sin x^2\ , & agar \quad x<0\end{cases}$$

3–variant

$$y=\begin{cases}ctg^2x+\sqrt[3]{x+1}\ , & agar \quad x>0\\ |x^3-e^{ctgx}|\ , & agar \quad x=0\\ ln|x+0{,}5|\ , & agar \quad x<0\end{cases}$$

4–variant

$$z=\begin{cases}\ell n\,2{,}6x+4{,}5ctg^2x, & agar \quad x>0{,}5\\ sin^2x+\sqrt{x+0{,}6}\ , & agar \quad x=0{,}5\\ sin(x+0{,}5x^2+a\cdot b\cdot c), & agar \quad x<0{,}5\end{cases}$$

$bu\ erda \quad a=5; \quad b=-0{,}6; \quad c=-7.$

5–variant

$$y=\begin{cases}4{,}3^{0{,}2x}\cdot sin\sqrt{x}\ , & agar \quad x>1\\ 4{,}17\cdot arctg|x-5|\ , & agar \quad x=1\\ ctg\left(x+0{,}16\right)\ , & agar \quad x<1\end{cases}$$

6–variant

$$y=\begin{cases}\ell n^2x^2+\dfrac{0{,}6x}{\sqrt{x+0{,}5}}\ , & agar \quad x>1\\ (x+2)^2+ctg|x-3|, & agar \quad x=1\\ \sqrt[3]{|x+\sin x|}\ , & agar \quad x<1\end{cases}$$

7–variant

$$z=\begin{cases}\ell n|arctgx+0{,}7|\ , & agar \quad x>0\\ arcsinx\ , & agar \quad x=0\\ e^{arctgx}\ , & agar \quad x<0\end{cases}$$

8–variant

$$z=\begin{cases}x^{\alpha}+e^{x-5}+ctg3x\ , & agar \quad x>0{,}6\\ 4{,}14\cdot ctg^2x^3\ , & agar \quad x=0{,}6\\ \dfrac{x+1}{\sqrt{|x|}}\ , & agar \quad x<0{,}6\end{cases}$$

$bu \quad erda \quad \alpha=5.$

9–variant

$$y=\begin{cases} 2{,}6^{\ell nx}-sin\sqrt{x} \quad , \quad agar \quad x>0{,}8 \\ a^{2x-\sqrt{b}}-arccosx \quad , agar \quad x=0{,}8 \\ \cos 2x+|x-a\cdot b| \quad , agar \quad x<0{,}8 \end{cases}$$

$bu \quad erda \quad a=5; \quad b=4.$

10–variant

$$y=\begin{cases} 2^{x+7}-0{,}5\ln(x+1) \quad , \quad agar \quad x>1 \\ e^{arctgx}-5x^2 \quad , \quad agar \quad x=1 \\ \dfrac{x-5}{2}+tg|x-3| \quad , \quad agar \quad x<1 \end{cases}$$

11–variant

$$y=\begin{cases} sin(\ell n|x|)+\sqrt[3]{x+5} \quad , \quad agar \quad x>1 \\ 0{,}6\cos 2x+4{,}8^a \quad , \quad agar \quad x=1 \\ a^2-e^x+|x|+\ell n^2 x \quad , \quad agar \quad x<1 \end{cases}$$

$bu \quad erda \quad a=5{,}6.$

12–variant

$$y=\begin{cases} 4{,}3^2\cdot ctg\sqrt{x}+e^{5x} \quad , \quad agar \quad x>1 \\ \sqrt[3]{x^2+5} \quad , \quad agar \quad x=1 \\ 2x+arctgx^2 \quad , \quad agar \quad x<0 \end{cases}$$

13–variant

$$y=\begin{cases} x^2+4x-\pi\cdot x \quad , \quad agar \quad x<0 \\ (x^2+4)^2-\sqrt{x^2+0{,}36} \quad , \quad agar \quad 0\le x\le 1 \\ x\cdot(x^2+3)+\ell n^2(\pi+x) \quad , \quad agar \quad x>1 \end{cases}$$

14–variant

$$y=\begin{cases} e^{x+0{,}6}-|x-5| \quad , \quad agar \quad x\ge 5 \\ \ell n^2\left(1+\dfrac{1}{x}\right) \quad , \quad agar \quad 0<x<5 \\ ctg\,x+tgx \quad , \quad agar \quad x\le 0 \end{cases}$$

15–variant

$$y=\begin{cases} e^{\ell n^2 x}-tg^2\dfrac{x}{0{,}5} \quad , \quad agar \quad x=1{,}2 \\ \sqrt{3x^2+9{,}36x+5} \quad , \quad agar \quad x>1{,}2 \\ \ell n|4x-8{,}16| \quad , \quad agar \quad x<1{,}2 \end{cases}$$

16–variant

$$w=\begin{cases} e^{arctgx^2}+\sqrt{x^2+1} \quad , \quad agar \quad x\ge 0{,}68 \\ \sqrt{x^2+\ell nx} \quad , \quad agar \quad 0<x<0{,}68 \\ ctg\,6x+5\,\ell n|x| \quad , \quad agar \quad x\le 0 \end{cases}$$

17–variant

$$y=\begin{cases} cos^3x \quad , \quad agar \quad |x|<\dfrac{\pi}{2} \\ 1-e^{cosx} \quad , \quad agar \quad |x|>\dfrac{\pi}{2} \\ sin^2x \quad , \quad agar \quad |x|=\dfrac{\pi}{2} \end{cases}$$

18–variant

$$y=\begin{cases} a^{2x-1}-arccosx \quad , \quad agar \quad x<1 \\ sin\cdot\ell n(x^2+1) \quad , \quad agar \quad x=1 \\ \sqrt[4]{|x+5|} \quad , \quad agar \quad x>1 \end{cases}$$

bu erda $a=5.$

19–variant

$$y=\begin{cases} \sqrt{2x+5{,}46}+e^{sinx} \quad , \quad agar \quad x>1 \\ \ell n\,sin(x^3+1) \quad , \quad agar \quad x=1 \\ e^{x+t}+|x+t| \quad , \quad agar \quad x<1 \end{cases}$$

bu erda $t=-0{,}5.$

20–variant

$$y=\begin{cases} sin^2x+|x-1|+2\cdot\sqrt{xs} \quad , \quad agar \quad x>1{,}5 \\ \sqrt{3a-2bx+x^2} \quad , \quad agar \quad x=1{,}5 \\ e^{arctgx} \quad , \quad agar \quad x<1{,}5 \end{cases}$$

bu erda $a=10;\quad b=1{,}5.$

21–variant

$$y=\begin{cases} ctg\dfrac{3x}{5}+e^{\sqrt{tgx}} \quad , \quad agar \quad x>2{,}5 \\ \ell n2x^3+\sqrt{x+1}\,, \quad agar \quad x=2{,}5 \\ |x^3-ctg\,x| \quad , \quad agar \quad x<2{,}5 \end{cases}$$

22–variant

$$z=\begin{cases} arctg\,x^2+e^{tgx}, & agar \quad x>0 \\ sinx+\ell n|x+5|, & agar \quad x<0 \\ cos\,(x+4{,}5a), & agar \quad x=0 \end{cases}$$

$bu \quad erda \quad a=-0{,}5.$

23–variant

$$q=\begin{cases} 2tg\,x^2+e^{sinx}, & agar \quad 0\le x\le 1 \\ 4ctg\,2x+\ell n\,2{,}6x, & agar \quad x>1 \\ arcctg\,x, & agar \quad x<0 \end{cases}$$

24–variant

$$p=\begin{cases} \sqrt{x^2+3\ell n5x}, & agar \quad x>6{,}139 \\ |x^2+5x-5|, & agar \quad x<-1{,}5 \\ \dfrac{|x-8{,}16|}{x+4}-5x, & agar \quad -1{,}5\le x\le 6{,}139 \end{cases}$$

25–variant

$$y=\begin{cases} \sqrt{x}+\cos x+0{,}5\cdot x^2, & agar \quad x>1{,}5 \\ b\cdot e^{x+9}-\cos x, & agar \quad 0\le x\le 1{,}5 \\ tgx^2+x^{a+b}-x^2, & agar \quad x<1{,}5 \end{cases}$$

$bu \quad erda \quad \alpha=3; \quad b=-5.$

26–variant

$$Y_2=\begin{cases} 10+x_1^2 & x_1=\sin x_2 \\ e^{x_3} & x_1>\sin x_2 \\ (6-x_4)^2-22 & x_1<\sin x_2 \end{cases}$$

x_1=-19,54 x_2=-1,938 x_3=18,11 x_4=2,804

27–variant

$$Y_3=\begin{cases} \arcsin 0{,}47 & \cos 84^\circ > x_2 \\ 1 & \cos 84^\circ = x_2 \\ 2{,}71x_3 & \cos 84^\circ < x_2 \end{cases}$$

x_2=-1,938 x_3=18,11

28–variant

$$Z_1=\begin{cases} 2,71-4x_4^2 & \ln|x_1-2|<x_2 \\ 2,71+4x_4^2 & \ln|x_1-2|>x_2 \\ x_4^3+22,8x_4^2 & \ln|x_1-2|=x_2 \end{cases}$$

x_1=-19,54 x_2=-1,938 x_4=2,804

29–variant

$$Z_3=\begin{cases} \sin 37^\circ-2x & 3x_2<e^{x_1} \\ \cos\dfrac{\pi}{8}+x & 3x_2=e^{x_1} \\ 6x_3-3,07 & 3x_2>e^{x_1} \end{cases}$$

x=41,3 x_1=-19,54 x_2=-1,938 x_3=18,11

30–variant

$$Z_2=\begin{cases} \sqrt{x_1^2+x_2^2} & \ln 13=x \\ \sqrt[3]{x_1^2+x_2^2} & \ln 13<x \\ \cos\dfrac{\pi}{8}+12,93 & \ln 13>x \end{cases}$$

x= 41,3 x_1=-19,54 x_2=-1,938

Laboratoriya ishi №8.C++ algoritmik tilning takrorlanish operatorlar. Dasturlari bilan ishlash.

1–variant

$$y=a*\lg|(b+x)^{1/3}+a|+tg75^0$$

$$a=30,01;b=20,5$$

$$x=1(25)150$$

2–variant

$$Z=ax^2+\left(\frac{ax^2+b}{\cos 42^0}\right)^{3/5}$$

$$a=0,02;b=35$$

$$x=20(-2)10$$

3–variant

$$t = \frac{\arcsin^2 \frac{a}{x} - \sqrt{|\cos 30^0 - y|}}{ax + c}$$

$$c = 4; a = 14{,}03; y = 68$$

$$x = 15(1)20$$

4–variant

$$BL = \sqrt{\left(e^a + \ln|a|\right)^2 + 1} + \frac{t^2 - 1}{\sin 40^0 b}$$

$$b = 5; a = 4{,}4$$

$$t = 10(-0{,}1)9$$

5–variant

$$S = \left(\frac{\sin^3 a + \ln|x^2 + a|}{1 + \lg|10x| - b} \right)^2$$

$$a = -2{,}05; b = 12{,}124$$

$$x = -14(1) - 4$$

6–variant

$$B = (y^2 + 1)^{1/7} - \left(\frac{\arcsin \frac{x}{y}}{a^2 x + t} \right)^2$$

$$y = 31; a = 2{,}06; t = 18$$

$$x = 30(-10) - 30$$

7–variant

$$ZK = e^{(a-x)^2 b} + \ln\left|\frac{(a-x)^2}{bt}\right|$$

$$a = 0{,}07; b = 0{,}1; t = 10$$

$$x = -5(1)5$$

8–variant

$$Y = \sin^2 \frac{x}{a+b} + \sqrt{\left|b^2 - t^2\right| + 1}$$

$$a = 18{,}08; b = 40; t = 25$$

$$x = 25(2)45$$

9–variant

$$P = \ln\left|\frac{2a + x^2}{a - x^2}\right| + \frac{\sqrt[3]{t - a^2}}{\sqrt{|t - b^2|}}$$

